# PROBLEMS AND SOLUTIONS IN WORKING WITH THE POPULATION IN THE BANKING SYSTEM OF UZBEKISTAN

Nizametdinov Ali Akramovich[1]

Ibodulllayev Matlab Doniyor ugli[2]

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

KEYWORDS

bank, loans, inflation, market economy, inflation targeting, market price

ABSTRACT

In the article, the author explained the problems of working with the population in the banking system of Uzbekistan, the situations in banks and their internal rules, the procedure for working with the population. He revealed the shortcomings in the delivery of information about the growth and decline of inflation. The role of inflation in the impact of bank loans on the economy. Insights are given about the current reforms in Uzbekistan.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7406543
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Assistant, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[2] Stduent, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# O’ZBEKISTON BANK TIZIMIDA AHOLI BILAN ISHLASHDAGI MUAMMOLARI VA YECHIMLAR

KALIT SO‘ZLAR:
bank, kreditlar, infilyatsiya, bozor iqtisodiyoti, infilyatsion targetlash,bozordagi narx

ANNOTATSIYA

Maqolada muallif O‘zbekistondagi bank tizimida axoli bilan ishlashdagi muamolari yoritilgan, banklardagi vaziyatlar va ulardagi ichki tartib qoidalar, aholi bilan ishlash tartibi. Infilyatsiyani o‘sib va kamayib borishi xaqidagi ma`lumotlarni yetkazishda nuqsonlarni ochiqlab bergan. Bankdagi kreditlarni iqtisodiyotga tasirida infilyatsiyani o‘rni. Hozirgi kundagi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar xaqida tushunchalar berilgan.

Maqolada ekspertlarning raqamli bank va fintex kompaniyalari kirishiga yanada ko‘proq imkoniyat yaratish, hamda banklarda xizmat ko‘rsatish shoxobchalarini kengaytirish kerakligini ochiqlangan.

Shuningdek, muammoning yechimi sifatida bank xizmatlari ko‘rsatishning muqobil usullarini joriy etish bilan iste’molchilarga qulaylik yaratish va bank xizmati tranzaksiya vaqti, narxni kamaytirish hamda mijozlar uchun firibgarlik xavfini kamaytirish takliflari berilgan.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, raqamli bank va fintex kompaniyalari sonini oshirish, onlayn banking xizmatlarini takomillashtirish yo‘llari bilan moliyaviy xizmatlar sohasini yanada rivojlantirishga erishish mumkin.

Natijada qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratish, bandlikni oshirish, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish bilan birga kambag‘allikni qisqartirish imkoniyati yaratiladi.

Avvalroq Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi O‘zbekistonning 31 ta tijorat banki uchun “Bank faollik indeksi”ni yangilagan edi.

Indeksga ko‘ra, 17 ta yirik banklar uchun tuzilgan reytingda “Kapital bank” yuqori o‘rinni egalladi. O‘zbekistondagi 14 ta kichik banklar orasida “Universalbank” ikkinchi chorakda eng faol bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida»gi qarorni imzoladi.

Hujjatda qayd etilishicha, amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida bank tizimida xizmatlar ko‘rsatishning bozor mexanizmlari joriy etilmoqda, ularning turlari kengaymoqda, tadbirkorlar va aholi uchun moliyaviy ochiqlik oshib bormoqda.

Aholi uchun valyuta ayirboshlash amaliyotlarini amalga oshirishni yengillashtiruvchi yangi bank xizmatlari joriy etildi, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan chet el valyutasini sotib olish uchun imkoniyatlar yaratildi. Shu bilan birga, bank xizmatlari iste'molchilarining huquq va qonuniy manfaatlariga, ayniqsa, hududlarda rioya etish hamda moliyaviy ochiqlikni kengaytirish, shuningdek, xizmat ko‘rsatish madaniyati va bank tizimiga bo‘lgan ishonchni yanada oshirishda bir qator muammo va kamchiliklar

kuzatilmoqda. Xususan: birinchidan, kreditlarni ajratish bo‘yicha qaror qabul qilishda vakolatlar haddan tashqari markazlashganligi bosh banklar va ularning filiallari o‘rtasidagi javobgarlikning aniq chegaralanishiga to‘sqinlik qilmoqda; ikkinchidan, kredit buyurtmalarini ko‘rib chiqishning murakkab mexanizmlari

kreditlarni tezkor olish imkoniyatlarini chegaralamoqda; uchinchidan, tijorat banklari tomonidan mikroqarzlar ajratilishi imkoniyatining mavjud emasligi mikroqarzlarni olish darajasini oshirishni ta'minlamayapti, mikrokredit tashkilotlar va lombardlarning xizmatlar kbo‘yicha yuqori foiz stavkalari aksariyat holatlarda iste'molchilarning moliyaviy holati yomonlashishiga olib kelmoqda; to‘rtinchidan, chakana bank xizmatlari bozorining past darajada rivojlanganligi va mijozlar bilan hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yishning zamonaviy yondashuvlari mavjud emasligi ortiqcha byurokratiya va sansalorlik uchun zamin yaratmoqda; beshinchidan, bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish bo‘yicha davlat protsessing tashkilotining mavjud emasligi chakana to‘lov tizimlarining xavfsizlik, uzluksizlik va ishonchlilik darajasiga ta'sir ko‘rsatmoqda va aholining keng qatlamlari uchun ochiq innovatsion loyihalarni amalga oshirishda zamonaviy texnologik yechimlarni ilgari surishga to‘sqinlik qilmoqda; oltinchidan, kreditlarni (mikroqarzlarni) ko‘rib chiqish va ajratish uchun xizmat haqlari va boshqa to‘lovlarning undirilishi qarzning real qiymati oshishiga olib kelmoqda;

yettinchidan, shartnomalarga xizmatlar uchun tariflar, ajratilgan kreditlar va qabul qilingan depozitlar bo‘yicha foiz stavkalarni bir tomonlama o‘zgartirishni nazarda tutuvchi shartlarni kiritish, shuningdek, bir xizmatni qo‘shimcha xizmatdan foydalanish sharti bilan ko‘rsatish bank xizmatlari iste'molchilarining huquqlarini buzmoqda;

sakkizinchidan, bank to‘lov kartalaridan chet el valyutasini yechish bo‘yicha cheklovlarning mavjudligi va bankomatlar sonining yetarli emasligi valyuta ayirboshlash amaliyotlarini amalga oshirishda xizmat ko‘rsatishni talab darajasida ta'minlamayapti.

Kredit, bo‘sh turgan pul mablag‘larini ssuda fondi shaklida to‘plash va ularni pulga muhtoj bo‘lib turgan yuridik va jismoniy shaxslarga ishlab chiqarish va boshqa ehtiyojlari uchun ma’lum muddatga, foiz to‘lovlari bilan qaytarish shartida qarzga berish munosabatlarini ifodalaydi.

O‘zbekistonda yillik inflyatsiya darajasi keskin pastladi. Bu nimani anglatadi?

Avval xabar qilganimizdek, 2021-yil yakuniga ko‘ra O‘zbekistonda inflyatsiya darajasi 9,98 foizni tashkil etdi.

Birinchidan, bu ko‘rsatkich 2017-yildan beri ilk bor o‘n foizdan pastladi (2020-yilda 11,1 foizni tashkil qilgan, 2019-yilda 15,2 foiz edi, 2018-yilda 14,3 foiz, 2017-yilda 14,4 foiz).

Ikkinchidan, 2021-yil Markaziy bank mamlakatdagi inflyatsiya darajasini nazorat qila boshlaganidan keyingi birinchi yil bo‘ldi. Regulyator o‘z maqsadiga erishdi va inflyatsiyani 10 foizlik darajada ushlab turishning uddasidan chiqdi.

Inflyatsiyaning hayotga ta’siri

Inflyatsiya mamlakat taraqqiyotining eng muhim koʻrsatkichlaridan biridir — u qancha past boʻlsa, shuncha yaxshi.Masalan, Shveysariya kabi rivojlangan mamlakatlarda yillik inflyatsiya darajasi 1,5 foizdan oshmaydi, Venesuela kabi inqirozga botgan davlatlarda esa 500 foizdan oshib ketgan.Oʻzbekiston 2021-yil boshidan inflyatsion targetlash tizimiga oʻtdi. Bu tizimda Markaziy bank inflyatsiya boʻyicha maqsad (target) qoʻyadi va unga erishish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinadi. 2021-yil uchun moʻljallangan maqsad oʻn foiz boʻlgan boʻlsa, 2023-yilga kelib, bu koʻrsatkichni besh foizga yetkazish rejalashtirilgan. Maʼlumot uchun, besh foizli inflyatsiya bu Kanada va Buyuk Britaniya kabi davlatlar darajasiga teng koʻrsatkichdir.Targetlash doirasida narx barqarorligi moliyaviy barqarorlikni taʼminlaydi, chunki mamlakatdagi ahvol hamma uchun oydinlashadi va oldindan aytish mumkin boʻladi.

Masalan, investorlar, tadbirkorlar va boshqalar qaror qabul qilishga izchilroq yondashadi. Bu, oʻz navbatida, butun moliya tizimining barqarorlashuviga olib keladi hamda Markaziy bank ishtiroki darajasini pasaytiradi.Dunyodagi ahvol va milliy valyutaning oʻrni

Oʻzbekistonda inflyatsiya darajasi rekord darajada tushib ketgan bir vaqtda dunyoning koʻplab mamlakatlarida bu, aksincha, keskin tezlashib ketdi. Masalan,

Qoʻshma Shtatlarda u 40 yil oldin, Rossiyada esa besh yil oldin rekord darajaga yetgan.Buning bir qancha sabablari bor. Birinchisi, albatta, koronavirus — pandemiya ortidan deyarli barcha mamlakatlar pul-kredit siyosatini yumshatdi.

Yana bir boshqa sabablaridan biri — milliy valyutaning qadrsizlanishi. Masalan, turk lirasi bu yil deyarli 50 foizga qadrsizlandi va shu sabab inflyatsiya 20 foizdan oshdi.Bu vaziyatda oʻzbek soʻmi mustahkam turibdi — dastlabki oʻn oyda valyuta atigi ikki foizga qadrsizlandi.Markaziy bank rahbari Mamarizo

Nurmatovning taʼkidlashicha, valyuta tushumi eksport hisobiga 35 foiz oshishi, shuningdek, banklar va eksportchilar tomonidan valyuta ayirboshlash hajmining ortishi natijasida nisbatan barqaror kursga erishishning uddasidan chiqilgan.

Iqtisodiyotda davlat ishtirokining yuqori ulushi, xomashyo eksportiga kuchli bogʻliqlik va tarkibiy nomutanosiblik kabi hodisalar, ayniqsa, islohotlar davrida mahsulot va xizmatlar narxining oʻsishini sezilarli darajada tezlashtirib yuborishi mumkin.

Inflyatsion targetlash shu narsaga yoʻl qoʻymaslikka qaratilgan. Inflyatsiya darajasining pastligi narx-navo barqarorligini bildiradi, bu esa, oʻz navbatida, aholining turmush darajasiga ham, uning mehnat faoliyatiga ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi.Bu omillar oxir-oqibat aholining milliy valyutaga boʻlgan ishonchini oshirishi, iqtisodiyotdagi dollarlashuv darajasini pasaytirishi, ichki va tashqi investitsiya hajmining oshishiga olib kelishi koʻzda tutilgan.

**Xulosa**: Hozirgi kunda turli banklar iqtisodiyotidagi bozor mexanizmlarini hisobga olgan holda turli imtiyozlarga asoslanib kreditlar ajratmoqda. Bularni hammasi hozirgi bozor iqtisodiyotiga asoslangan holda va infilyatiya darajasini hisobga olgan holda kredit ajratmoqda.Hozirgi infilyatsiya 12% -11% tashil qilgani hisobiga kreditlar ajratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.

2. G'Aybullayev Sarvar O. et al. O 'ZBEKISTONDA ISTE'MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO 'NALISHLARI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 119-125.

3. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta 'lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.

4. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO'LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 58–60. – 2022.

5. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 96–98. – 2022.

6. Akramovich N. A. et al. RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'ZBEKISTONDAGI O'RNI //Conferencea. – 2022. – C. 67-69.

7. Nizametdinov Ali Akramovich. (2022). SUN'IY INTELEKTNI KADRLAR SIYOSATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 251–253. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/171

8. Nizametdinov A. et al. THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 251-254.

9. Nodira T., Maxfirat T. FORMATION AND DEVELOPMENT OF PRONUNCIATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN SCHOOL STUDENTS //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 1.

10. Nodira T., Maxfirat T. MODERN METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION TO PRIMARY SCHOOL PUPILS IS BASED ON THE JAPANESE EXPERIENCE //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 205-208.

11. Muxtarov, B., & Murotjonova, M. (2022). O'zbekiston respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining rivojlanishi. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 581–584. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5340

12. Muxtarov, B. (2022). Ozbekiston respublikasida axoli daromadlarini osish dinamikasi . Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish

Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 579–581. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5339

13. To‘ychiyeva N. AGRAR SOHADA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 53-56.

14. To‘ychiyeva N. AGRAR TARMOQDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 3-6.

15. Nodira T., Maxfirat T. FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION IN GRADES 1-4» //РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ. – С. 1133.

16. Sirojiddin S., Nodira T., Dinora S. CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 265-270.

17. Sirojiddin S., Azizbek A. TRANSITION TO THE MARKET ECONOMY AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 255-258.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# CREATING A COMPETITIVE ENVIRONMENT

Tuychieva Nodira[1]
Soriyev Siroj[2]

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

KEYWORDS
competition, competitive, monopoly, realization, innovative, cross-border

ABSTRACT
Competition consists of a conflict of economic interests of market entities, which means a struggle between them for higher profits and more productivity. The introduction of new technology, the rapid adoption of on-demand product types, the availability of skilled labor and the use of modern marketing services become a prerequisite for winning the competition.
Another condition for the existence of competition is the presence of commodity money relations, a market system that is developed to a certain extent. Therefore, the main field of competition is the market.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7406561
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Assistant, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[2] Stduent, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan (sirojsoriyev21@gmail.com)

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# IQTISODIYOTDA RAQOBATBARDOSHLIK MUHITINI YARATISH

KALIT SO‘ZLAR:
raqobat, raqobatbardosh, monopoliya, realizatsiya, innovatsion, transchegaraviy

ANNOTATSIYA

Raqobat -bozor sub’ektlari iqtisodiy manfaatlarining to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi. Yangi texnologiya joriy qilish, talabga javoban tovar turlarini tez o‘zlashtirish, malakali ishchi kuchiga ega bo‘lish va zamonaviy marketing xizmatidan foydalanish kabilar raqobat kurashidan g‘olib chiqish shartiga aylanadi.
Raqobat mavjud bo‘lishining yana bir sharti - bu tovar pul munosabatlarining, ma’lum darajada rivojlangan bozor tizimining bo‘lishidir. Shu sababli raqobatning asosiy sohasi bozor hisoblanadi.

Raqobat muhiti deb bozor munosabatlari ishtirokchilarining xo’jalik yuritishda teng imkoniyatlarni ta’minlaydigan iqtisodiy, qonuniy, tshkiliy va siyosiy sharoitlar majmuasiga aytiladi.

Hozirgi sharoitda mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlash, fuqarolarning turmush farovonligini yaxshilash, jahonda o‘zaro foydali hamkorlikni kengaytirish uchun jahon iqtisodiyotida munosib o‘rinni egallash zarur va buning uchun albatta iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Demak, raqobatbardoshlik muhitini himoyalash bu mamlakatda iqtisodiy jarayonlarni himoyalashning eng ahamiyatli elementlaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, raqobatbardoshlikni qo‘llab-quvvatlash yoki uning cheklanishi bilan kurashish, o‘z navbatida monopoliyaga qarshi murosasiz kurashishni aks ettiradi.

Raqobat asosiy iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, moddiy ne’matlarni taqsimlash, iste’molchilarning manfaatlarini qanoatlantirishning oqilona vositasidir. Raqobat zarur darajada o‘zini-o‘zi tartibga solishga qodir emas. Shu sababli bozor oqilona faoliyat ko‘rsatishi uchun raqobat sharoitlarida mavjud munosabatlarni maxsus qonun bilan tartibga solishni taqozo etadi. Raqobat hamma uchun, hamma joyda kerakdir.

Bizga ma’lumki, raqobat bo‘lmasa, intilish, rivojlanish bo‘lmaydi. Raqobat iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o‘z manfaatlarini to‘laroq yuzaga chiqarish, ya’ni yaxshi daromad topish, o‘z mavqeini mustahkamlash, o‘z qobiliyatini namoyon etish uchun boshqalar bilan kurashishdir.

Odatda rivojlangan davlatlarda tovarlarni muayyan tartibda va shaklda realizatsiya qilishning hech qanday talabi mavjud emas. Nimani, qayerda, kimdan va qanday bahoda sotib olishni faqat iste’molchi o‘zining xohishi va to‘lovga qobiliyatliligiga qarab o‘zi belgilaydi. Raqobat rivojlangan sari odamlarning turmush darajasi yaxshilanib boradi, raqobatning yo‘q qilinishi esa iqtisodiyotni inqirozga hamda odamlarning turmush

darajasining tushib ketishiga olib keladi. Faqatgina raqobat vositasida narxi arzon va sifati yuqori bo‘lgan tovarlar ishlab chiqiladi hamda realizatsiya qilinadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotida raqobatning quyidagi asosiy vazifalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) tartibga solish vazifasi;
2) resurslarni joylashtirish vazifasi;
3) innovatsion vazifa;
4) moslashtirish vazifasi;
5) taqsimlash vazifasi;
6) nazorat qilish vazifasi.

Prezidentimiz o‘z ma’ruzalarida “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risidagi qonon bugungi kunda eskirdi va zamon talablariga javob bermay qoldi. Shuni e’tiborga olgan xolda “Raqobat to‘g‘risidagi” yangi qonunni ishlab chiqarishimiz va qabul qilishimiz zarur.” - deb ta’kidlagan edilar.

Shulardan kelib chiqqan xolda, raqobat bozor iqtisodiyotini harakatlantiruvchi mexanizmi hisoblanadi. Zero, raqobat tashqi kuch sifatida maydonga chiqib, korxonalarda mehnat unumdorligini oshirish, harajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarish va mehnatni oqilona tashkil etishga, binobarin ishlab chiqarishni kengaytirish va samaradorligini oshirishga doimo undab turadi.

Raqobat nima ishlab chiqarish kerak? degan savolga aniq javob beradi. Chunki xaridorning tovar va xizmatlarni sotib olishga sarflash uchun mo‘ljallangan mablag‘lari doimo cheklangan bo‘ladi. O‘z navbatida tovar ishlab chiqaruvchilar o‘z tovarlarini sotish orqali ushbu mablag‘larga ega bo‘lish maqsadida kurashadilar.

Bugungi kunga kelib raqobat muhitini yanada keng roq yaratish muhim masalalardan biri bo’lib qolmoqda.

Bu borada yurtimizda raqobatni rivojlantirishga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish ko’zlanmoqda:

- raqobatni himoya qilish va rivojlantirish tizimini transformatsiya qilish hamda monopoliyaga qarshi tartibga solishning milliy iqtisodiyotda va jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan tarkibiy o‘zgarishlar va jarayonlarning yuksak talablariga javob beradigan mutlaqo yangi ilg‘or modelini yaratish;
- tovar va moliya bozorlarini tahlil qilishning moslashuvchan, shu jumladan, xulq-atvor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan vositalari va usullarini joriy etish;
- raqobatni himoya qilish bo‘yicha oldini oluvchi vositalarni, shu jumladan, monopoliyaga qarshi komplayens mexanizmi – birinchi navbatda tovar va moliya bozorlarida ustun mavqeni egallab turgan xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar ichida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga muvofiqlikni ta’minlash tizimini joriy etish;
- rag‘batlantiruvchi tariflar shakllantirishning raqobatni kuchaytiruvchi ta’sir ko‘rsatadigan yangi yuqori samarali usullari va ularni qo‘llashni nazorat qilish

mexanizmlarini joriy etish hisobiga tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxlari (tariflari)ni davlat tomonidan tartibga solish tizimini tubdan takomillashtirish;

- raqamli iqtisodiyotni monopoliyaga qarshi tartibga solishning samarali vositalarini, shu jumladan, raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishlari transchegaraviy shakllarining oldini olish maqsadida yaratish;
- raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini buzganlik uchun huquqiy ta’sir ko‘rsatish choralarini kuchaytirish va bir vaqtning o‘zida huquqni qo‘llashda keng ixtiyor beradigan vakolatlarni bekor qilish;
- munosib moddiy ta’minot va ijtimoiy sharoitlar borasida ijtimoiy kafolatlarni nazarda tutgan holda Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi faoliyati samaradorligini oshirish hamda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi turli omillarning oldini olish va hakozo.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki O’zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o’tish davrida hukumat tomonidan iqtisodiyotda raqobat muhitini yaratish masalasiga alohida e’tibor berildi. Jahondagi barcha rivojlangan davlatlarda bo’lgani kabi O’zbekistonda ham raqobat bo’yicha davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Raqobatni rivojlantirish va monopoliyaga qarshi kurashish borasida mutlaqo yangi tizim yaratish lozimligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Oliy ta’lim tizimida raqobatni rivojlantirish yo’nalishi bo’yicha alohida fakultet, kunduzgi va sirtqi o’qish shaklini ochish, yangi fan joriy qilish va ushbu maqsadlar uchun akademik soatlar ajratish bo’yicha ko’rsatmalar berilib kelinmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. ltbach, F. (2008) The complex roles of universities in the period of globalization. Higher Education in the World 3,pp. 5–14. URL: https://www.researchgate.net/publication/277128834_The_complex_roles_of_universities_in_the_period_of_globalization/stat

2. Baregheh, A., Rowley, J., & Sambrook, S. (2009) “Towards a multidisciplinary definition of innovation”. Management Decision. 47(8): 1323–1339.URL: https://www.researchgate.net/publication/41104662_Towards_a_Multidisciplinary_Definition_of_Inno

3. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.

4. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta ‘lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.

5. Nizametdinov A. A. OLIY TA’LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO‘LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 58–60. – 2022.

6. Nizametdinov A. A. OLIY TA’LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 96–98. – 2022.

7. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF" MACROECONOMICS" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 1. – С. 209-210.

8. To'ychiyeva N. Elektron Ta 'lim Tizimining Afzalliklari Va Kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 40-41.

9. Норбеков Х., Туйчиева Н. Формирование конкурентных преимуществ компании //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 589-592.

10. Nodira T., Maxfirat T. FORMATION AND DEVELOPMENT OF PRONUNCIATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN SCHOOL STUDENTS //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 1.

11. Nodira T., Maxfirat T. MODERN METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION TO PRIMARY SCHOOL PUPILS IS BASED ON THE JAPANESE EXPERIENCE //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 205-208.

12. Nodira T., Rashid X. PROBLEMS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 155-164.

13. Nodira T. PRIORITIES FOR ORGANIZING ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES IN THE AGRICULTURAL SECTOR //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 192-199.

14. Nodira T. INNOVATIVE MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 346-351.

15. To‘ychiyeva, N. (2022). AGRAR SOHADA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(4), 53–56. Retrieved from http://researchedu.org/index.php/cf/article/view/625

16. To‘ychiyeva , N. (2022). AGRAR TARMOQDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(4), 3–6. Retrieved from http://researchedu.org/index.php/cf/article/view/624

17. To‘ychiyeva N. THE MAIN CHARACTERISTICS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – Т. 1. – №. 6. – С. 103-105.

18. Nodira T., Maxfirat T. FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION IN GRADES 1-4» //РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ. – С. 1133.

19. Nizametdinov Ali Akramovich. (2022). SUN’IY INTELEKTNI KADRLAR SIYOSATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 251–253. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/171

20. Akramovich N. A. et al. RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'ZBEKISTONDAGI O'RNI //Conferencea. – 2022. – С. 67-69.

21. Nizametdinov A. et al. THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 251-254.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION

Velieva Susanna Raipovna[1]
Saydullaeva Dinora[2]

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

KEYWORDS
market price, current price, economic price, initial price, contract price, retail price, subsidized price, dumping price, official price, regional price, price range

ABSTRACT
The price system is used in the sale of goods and services in various sectors of the economy. Current and comparative prices are used to calculate the state of the national economy. Current prices are current prices and are used to calculate production results for the year.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7406585
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[2] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB (dinorasaydullayeva6@gmail.com)

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# ХАРАКТЕРИСТИКИ ЦЕНЫ И ФОРМИРОВАНИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

рыночная цена, текущая цена, экономическая цена, первоначальная цена, договорная цена, розничная цена, субсидируемая цена, демпинговая цена, официальная цена, региональная цена, ценовой диапазон

АННОТАЦИЯ

Система цен используется при реализации товаров и услуг в различных отраслях экономики. Текущие и сравнительные цены используются для расчета состояния национальной экономики. Текущие цены являются текущими ценами и используются для расчета производственных результатов за год.

Является одним из важных структурных элементов ценно-рыночного механизма, своими задачами способствует формированию и эффективному функционированию стабильной экономики, обеспечению рыночного равновесия. Он создает условия для распределения национального дохода по отраслям и отраслям экономики, хозяйствующих субъектов, для социальной защиты населения. Она также стимулирует производителей и оказывает большое влияние на создание здоровой конкурентной среды. В данной главе рассмотрены функции экономического содержания цены, принципы ее формирования, факторы, влияющие на уровень цен, виды цен подробно описаны. Также рассмотрены особенности ценообразования в условиях разного уровня конкуренции, ценовая политика государства и ее специфические аспекты в Узбекистане.

Стоимость товаров и их полезность отражаются в цене. В практической жизни ценность выступает в качестве движущей силы для производителей, а рентабельность — в качестве движущей силы для потребителей. В результате недостаточного учета единства этих двух характеристик продукта, т. е. общественной ценности и общественной полезности, в которых потребительская стоимость (полезность) является материальной основой, несущей значение цены, ценовое содержание разная разными учеными и течениями определяется и определяется по-разному. Кроме того, на уровень цены (высокая она или низкая) и ее изменение влияют различные факторы, что также затрудняет правильное понимание вопроса. Затраты труда на отдельные товары различны, одни из них полностью признаются общественными затратами труда, другие признаются частично, а третьи могут вообще не признаваться. Неверно думать, что на него влияют факторы, отличные от стоимости труда, и в результате цена может быть ниже или выше стоимости. Покупка продукта означает, что он полезен для общества, и в то же время он признается своей социальной ценностью. Поэтому само понятие общественной полезности показывает полезность и ценность продукта (услуги) для общества, выражает его существование и определенную их сумму в денежной форме. Если не признаются сразу две характеристики товара, а если они не выражены в

деньгах, продажа не состоится. Потому что на стороне стоимости товара лежит интерес продавца, а на стороне полезности (потребительской ценности) — интерес покупателя, если он стремится овладеть товаром, покупатель старается получить как можно больше пользы (потребительской ценности) на каждую затраченную им единицу денег. В точке, где их интересы совпадают, цена устанавливается на уровне, происходит обмен товаров и денег, происходят продажи. Экономическое содержание цены становится более очевидным при рассмотрении ее задач. Цена выполняет следующие основные задачи:

1.Задача обеспечения равновесия: В этом случае цена, воздействуя на величину и состав спроса и предложения на рынке, приводит их в состояние равновесия.

2.Задача измерения стоимости и рентабельности. Мы говорим, что цена есть выражение стоимости и рентабельности в деньгах, потому что произведенные затраты и полученные результаты (прибыль или убыток) рассчитываются на основе цен. Существуют также натуральные показатели производства и его результаты (тонна,кг,$м^2$,$м^3$,квт-час и другие). Сравнение этих показателей таким образом не может привести к общему показателю. Общей мерой всех натуральных показателей является его цена, выраженная в деньгах. Для расчета используются текущие и сравнительные цены. Текущие цены - это фактические цены, с помощью которых рассчитываются результаты производства в течение года. Сравнительные цены исходят из определенного года (базового года), и результаты производства рассчитываются по этой цене и рассчитываются с другими годами. Динамика валового национального продукта, национального дохода, реальной заработной платы и тому подобные показатели рассчитываются в сравнительных ценах, поскольку текущие цены могут меняться в связи с инфляцией и могут не отражать реальных экономических результатов.

3.Регулирующая задача. Рыночная ситуация (конъюнктура) зависит от спроса и предложения и их соотношения. Увеличение спроса означает расширение производства определенного товара, а в обратном случае возникает излишек товара, и он необходимо сократить его производство. Цена влияет на деятельность производителей товаров через их доходы. Если цена высока, прибыль будет увеличиваться, если цена падает, прибыль будет уменьшаться, и даже производство может пострадать. Эти производители Если цена растет, то производство будет расширяться. Другие капиталы также начинают перетекать в отрасли и отрасли с высокой прибылью .Таким образом, цена регулирует производство, изменяет его и обеспечивает его развитие.

4.Функция конкурентного инструмента. Цена является важнейшим инструментом конкуренции. Производители могут использовать метод снижения цены, чтобы победить своих конкурентов. Поэтому метод изменения цены широко используется в конкурентной борьбе.

5.Функция социальной защиты. Цена также выполняет функцию защиты

некоторых малообеспеченных слоев населения. Эта функция цены выполняется при реализации товаров (услуг) по социально дотируемым ценам В этом случае они финансово поддерживаются за счет государственного бюджета и различных благотворительных фондов. На этапе перехода к рыночной экономике цены, служащие социальной защитой, используются также для обеспечения минимального уровня жизненно необходимых потребительских товаров широким слоям населения. Например, в нашей республике с 1991 по 1995 годы мука и мучные изделия, сахар, мясо, растительное масло, чай, мыло продавались по субсидированным ценам в ограниченных количествах. Таким образом, цена как инструмент рыночных отношений выполняет важные задачи, неразрывно связанные друг с другом. Разнообразие условий производства и сбыта в различных отраслях и отраслях экономики и уровень развития рыночных отношений заставляют различать различные виды цен. Все виды цен, действующие в экономике, составляют систему цен. Кратко рассмотрим экономическое содержание некоторых их видов в системе цен Цена, используемая оптовиками при реализации сразу большого количества товара. Оптовые цены необходимы для покрытия затрат производителей и снабженческо-сбытовых организаций и обеспечения получения ими определенной прибыли. Оптовая цена применяется также на товарных биржах и в торговых домах. Цена договора определяется соглашением продавца и покупателя, цена, по которой осуществляется возврат заключенного ими договора. Цена договора обычно не меняется в течение действия договора период. Эта цена на национальном и международном рынках используется. При использовании на международном рынке она близка к мировой цене товаров (услуг).Розничная цена – это цена, по которой товары продаются непосредственно потребителям. Розничная цена включает в себя оптовую цену товаров, затраты организаций розничной торговли. и их прибыль. Розничная цена является спросом на товары играет роль связующего предложения и может быть высокой или низкой в зависимости от их соотношения.

Деятельность государства по регулированию цен создает лимитированные (предельные) и субсидируемые цены. Ограниченная цена – это цена, верхняя или нижняя граница которой устанавливается государством и может изменяться в этом диапазоне. С помощью такой цены государство ограничивает инфляции и контролирует уровень цен. Эта цена используется для обеспечения минимальными жизненными потребностями малообеспеченных семей, вдов, безработных и инвалидов. Демпинговая цена – это специальная цена, используемая фирмами для укрепления своих позиций на рынке и вытеснения с рынка конкурентов, ее также называют ценой входа на рынок.

Демпинговая цена является частью официальной цены. Это цена, используемая фирмами для получения высокой прибыли без изменения фактической цены и объема продаж. Для применения этой цены необходимо наличие монопольного положения на рынке с ограниченной конкуренцией. В этой

ситуации спрос не зависит от цены, поэтому повышение цены не приводит к резкому сокращению реализации товара. Кроме того, есть престижные товары, которые покупаются высокообеспеченным слоем населения, и продаются они по престижным ценам. В развитых странах для населения с высоким доходом, владеющего загородным двором, отдыхающего на известных курортах, затем носящего реплики одежды, новые модели или престижное потребление. Высококачественное потребление создает престижные цены. При применении авторитетных цен учитываются себестоимость производства товаров и уровень рентабельности, рыночный спрос, его изменения и условия конкуренции на рынке.Соответственно используются фиксированная (стандартная) цена, которая не меняется в течение определенного периода, и переменная цена. Есть товары, цены на которые потребители предпочитают не менять. Например, в такие цены включены определения коммунальных услуг, транспортных услуг.

Использованная литература

1. Шодмонов Ш.Ш., Юсупов Р.А. Современная рыночная экономика и теория и практика.-Т:ТДИУ
2. Шодмонов Ш.Алимов Р.Зораев Т.Экономическая теория.-Т: Финансы, 2002.-416 с.
3. Зияев Т.М. Сетевая и предпринимательская экономика.-Т:ТДИУ, 2007.
4. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 185-191.
5. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta ‘lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 29-31.
6. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA’LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 96–98. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/104
7. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA’LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO‘LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 58–60. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/96
8. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF" MACROECONOMICS" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 1. – С. 209-210.
9. Nizametdinov A. et al. THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 251-254.

10. Akramovich N. A. et al. RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'ZBEKISTONDAGI O'RNI //Conferencea. – 2022. – C. 67-69.

11. Nizametdinov Ali Akramovich. (2022). SUN'IY INTELEKTNI KADRLAR SIYOSATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 251–253. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/171

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# MARKETING, ITS TASKS AND TYPES

Saitov Siroj Abduvaliyevich[1]
Najmiddinov Dilshod Rafiddin ugli[2]
Abdihomidov Zarif Sherzod ugli[3]

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

KEYWORDS

marketing activity, marketer, profit, consumer, achieving maximum high consumption, marketing advantages, community wealth

ABSTRACT

In this article we will make a research about the concept, content and essence of marketing, about its goals and objectives, types, about the advantages of marketing, about the role it currently occupies in the eyes of the world community, for what purpose it is used.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7421292
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Assitant, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[2] Intern, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[3] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# MARKETING, UNING VAZIFALARI VA TURLARI

KALIT SO‘ZLAR:
marketing faoliyati, marketolog, foyda olish, iste’molchi, maksimal yuqori iste’molga erishish, marketing afzalliklari, jamiyat boyligi

ANNOTATSIYA
Ushbu maqolada marketing tushunchasi, mazmun-mohiyati haqida, uning maqsad va vazifalari, turlari haqida, marketingning afzalliklari, hozirgi kunda dunyo hamjamiyati oldida tutgan o`rni haqida, nima maqsadda foydalanilishi haqida so`z boradi.

Hozirgi kunda dunyo bo`ylab dolzarb masalalar, turli muammolar yuzaga kelmoqda, yangidan yangi kashfiyotlar qilinmoqda. Bundan tashqari, zamon o`zgargan sayin hayot murakkablashmoqda, yashash qiyinlashmoqda. Ishlab chiqarish hajmi kun sayin ortib bormoqda. Bu davrda endi hamma o`zi uchun o`zi harakat qilishi kerak. Shunda savol tug`iladi: Ishlab chiqarishni tashkil qilish va uni yuritish uchun nima qilish kerak?

Ishlab chiqarishni tashkil qilishdan oldin, dastlab, bozorni o`rganish maqsadga muvofiq bo`ladi. Bozorni o`rganishda marketing bo`yicha bilim va ko`nikmalarga ega bo`lishi kerak.

Marketing atamasi dastlab 1902 yilda AQShda paydo bo’lgan, 20 yildan keyin esa bu atamadan jahonning ko’pgina mamlakatlari foydalana boshladilar. Marketing (marketing) “bozor bilan bog’liq faoliyat” ma’nosini anglatadi. Lekin bu tushunchaning ma’nosi juda kengdir.

Marketing tushunchasiga ko`plab iqtisodchi olimlar, marketologlar o`z fikrlarini bildirishgan.

Joel Evans va Barriy Bermanlar marketingga quyidagicha ta’rif berganlar: “Marketing – Tovar, xizmat, tashkilot, hudud va g`oyalarga bo`lgan talabni oldindan bilish, boshqarish va qondirishdir.”

Berni Gudrich: “Marketing – bu iste’molchilarning ehtiyoj va istaklarini aniqlash, bashorat qilish va yaratish. Kompaniyaning barcha resurslarini kompaniya va iste’molchi uchun katta foyda bilan qondirish uchun tashkil etish jarayonidir” deya ta’rif bergan.

Filipp Kotler ham marketing haqida o`z fikrini bayon qilgan: “Marketing – bu takliflarni yaratish va tovarlarni (g`oyalar, xizmatlar va boshqalar) almashish orqali ham jismoniy shaxslar, ham guruhlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ijtimoiy boshqaruv jarayonidir.”

Mashhur iqtisodchi Adam Smit XVIII asrning ikkinchi yarmidayoq o’zining “Jamiyat boyligi” nomli kitobida ishlab chiqaruvchining iste’molchining talabini qondirishdan boshqa qayg’usi yo’qdir – deb yozgan edi.

Marketing talabni qondirishga qaratilgan faoliyat bo’libgina qolmay, balki talabga ta’sir ham qilishdir. Talab marketing maqsadini, shu bilan birga kerakli marketing strategiyasini tanlashga imkon beradi.

Marketing sohasidagi adabiyotlarda asosan marketingning to`rtta maqsadi keltiriladi:

1. Mumkin bo`lgan maksimal yuqori iste'molga erishish;
2. Iste'molchilarga talabining maksimal qondirilishiga erishish;
3. Iste'molchilarga keng assortimentdagi tovarlarni tanlashiga imkoniyat yaratish;
4. Aholi turmush darajasi sifatini oshirish.

Ko'pchilik rahbarlar marketingning – ishlab chiqarishning maksimal o'sishi va korxonaning boyishida asosiy omil yuqori iste'molga erishini rag'batlantirishda deb biladilar. Bu fikrni boshqacha ifodalasak, odamlar qancha ko'p sotib olsa va qancha ko'p iste'mol qilishsa, shuncha baxtli bo'ladilar degan ma'noni anglatadi. Lekin, ba'zi bir kishilar moddiy boyliklar masalasining ortishi katta baxtga erishishdan dalolatdir degan fikrga shubha bilan qaraydilar. Demak marketingning maqsadi faqat mumkin bo'lgan maksimal iste'molga erishishdangina iborat emas ekan.

Marketing tizimining asosiy maqsadi mumkin bo'lgan maksimal yuqori iste'molga erishish emas, balki iste'molchilarning talabini maksimal qondirishdan iboratdir. Bu degani tovar massasi iste'moli ko'p bo'lsada, u biron-bir ahamiyatga ega bo'lmasligi mumkin. Ularning ahamiyatliligi, tovar massasining ko'pligi bilan emas, balki bu tovar massalarning qanchalik darajada iste'molchilarning talabini qondira olishi bilan o'lchanadi. Afsuski, iste'molchilarning talabining qondirilish darajasini o'rganish to hozirgi kungacha muammoligacha qolmoqda.

Ko`pchilik mutaxasislar marketing tizimining asosiy maqsadi aholi "turmush darajasining sifati" ni yaxshilashdan iborat deb biladilar.

Umumiy holda marketingning asosiy maqsadi, uning vujudga kelish, shakllanish va rivojlanishning ob'ektiv sabablari, zarurati bilan belgilanadi.

Marketing ishlab chiqarishni xaridor ehtiyojiga moslashtirib, talab va taklifni muvozanatiga erishgan holda, uni tashkil etgan korxona tashkilotlarga yuqori foyda keltirishdir. Bunga erishish uchun marketing quyidagi muhim vazifalarni hal etmog'i lozim:

- Xaridorlar ehtiyojini o`rganish va aniqlash;
- Tovarlarga bo`lgan ichki va tashqi talabni o`rganish;
- Korxonaning faoliyatini xaridorlar ehtiyojiga moslashtirish;
- Avvalo talab va taklif to`g`risida olingan ma'lumotlar asosida bozorni o`rganish;
- Tovarlar reklamasini tashkil etish, xaridorlarni tovarlarni sotib olishga qiziqtirishini oshirish;
- Tovarni bozorga chiqarishdagi barcha xizmatlar to`g`risida ma'lumot olish;
- To`ldiruvchi tovarlar va o`rnini bosuvchi tovarlar to`g`risida axborotlar yig`ish.

Marketingning aniq shakllari va mazmuni korxona faoliyati xususiyatlaridan, uning ichki imkoniyatlari va tashqi shart sharoitlaridan kelib chiqadi. Bu yerda marketing va boshqa hamma oraliq faoliyat turlarining qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun yagona

yo'naltiriladigan jarayonga birlashishi sodir bo'ladi, bu esa o'z navbatida turli xil marketing turlarining harakatlashini belgilab beradi.

Marketingning quyidagi turlarini keltirish mumkin:

1. Amal qilish davri;
1.1. Strategik marketing
1.2. Taktik marketing
2. Amal qilish sohasi;
2.1. Jamoatchilik xususiyatiga ega bo`lgan g`oyalar marketing
2.2. Joylar marketing
2.3. Ichki marketing
2.4. Tashkilotlar marketing
2.5. Xalqaro marketing
3. Faoliyat turi;
3.1. Moliyaviy marketing
3.2. Innovatsion marketing
3.3. Sanoat marketingi
3.4. Xizmatlar sohasidagi marketing
4. Ta'sir etish usuli;
4.1. To`g`ri marketing
4.2. Television marketing
4.3. Pochta orqali marketing
4.4. Katolog bo`yicha marketing
5. Bozorning rivojlanish darajasi;
5.1. Passiv marketing
5.2. Tashkiliy marketing
5.3. Faol marketing

Marketing turlari o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjud. U marketing jarayonlarini har tomonlama va aniq vaziyatda ko'rib chiqishga imkon beradi.

Marketing faoliyatini yuritishning bir qator afzalliklarini keltirish mumkin. Korxonaning asosiy ish yurituvchi sifatida marketologni olishimiz mumkin. Chunki istalgan korxona ish faoliyatini davom ettirish uchun marketingga alohida e'tibor berishi lozim. Marketing bor joyda o`sish bo`ladi, rivojlanish bo`ladi. Marketing orqali korxona yoki tashkilotlar o`z raqobatchilari bilan raqobatlasha olishi, ishlab chiqarayotgan mahsulotini sotishi, o`ziga xaridorlarni jalb qila olishi mumkin.

Marketingning dunyo hamjamiyati oldidagi o`rni beqiyos desak mubolag`a bo`lmaydi. Chunki marketingni korxona yoki tashkilot yuragi deb olsak, o`sha korxona va tashkilotlar jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qiladi. Marketing iste'molchilar ehtiyojini qondirish maqsadida bozorni o`rganib, tadbirkorni to`g`ri yo`lga boshlaydi. Bundan jamiyat manfaat ko`radi.

Xulosa o`rnida shuni aytishimiz mumkinki, marketing orqali xaridorni u xohlagan

narsa bilan ta’minlab, bunda oqilona narx belgilab, tovarlarni unga qulay bo`lgan joyda va kerakli miqdorda xarid qilish imkoniyatini berish orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin. Bundan tashqari marketing bo`lmasdan turib, tadbirkorlik faoliyatini yuritish mushkul. Yuqorida qayd etilganidek, marketing bozorni o`rganish, tartibga solish va boshqarish tizimidir. Marketingni tadbirkorlikning bir bo`g`ini desak adashmagan bo`lamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 185-191.
2. Хакимов О. М., Курбанов З. Х., Мухаммедов Ф. Реализация возможностей получения легких наполнителей на основе меньше пластиковых почв в нашей республике //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 176-181.
3. Мухтаров Б. А., Ортиков Ё. Ю. Культурное и экономическое развитие туризма в Узбекистане //Молодой ученый. – 2016. – №. 14. – С. 375-378.
4. Rashidov U., Rashidov A. Assessment of Costs For the Quality of Logistics Activities //INTERNATIONAL JOURNAL OF BUSINESS DIPLOMACY AND ECONOMY. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 39-43.
5. Ҳосилмуродов И., Султоналиева Г. Тафаккур услубининг фалсафий-методологик таҳлили //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 549-551.
6. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta ‘lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 29-31.
7. Nodira T. INNOVATIVE MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 346-351.
8. Ali o’g’li A. O. STATISTICAL STUDY OF DIRECT MAINTENANCE OF SMALL BUSINESS ACTIVITIES IN THE REGIONS //EPRA International Journal of Economic and Business Review (JEBR). – 2022. – Т. 10. – №. 6. – С. 30-33.
9. Норбеков, Х., & Туйчиева, Н. (2022). Формирование конкурентных преимуществ компании . Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 589–592. Retrieved from https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5351
10. Nasirov B. U., Boltaeva M. J. Genesis And Transformation Of The Public Catering System In Uzbekistan During The Soviet Period //Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume. – Т. 12. – С. 5834-5841.
11. Uchkun S., Dilshod N. PROCESS OF IDENTIFYING THE SIGNIFICANT ACCOUNTS IN THE REVENUE CYCLE //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 32-36.

13. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 185-191.

14. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta ‘lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.

15. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA’LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 96–98. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/104

16. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA’LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO‘LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 58–60. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/96

17. Nodira G‘ulom qizi, T. (2022). OLIY TA’LIM TIZIMIDA INNOVATSIYALARNI BOSHQARISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 103–105. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/106

18. Nodira T. PRIORITIES FOR ORGANIZING ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES IN THE AGRICULTURAL SECTOR //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 192-199.

19. Tuychieva Nodira. (2022). INNOVATIVE MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(10), 346–351. Retrieved from http://www.ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/277

20. Nizametdinov A. et al. THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 251-254.

21. Akramovich N. A. et al. RAQAMLI IQTISODIYOTNI O’ZBEKISTONDAGI O’RNI //Conferencea. – 2022. – C. 67-69.

22. Nizametdinov Ali Akramovich. (2022). SUN’IY INTELEKTNI KADRLAR SIYOSATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 251–253. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/171

23. Sirojiddin S., Nodira T., Dinora S. CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 265-270.

24. Nodira T., Sirojiddin S., Azizbek Z. SOCIO-ECONOMIC SYSTEMS //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 260-264.

25. Sirojiddin S., Azizbek A. TRANSITION TO THE MARKET ECONOMY AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 255-258.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# STUDY OF THE INTERACTION OF COSTS AND BENEFITS OF THE ENTERPRISE (FIRM)

Xaydarov Baxrom Xolmuradovich[1]

Saydullayeva Dinora[2]

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

KEYWORDS

market, expenditure, economic resource, production costs, classical, neoclassical, modern concept, social costs, fixed capital, cost, direct production, transaction costs, additional transaction, net transaction, marginalist standard profit , internal cost, external cost, straight cost, curve cost, economic or net profit, profit rate

ABSTRACT

Any company allocates certain funds for the purchase of factors of production that can be used. These monetary costs were called production costs. The most economically useful and efficient production model is the model that keeps production costs as low as possible.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7421381
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Assitant, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB (baxrom3500@gmail.com)
[2] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB (dinorasaydullayeva6@gmail.com)

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# KORXONA (FIRMA) XARAJATLARI VA FOYDASINING O'ZARO TA'SIRINI O'RGANISH

KALIT SO'ZLAR:
bozor, sarfxarajat, iqtisodiy resurs, ishlab chiqarish xarajatlari, klassik, neoklassik, zamonaviy kontsepsiya, ijtimoiy xarajatlar, asosiy kapital, tannarx, bevosita ishlab chiqarish, muomala xarajatlari, qo'shimcha muomala, sof muomala, mirjinalistlar me'yordagi foyda, ichki xarajat, tashqi xarajat, to'g'ri xarajat, egri xarajat, iqtisodiy yoki sof foyda, foyda normasi

ANNOTATSIYA

Har qanday kompaniya foydalanishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish omillarini sotib olish uchun ma'lum mablag'larni ajratadi. Ushbu pul xarajatlari ishlab chiqarish xarajatlari deb ataldi. Iqtisodiy jihatdan eng foydali va samarali ishlab chiqarish modeli ishlab chiqarish xarajatlarini imkon qadar past darajada ushlab turaydigan modeldir.

Korxonalarning bozorga mahsulot yetkazib berishga bo'lgan layoqatini aniqlab beruvchi muhim omil sarf-xarajatlar darajasi hisoblanadi. Har qandey tovarni ishlab chiqarish iqtisodiy resurs sarflarini taqozo qilib, ular ham ma'lum narxga ega bo'ladi. Korxona bozorga taklif qilgan tovar miqdori iqtisodiy xarajatlar(resurs narxlari) darajasiga, resurslardan foydalanish samaradorligi va tovarlar bozorida sotilgan narxlarga bog'liq. Bu bobda sarf-xarajatlarning umumiy tabiati va tarkibiga to'xtalib, foydaning tashkil topishi jarayoni tahlil qilinadi. Shu bilan bir qatorda, kishilarning hayot kechirishi va turmush darajasini aniqlab beruvchi daromadlarning asosiy turi bo'lgan ish haqini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bobda ish haqining iqtisodiy tabiati bilan bog'liq muammolar va uning shakllari hamda bozor munosabatlari sharoitida ish haqi darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ko'rib chiqiladi.

Milliy iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish birliklari (korxona, firma)o'z faoliyati natijalaridan ko'proq foyda olishga harakat qiladilar. Har qandey korxona oladigan foyda nafaqat o'zining tovarini ancha yuqori narxlarda sotishga, balki tovar ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan harajatlarni kamaytirishga ham intiladi. Tovarni sotish narxlari asosan, korxona faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tashqi sharoitlar bilan belgilansa, ishlab chiqarish xarajatlari korxonaning ishlab chiqarish va tayyor tovarlarni sotish jarayonlarini tashkil qilish samaradorligi darajasiga bog'liq. Lekin har qandey tovarni ishlab chiqarish va sotish uchun ma'lum sarf-xarajatlar talab etiladi. Hozirda shlab chiqarish xarajatlarini tadqiq etish ikki xil yondashuv-klassik va neoklassik yoki zamonaviy konseptsiyalardan foydalaniladi. Klassik nazariya yondashuviga ko'ra, ishlab chiqarish xarajatlari-bu mahsulot ishlab chiqarish uchun amalga oshirilgan barcha jonli mehnat, pul va moddiy sarflardir.

Umumiy nazariya jihatdan quyidagilarni farqlash lozim:

1) Ishlab chiqarishning ijtimoiy xarajatlari yoki mahsulot qiymati;

2) Korxona(firma)ning individual ishlab chiqarish xarajatlari.

Ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari-bu mahsulot ishlab chiqarish uchun ijtimoiy zaruriy mehnatning umumiy(jonli va moddiylashgan) sarflaridir. Ular mazkur mahsulotni ishlab chiqarish jamiyat uchun qanchaga tushganligini ko'rsatadi. Tovar ishlab chiqarish sharoitida ijtimoiy xarajatlar pul shaklida namoyon bo'ladi va tovar qiymatiga muvofiq tushadi, ya'ni:

$$W=c+v+m,$$

bu yerda: w-ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlari yoki mahsulot qiymati;

c-iste'mol qilingan ishlab chiqarish vositalari qiymati; v-ishchi kuchi qiymati (ish haqi); m- qo'shimcha qiymat.

Korxona ishlab chiqarish xarajatlari deganda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va iste'molchilarga yetkazib berishga qilinadigan barcha sarflar tushuniladi:

$$k=c+v.$$

Korxona ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga xomashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg'i va energiya xarajatlari, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug'urta ajratmalari, foiz to'lovlari va boshqa xarajatlar kiradi. Korxona tomonidan ishlab chiqarishga qilingan barcha sarf-xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxini tashkil qiladi.

Bevosita ishlab chiqarish xarajatlari faqat tovar ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni o'z ichiga olib, tovar birligi qiymating faqat bir qismini tashkil qiladi.Ishlab chiqarish xarajatlari tovar qiymatidan foyda miqdoriga kam bo'ladi.

Muomala xarajatlari tushunchasi tovarlarni sotish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, shu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetkazilguncha ketadigan sarflarga aytiladi. Ular ikki guruhga bo'linadi: qo'shimcha muomala xarajatlari va sof muomala xarajatlari. Tovarlarni o'rash, qadoqlash, saralash, transportga ortish, tashish va saqlash xarajatlari qo'shimcha muomala xarajatlari hisoblanadi. Muomala xarajatlarining bu turlari ishlab chiqarish xarajatlarining davomi hisoblanib, tovar qiymatiga kiradi va uning qiymatini oshiradi. Xarajatlar tovarlar sotilgandan keyin olingan pul tushumi summasidan qoplanadi.

Sof muomala xarajatlari tovarni sotish bilan bog'liq bo'lib, sotuvchilarning maoshi, marketing (iste'molchilar talabini o'rganish), reklama va shu kabi xarajatlardan iborat bo'ladi. Sof muomala xarajatlari tovar qiymatini oshirmaydi va ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan tovarni sotgandan keyin olingan foyda hisobidan qoplanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining ikkinchi yo'nalishdagi konsepsiyalari marjinalistlar va neoklassik tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular bu boradagi klassik nazariyalarni ham ma'lum darajada hisobga oladilar. Biroq, bu konseptsiyalarning o'ziga xos tomoni shundaki, ular ishlab chiqarish xarajatlarini tushuntirishda resurslarning cheklanganligi va ulardan muqobil foydalanish imkoniyatlaridan kelib chiqadilar.

Marjinalistik sarf-xarajatlar nazariyasi bo'yicha korxona ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan resurslar o'z resurlari yoki jalb qilingan resurslar bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra xarajatlar ichki yoki tashqi xarajatlarga bo'linadi. Tashqi xarajatlar korxona

tomonidan zarur resurs va xizmatlarni tashqaridan to'lov asosida jalb etishi uchun sarf qilingan xarajatlardir.Bundey xarajatlarga yollanma ishchilar ish haqi, xomashyo va materiallar uchun to'lovlar, kredit uchun foiz to'lovlari ijaraga olingan yer uchun renta, transport xizmati va boshqa har xil xizmatlar uchun to'lovlar kiradi. Tashqi xarajatlar to'lov hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi, shu sababli buxgalteriya xarajatlari deb ham ataladi. Korxonaning o'ziga tegishli bo'lagan resurslardan foydalanishi bilan bog'liq xarajatlar ichki xarajatlar deyiladi. Bundey xarajatlar pul to'lovlari shaklida chiqmaydi. Shu sababli ichki xarajatlar darajasini baholash o'z resurslari qiymatini shunga o'xshash resurlarning bozordagi narxlariga taqqoshlash orqali amalga oshiriladi.

Tashqi va ichki xarajatlarning mohiyatini ochib berish, ularning bir-biridan farqini tushuntirishda bugungi kunda xo'jalik amaliyotimizda faoliyot yuritayotgan ko'plab yakka tartibdagi tadbirkorlikni yaqqol misol tariqasida keltirish mumkin. Aytaylik, biron-bir tadbirkor o'zigan qarashli bo'lgan xonadondan kichik ishlab chiqarish sexi tashkil qildi.Bu yerda uning tashqi xarajatlari anniq: ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyo uchun to'lov, elektr energiyasi, suv va boshqa kommunal xizmatlar uchun to'lovlar, transport xizmatlari uchun to'lov va boshqalar. Bu o'rinda ichki xarajatla nimadan iborat bo'ladi, degan savol tug'ilishi mumkin. Misolimizdan ko'rindiki, tadbirkorlik sex binosi sifatida o'z xonadonidan foydalanyapti. Shubhasiz, u o'z xonadonidan foydalanganlgi uchun o'ziga haq to'lamaydi, biroq agar u ushbu xonadonni biron-bir kishiga ijaraga berganida ma'lum miqdorda (aytaylikbir oyga 200ming so'm) pul daromadi olgan bo'lar edi. Uning xonadonidan sex sifatida foydalanish muqobil holatda kelishi mumkin bo'lgan ijara to'lovidan, ya'ni 200mimg so'mdan mahrum etmoqda. Demak, bu o'rinda tadbirkor''ko'ziga ko'rinmagan" holda 200 ming so'm sarflamoqda, ya'ni ichki xarajat qilinmoqda. Bu turdagi ichki xarajatlarga yana tadbirkorning o'zi ish haqini, agar oila a'zolari mehnatidan foydalansa, ularning ish haqini va shung o'xshash boshqa xarajatlarni kiritish mmkin. Shu bilan birga tadbirkorlik faoliyatini ushlab turish zarur bo'lgan to'lov-me'yordagi foyda ham renta va ish haqi bilan birga xartajatlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Me'yordagi foyda iqtisodiy foydadan farq qiladi. Me'yordagi foyda-buiqtisodiy resurs sifatidagi tadbirkorlik qobilyatini rag'batlantirib turish uchun to'lanadigan haq hisoblanadi. Agar biron-bir faoliyat turi me'yordagi foyda keltirilmasa, tadbirkor bu faoliyat turi bilan shug'ullanishni to'xtaydi va o'zining kuch-quvvatini boshqa faoliyatga sarflaydi. Sarf-xarajatlarning ichki va tashqi xarajatlarga ajratish korxona iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga qisqarishi yoki ortishiga) ta'sir qilmaydiga xarajatlar doimiy xarajatlar deyiladi. O'zgaruvchi xarajatlar(O'X)deb ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir qiladigan xarajatlarga aytiladi. Ishlab chiqarishning har bir darajasida doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar yig'indisi umumiy xarajatlar(UX) ni tashkil qiladi. Doimiy(DX), o'zgaruvchi(O'X) va umumiy(UX)xarajat. Mahsulot birligini ishlab chiqarishga qilinadigan sarf-xarajatlarni hisoblash uchun o'rtacha umumiy, o'rtacha doimiy va o'rtacha o'zgaruvchi xarajatlar tushunchalaridan foydalaniladi. O'rtacha umumiy xarajatlar yalipi

(umumiy)xarajatlarning ishlab ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori nisbatiga teng:

O'UX=UX/M;

bu yerda:O'UX-o'rtacha umumiy xarajatlar;UX-umumiy xarajatlar;M-ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori.

Eng yuqori darajada foyda olishga erishish uchun tovar ishlab chiqarishning zarur miqdorini aniqlash lozim.Bunda iqtisodiy iqtisodiy tahlil vositasi bo'lib so'ngi qo'shilgan xarajat tushunchasi xizmat qiladi.So'ngi qo'shilgan xarajat deb mahsulotning navbatdagi birligini ishlab chiqarish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarga aytiladi:

SQX=UX/M

Bu yerda: SQX-so'nggi qo'shilgan xarajat; UX-umumiy xarajatlarning o'zgarishi;M-mahsulot miqdorini o'zgarishi.

**Xulosa:** Ishlab chiqarish xarajatlari — korxonaning mahsulot i. ch. maqsadlarida, iqtisodiy resurslar sotib olish uchun qilgan pul sarflari. Firma o‘z faoliyatini bozordan moddiy resurslar, ya'ni asbob-uskuna, dastgohlar, transport va aloqa vositalari, xom ashyo, yoqilg‘i, har xil materiallarni, mehnat bozoridan ish kuchini sotib olishdan boshlaydi. Shunga muvofiq holda Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga xom ashyo, asosiy va yordamchi materiallar, yonilg‘i va energiya xarajatlari, asosiy kapital amortizatsiyasi, ish haqi va ijtimoiy sug‘urtaga ajratmalar, foiz to‘lovlari va b. xarajatlar kiradi. Ishlab chiqarish xarajatlariga qilingan barcha xarajatlarning puldagi ifodasi mahsulot tannarxinn tashkil qiladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarini o‘rganishga iqtisodchilar turlicha yondoshadilar. Jumladan, xarajatlarning qiymat nazariyasiga ko‘ra, Ishlab chiqarish xarajatlari quyidagi turlarga bo‘linadi: doimiy xarajatlar: — korxona to‘lov majburiyatlari, soliqlar, amortizatsiya ajratmalari, ijara haqi, qo‘riqlash xizmati xarajatlari, boshqaruv xodimlari maoshi va b; o‘zga-ruvchan xarajatlar: — xom ashyo, materiallar, yonilg‘i, transport xizmati, ishchilar ish haqi va shu kabilar uchun xarajatlar.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'lmasov A. Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi:Darslik.-T:''SHarq'' nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006-480b.
2. Shodmonov Sh. Sh.G'afurov U. V. Iqtisodiyot nazariyasi(darslik).-T: Fan va texnologiya nashriyoti, 2005-784b.
3. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 634-635.
4. Xaydarov B. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA XORIJIY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 151-156.
5. Хайдаров Б. ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 288-292.

6. Бахром Х. Х. БИЗНЕСНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТАРТИБЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 12. – №. 2. – С. 139-142.

7. Nodira T., Xaydarov B., Zafar Q. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 241-245.

8. Xaydarov B. IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 163-174.

9. Nodira T., Xaydarov B., Zafar Q. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 241-245.

10. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA'LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO'LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 58–60. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/96

11. Nizametdinov A. et al. THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 251-254.

12. Akramovich N. A. et al. RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'ZBEKISTONDAGI O'RNI //Conferencea. – 2022. – С. 67-69.

13. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, Xudayarov Rashid Tuychiyevich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT BIZNESNI REJALASHTIRISH. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 110–113. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/130

14. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, & Saitov Sirojiddin Abduvalievich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNNING O'RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 113–116. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/131

15. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA BUXGALTERIYA VA AUDITNI O'RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 128–131. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/135

16. Худаяров Р., Ахрор А. БОЛЬШИЕ ДАННЫЕ ТИПОВ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В ДАННОЙ ОБЛАСТИ // Журнал академических исследований и тенденций в области педагогических наук. – 2022. – Т. 1. – No 4. – С. 21-24.

17. Худояров Р. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – No 2. – С. 610-612.

18. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.

19. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta ‘lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.

20. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA’LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 96–98. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/104

21. Nizametdinov Ali Akramovich. (2022). SUN’IY INTELEKTNI KADRLAR SIYOSATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 251–253. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/171

22. Sirojiddin S., Azizbek A. TRANSITION TO THE MARKET ECONOMY AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 255-258.

23. Nodira T., Sirojiddin S., Azizbek Z. SOCIO-ECONOMIC SYSTEMS //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 260-264.

24. Sirojiddin S., Nodira T., Dinora S. CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 265-270.

25. Nodira T. INNOVATIVE MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 346-351.

26. Nodira T., Rashid X. PROBLEMS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 155-164.

27. To‘ychiyeva N. AGRAR SOHADA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 53-56.

28. To‘ychiyeva N. AGRAR TARMOQDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 3-6.

29. Nodira T., Maxfirat T. FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION IN GRADES 1-4» //РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ. – С. 1133.

30. To‘ychiyeva N. THE MAIN CHARACTERISTICS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 103-105.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# IMPROVING THE LIVING STANDARDS OF THE POPULATION AND ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REGIONS BY INCREASING THE FINANCIAL LITERACY OF THE POPULATION

Xaydarov Baxrom Xolmuradovich[1]
Quziboyev Zafarbek Masharif ugli[2]
Achilov Azizbek Otanazar ugli[3]

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

KEYWORDS
financial literacy, economic education, well-being and quality of life, entrepreneurship, employment

ABSTRACT
In this article, measures to combat financial illiteracy in the economy of our country, to develop the economy by increasing the standard of living of the population, to ensure the well-being of life and to increase the quality of life, to provide employment to the unemployed stratum of the population in the direction of entrepreneurship, to find vacant jobs. it is envisaged to carry out extensive work in the organization of the rins.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7421400
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Assitant, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB (baxrom3500@gmail.com)
[2] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[3] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLILIGINI OSHIRISH ORQALI AHOLINING TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH VA HUDUDLARNING IQTISODIY RIVOJLANTIRISH

KALIT SO‘ZLAR:
moliyaviy savodxonlik, iqtisodiy ta’lim, hayot farovonligi va sifati, tadbirkorlik, bandlik

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada mamlakatimizda iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan moliyaviy savodsizlikka qarshi kurash chora tadbirlari, aholini turmush darajasini oshirish orqali iqtisodiyotni rivojlantirish, hayot farovonligini ta`minlash va hayot sifatini oshirish, tadbirkorlikka yo`naltirishda aholining ishsiz qatlamini ish bilan ta’minlash, bo`sh ish o`rinlarini tashkil qilishda keng qamrovli ishlarni olib borish nazarda tutiladi.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, iqtisodiy bilimlarini yuksaltirish masalasi, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, jamiyatning yuksak ma’naviyatini shakllantirish kabi muhimdir.

Moliyaviy savodxonlik masalasi nega endi hozirgi kunga kelib dolzarb ahamiyat kasb etayapti degan savol tug‘ilishi tabiiy. Boisini shunday izohlashmumkin. Bugungi dunyo turli tuman informatsiyalarga, to‘g‘ri noto‘g‘ri axborotlarga, bir qaraganda tub mohiyatini to‘la anglab yetish qiyin bo‘lgan xabar va mujdalarga to‘lib yotibdi. Bu xususda ortiqcha izoh shart bo‘lmagan eng ommabop yo‘nalish –bu ijtimoiy tarmoqlardir. Aynan ular orqali bizga ko‘plab axborot hurujlari uyushtiriladi, feyk informatsiyalar tarqatiladi. Xo‘sh, bu usullar o‘zi nima uchun kerak? Bu asosan, ommaning e’tiborini qozonish, iqtisodiy bilimlari darajasi past bo‘lgan, moliyaviy savodxon bo‘lmagan aholi ongini yolg‘on reklamalar, e’lonlar bilan to‘ldirish va shu orqali ularni bunga ishontirish, natijada o‘zining tovar, mahsuloti yoki xizmatlarini taklif etish maqsadida amalga oshiriladi. Bu borada eng ommabop usul moliyaviy piramidalardir. QUEST NET, Straus xaus, Avto 60 oy, Mono, BEVERLEE yoki “Ahmadboy” voqeasi va yana ko’plab piramidalar bunga misol bo‘la oladi. Bu kabi tashkilotlar aholining keng qatlamini iqtisodiy savodli emasligidan foydalanib, aholi mablag‘larini o‘z mahsulotlarini sotib olishga, xizmatlaridan foydalanishga tizimli marketing orqali jalb etgan. Natija esa barchamizga ma’lum. Bu jarayonlarda ishtirok etgan fuqarolar o‘zlarining moliyaviy bilimlari yetishmasligi, iqtisodiy savodxonlik darajasi pastligi sabab ko‘plab yo‘qotishlarga duch kelishdi.

Fuqarolarning moliyaviy savodxonligi, iqtisodiy bilimlari yuksakligi darajasi nafaqat o‘zlarining moddiy farovonligiga ta’sir qiladi, balki mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning salbiy oqibatlarini namoyon etadi. Asosiy moliyaviy bilimlarning yetishmasligi, hayot darajasini pasaytiribgina qolmay, balki mamlakat iqtisodiy o‘sish sur’atlarining pasayishiga ham olib keladigan eng jiddiy to‘siqlardan biridir.

Aholi moliyaviy savodxonligi jamiyatdagi har bir shaxsning iqtisodiy bilim, malaka va ko‘nikmalar, qadriyatlarni yetarli darajada egallashi hamda o‘z farovonligini ta’minlash imkonini beruvchi iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda ularga asoslangan holda to‘g‘ri yondashuvini ta’minlovchi sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi.

Aholining tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishga moliyaviy ko‘maklashish, ularning daromadli mehnat bilan bandligini ta’minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mahallabay ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish orqali kambag‘allikni qisqartirish, respublika, viloyat, tuman va shaharlarda ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari va manzilli moliyaviy qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini bevosita mahalla darajasiga tushirish maqsadida: 2022 yil 1-yanvardan boshlab har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada (keyingi o‘rinlarda – mahallalar) tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi (keyingi o‘rinlarda – hokim yordamchisi) lavozimi ta’sis etilshi ko`zda tutilgan. Aholining ishsiz qatlamini tadbirkorlik faoliyatiga yo`naltirishda ularga tadbirkorlik to`g`risida ma’lumotlar berish, yuzaga keladigan moliyaviy muamlorni imtiyozli kredit mablag`lar berish yoki subsidiya berish, soliq to`lashda tadbirkor faoliyatini yo`lga qo`yguncha qisman ma’lum vaqt davomida ozod qilish yoki imtiyoz berish orqali hal qilish kerak bo`ladi. Tadbirkor faoliyatini yo`lga qo`yish orqali tadbirkor moddiy ahvolini yaxshilash bilan birga u bo`sh ish o`rinlarini yaratadi. Tadbirkor faoliyatini o`z shaharchasi yoki qishlog`ida tashkil etish orqali, shu yerning qitisodiy rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishi uchun hissa qo`shadi.

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki aholining moliyaviy savodxonlikni oshirish bilan nafaqat aholi turmush tarzi, balki mamlakat iqtisodiyotiga katta ta’sir o`tkazadi. Moliya savodxonlikni oshirish uchun davlat tomonidan iqtisodiy bilim va tushunchalarni jamiyat ongiga singdirish zarur. Aholiga moliyaviy bilimlar berish orqali tadbirkorlikka yo`nalatirish, o`zini o`zi band qilishi, bo`sh ish o`rinlarini yaritishi, hamda o`zi yashab turgan hudud iqtisodiyoti rivojlanishi imkoniyatlarini yaratadi. Insonlarning moliyaviy savodxonlik darajasi past bo‘lishi natijasida tadbirkorlikda omadsizlikka uchrashi, o‘z moliyaviy resurslarini to‘g‘ri joylashtira olmasligi mumkin. Moliyaviy bilimsizlik oqibatida kambag‘allik yoki o‘rta hol turmush darajasidan yuqori pog‘onalarga chiqishi murakkablashadi. Aholi moliyaviy savodxonligining ijtimoiy ahamiyati ham bor. Chunki, shaxsning moliya borasidagi bilim va ko‘nikmalari natijasida butun jamiyat iqtisodiy hayotining muvaffaqiyati va barqarorligini belgilab beradi. Masalan, fuqarolarning o‘z daromadlari va xarajatlarini aniq tasavvur qilmasligi yoki noto‘g‘ri rejalashtirishi oqibatida kreditorlik qarzdorlik paydo bo‘ladi, moliyaviy piramidalar va firibgarliklar sonining oshishiga olib keladi. Global miqyosda bu mamlakat iqtisodiyotini moliyaviy inqirozga olib kelishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 634-635.

2. Xaydarov B. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA XORIJIY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 151-156.

3. Хайдаров Б. ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 288-292.

4. Бахром Х. Х. БИЗНЕСНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТАРТИБЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 12. – №. 2. – С. 139-142.

5. Xaydarov B. IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 163-174.

6. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, Xudayarov Rashid Tuychiyevich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT BIZNESNI REJALASHTIRISH. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 110–113. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/130

7. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, & Saitov Sirojiddin Abduvalievich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNNING O‘RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 113–116. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/131

8. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA BUXGALTERIYA VA AUDITNI O‘RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 128–131. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/135

9. Tuychieva Nodira, Baxrom Xaydarov, & Quziboyev Zafar. (2022). THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 241–245.

10. Baxrom Xaydarov. (2022). IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 163–174. Retrieved from http://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/317.

11. Saitov Sirojiddin, Tuychieva Nodira, & Saydullayeva Dinora. (2022). CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 265–270.

12. Saitov Sirojiddin, & Achilov Azizbek. (2022). TRANSITION TO THE MARKET ECONOMY AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEKISTAN. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(11), 255–258.

13. Muxtarov, B., & Murotjonova, M. (2022). O‘zbekiston respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub‘ektlarining rivojlanishi. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 581–584.

14. Muxtarov, B. (2022). Ozbekiston respublikasida axoli daromadlarini osish dinamikasi . Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 579–581.

15. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.

16. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta ‘lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.

17. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA’LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 96–98. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/104

18. Nizametdinov Ali Akramovich. (2022). SUN’IY INTELEKTNI KADRLAR SIYOSATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 251–253. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/171

19. Nodira T., Sirojiddin S., Azizbek Z. SOCIO-ECONOMIC SYSTEMS //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 260-264.

20. Nodira T. INNOVATIVE MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 346-351.

21. Nodira T., Rashid X. PROBLEMS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 155-164.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# ECONOMIC DEVELOPMENT AND POVERTY REDUCTION THROUGH EMPLOYMENT

Xaydarov Baxrom Xolmuradovich[1]

Abduraximov Malikjon Abduvohid ugli[2]

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

KEYWORDS

intellectual potential, labor market, balance of labor resources, macroeconomic stability, economically active population, labor capacity

ABSTRACT

This thesis contains information about unemployment, the poverty layer, the labor market, and effective economic reforms. In addition, measures to provide employment to the population, systematic work, information of the State Statistics Committee, reforms carried out in our country, and research conducted in our country are also presented.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7421426
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Assistant, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB (baxrom3500@gmail.com)
[2] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB (malikjon9606@gmail.com)

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# AHOLINI ISH BILAN TA’MINLASH ORQALI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH VA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH

KALIT SO‘ZLAR:
intellektual salohiyat, mehnat bozori, mehnat resurslari balansi, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy faol aholi, mehnat layoqati

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda ishsizlik, kambag‘allik qatlami,mehnat bozori,samarali iqtisodiy islohotlar haqidagi ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari aholini ish bilan ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar,tizimli ishlar,davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari,yurtimizda o‘tkazilayotgan islohotlar va yurtimizda o‘tkazilgan tadqiqotlar ham keltirilgan.

Shu yillarda yurtimizda aholi turmush tarzini yaxshilash,aholini muhim ish o‘rinlari bilan ta’minlash,hamda yetakchi kadrlar tayyorlash masalalariga katta e’tibor berilmoqda.Shu bilan birga,samarali iqtisodiy islohotlar hamda intellektual salohiyat bilan bog‘liq bo‘lgan sohalardagi bir qator ijobiy o‘zgarishlar natijasida sezilarli yutuqlarga erishilmoqda.Mehnat bozorida yoshlarga katta imkoniyatlar berilayotganligi tufayli,jami aholiga nisbatan ish bilan ta’minlash ulushi yuqori ko‘rsatgichlarni ko‘rsatmoqda.Chunki yurtimizda yoshlar jami aholining 3/2 qismini tashkil qiladi.Yoshlarga jamiyatda munosib o‘rin topishiga ko‘maklashish va tashabbus ko‘rsatib mehnat qilishini qo‘llab-quvvatlash boyicha yurtimizda tizimli ishlar olib borilmoqda.

Mehnat bozoridagi holatni xolisona o‘rganib chiqib baholash,mehnatga layoqatli aholi sonini xalqaro standartlarga mos ravishda aniqlash hamda mehnat resurslari balansini ishlab chiqish tartibini shakllantirishda Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari hamda Mehnat vazirligining ish bilan ta’minlash masalalarini o‘rganib,natijalardan foydalanish maqsadga muvofiq.Mehnat resurslari balansi ma’lumotiga ko‘ra 2015-yilda respublikaning jami mehnat resurslari 18,3 million kishini tashkil etib,shundan 99,4 foizi mehnatga layoqatli aholini,qolgan qismi esa ishlayotgan o‘smirlar va pensionerlarni tashkil qiladi.

Yana bundan tashqari alohida ko‘rsatib o‘tish joizki,mehnat resurslarining 75,3 foiz qismi yoki 13,8 million nafari iqtisodiy faol aholi toifasiga,shundan 13,1 million nafari iqtisodiy faol aholi toifasiga kiradi.

Bundan ko‘rinadiki, iqtisodiy faol bo‘lgan aholining ish bilan bandlik darajasi 94,8 foizni tashkil etmoqda. Mehnat resurslari tarkibidagi qolgan 4,5 mln nafari iqtisodiy nofaol aholi bo‘lib, ular jami mehnat resurslarining 24,7 foiz qismini tashkil qiladi. Yuqorida keltirganimizdek, 2015 yil yakuniga ko‘ra aholining ish bilan bandlik darajasi iqtisodiy faol aholiga nisbatan 94,8 foizni, mehnat resurslariga nisbatan esa 71,4 foizni tashkil etdi.

Mamlakatda kichik biznes rivoji uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari samarali ishlayotganligi tufayli, aholining ishbilarmonlik qobiliyati kengayishi, yoshlarda tadbirkorlik tashabbusi ortishi kuzatilmoqda. Bu jihatlar o‘z navbatida, istiqbolli taklif va tashabbuslarni o‘z vaqtida rag‘batlantirishga katta yo‘l

ochib bermoqda. Natijada, ish bilan band aholining aksariyat qismi aynan kichik biznes sohasida mehnat qilmoqda, tarmoqning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa ortmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojiga keng yo‘l ochib berilganligi aholi bandligining oshishi va daromadlari o‘sishida muhim omil bo‘lish bilan birga, iqtisodiyotni izchil rivojlantiruvchi, jamiyat barqarorligini ta'minlovchi kafolat vositalaridan biriga aylandi.

Bu makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga, iqtisodiyot rivojlanishiga, aholining hayot darajasi va sifati izchil o‘sishiga mustahkam zamin yaratmoqda. Daromadlar ortib borishi esa, o‘z navbatida, oilalarning moddiy ahvolini sifat jihatdan o‘zgartiryapti. Bu eng muhim, ta'bir joiz bo‘lsa, ustuvor ahamiyatga ega. Bunda sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash jahon bozoriga raqobatbardosh mahsulotlar chiqarish imkonini bermoqda.

Respublikamizda vaqtincha ishsizlik mavjudligi sabablaridan biri - ishchi kuchiga bo‘lgan talab va taklif o‘rtasidagi nomutanosiblikdir. Ya'ni, ish bilan band bo‘lmagan aholining katta qismi malakasiz xodimlar va mehnat bozoriga birinchi marta chiqayotgan yoshlarni tashkil etmoqda. Aksincha, iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori malakaga va ish tajribasiga ega bo‘lgan kadrlarga talab ortib bormoqda.

Ikkinchidan-ishlab chiqarish kuchlari notekis joylashganligi sababli hududiy tarmoqlarda bandlik turlicha ko‘rinishga ega bo‘lib, Toshkent shahri va Toshkent, Farg‘ona, Navoiy, Samarqand hamda Buxoro viloyatlarida aholining sanoat, qurilish, transport sohalarida bandligi nisbatan yuqori. Qishloq xo‘jaligi sohasida esa Surxondaryo, Qashqadaryo, Namangan, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida yuqori deyish mumkin.

Qayd etilgan mulohazalar mamlakatimizda iqtisodiy faol aholining ish bilan bandlik darajasini oshirish lozimligini ko‘rsatadi. Buning uchun esa, ,,Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo‘lmagan aholini hududlar bo‘yicha hisoblab chiqish metodikas’’ni yanada takomillashtirgan holda, ,,Mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirishning hisobot va istiqbol balansini ishlab chiqish metodikasi’’ni ishlab chiqish, hamda respublika hududlarida uni amaliyotda qo‘llanilishini joriy etish lozim.

Mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirishning hisobot va prognoz balanslari quyidagi maqsadlar uchun ishlab chiqiladi:

• aholi bandligini, birinchi navbatda, yoshlarni va mehnatga layoqat yoshiga yetgan va birinchi marotaba mehnat bozoriga kirib kelayotganlar bandligini ta'minlash uchun ish o‘rinlari tashkil etish parametrlarini aniqlash;

• hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish strategiyasini hisobga olgan holda mehnat bozori istiqbolini aniqlash;

• ta'lim muassasalari tomonidan kadrlar tayyorlash miqdorini aniqlash.

Ushbu metodikada quyidagilar aks ettirilishi lozim:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasining mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansining namunaviy tuzilmasi. Istiqbolni belgilashda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni bartaraf qilish uchun mazkur namunaviy tuzilmada ko‘rsatkichlar nomi, ularni hisoblash algoritmi, hisobot balansi, bahoda (joriy yil) va

prognoz balansi (kelgusi yil) o‘z aksini topishi kerak.

Ikkinchidan, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish uchun ma'lumotlar taqdim etish sxemasi. Ushbu sxemada ma'lumotlar mazmuni (nomi)ni, ma'lumotlarni taqdim etuvchi vazirlik va idora nomini, ma'lumotni taqdim etish muddatini hamda qayerga taqdim etilayotganini aniq ko‘rsatib o‘tish maqsadga muvofiq.

Shu jumladan yana yurtimizda quyidagi tadbirlar ham amalga oshirilmoqda:

1.Mehnat yarmarkalarini tashkil etilganligi,

2.Aholini ish bilan taminlovchi xususiy konsalting firmalarining tashkil etilganligi,

3.Xususiy sektorlarni tashkil etilganligi,

4.Bandlikka ko‘maklashish markazlarining tashkil etilganligi,

5.Barcha ortiqcha hujjatlarning kamaytirilishi va offline rejimidan raqamli-online tizimga o‘tkazilishi,

6.Argos,MyJob.uz,Ish-mehnat.uz shu kabi platform va saytlarning ishga tushirilishi hozirgi kunda yoshlarni nafaqat yoshlarni butun ishsiz aholi uchun juda katta samara bermoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 634-635.

2. Xaydarov B. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA XORIJIY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 151-156.

3. Хайдаров Б. ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 288-292.

4. Бахром Х. Х. БИЗНЕСНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТАРТИБЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 12. – №. 2. – С. 139-142.

5. Nodira T., Xaydarov B., Zafar Q. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 241-245.

6. Xaydarov B. IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 163-174.

7. Ҳосилмуродов И., Султоналиева Г. Тафаккур услубининг фалсафий-методологик таҳлили //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 549-551.

8. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, Xudayarov Rashid Tuychiyevich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT BIZNESNI REJALASHTIRISH. International Journal of

Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 110–113. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/130

9. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, & Saitov Sirojiddin Abduvalievich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNNING O‘RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 113–116. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/131

10. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA BUXGALTERIYA VA AUDITNI O‘RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 128–131. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/135

11. Nasirov B. U., Boltaeva M. J. Genesis And Transformation Of The Public Catering System In Uzbekistan During The Soviet Period //Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume. – Т. 12. – С. 5834-5841.

12. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA’LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO‘LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 58–60. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/96

13. Uchkun S., Dilshod N. PROCESS OF IDENTIFYING THE SIGNIFICANT ACCOUNTS IN THE REVENUE CYCLE //Journal of marketing, business and management. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 32-36.

14. Nodira T., Rashid X. PROBLEMS OF INNOVATION MANAGEMENT IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 155-164.

15. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 185-191.

16. Abdusattarovich M. B. CALCULATING ECONOMIC EFFICIENCY IN THE DIGITAL ECONOMY IN UZBEKISTAN //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 1189-1194.

17. Khakimov O. SOCIAL GOALS OF STUDENTS IN HIGHER EDUCATION //International Bulletin of Applied Science and Technology. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 55-59.

18. Nosirovich A. N. The Methodology of Preparation of Students of Vocational Schools and Colleges for Technical Creative Activity //PSYCHOLOGY AND EDUCATION. – 2021. – Т. 58. – №. 2. – С. 1470-1485.

19. Alimov N., Gulrukh F. Dependence of psychological maturity on the strength of family relationships //Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 6. – С. 38-41.

20. Nizametdinov A. et al. THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 251-254.

21. Akramovich N. A. et al. RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'ZBEKISTONDAGI O'RNI //Conferencea. – 2022. – C. 67-69.

22. Nizametdinov Ali Akramovich. (2022). SUN'IY INTELEKTNI KADRLAR SIYOSATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 251–253. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/171

23. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta 'lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.

24. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 96–98. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/104

25. Sirojiddin S., Azizbek A. TRANSITION TO THE MARKET ECONOMY AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 255-258.

26. Nodira T., Sirojiddin S., Azizbek Z. SOCIO-ECONOMIC SYSTEMS //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 260-264.

27. Sirojiddin S., Nodira T., Dinora S. CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 265-270.

28. To'ychiyeva N. Elektron Ta 'lim Tizimining Afzalliklari Va Kamchiliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 40-41.

29. Норбеков Х., Туйчиева Н. Формирование конкурентных преимуществ компании //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 589-592.

30. Nodira T., Maxfirat T. FORMATION AND DEVELOPMENT OF PRONUNCIATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN SCHOOL STUDENTS //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – T. 1. – №. 1.

31. Nodira T., Maxfirat T. MODERN METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION TO PRIMARY SCHOOL PUPILS IS BASED ON THE JAPANESE EXPERIENCE //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 205-208.

32. Nodira T. PRIORITIES FOR ORGANIZING ENTREPRENEURIAL ACTIVITIES IN THE AGRICULTURAL SECTOR //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 192-199.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# THE ORIGINS OF CRISES AND THEIR IMPACT ON THE ECONOMIC SYSTEM

Velieva Susanna Raipovna[1]
Nizametdinov Ali Akramovich[2]
Yo'ldoshev Sherzod[3]

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

KEYWORDS

economic systems, economic relations, economic theory, classical political economy, manufactories, factorie

ABSTRACT

Relevance of the research topic. The modern world is going through a difficult period of radical transformations, ambiguous in their consequences, affecting the foundations of economic systems at various levels, manifested in a decrease in their systemic stability and accompanied by crisis phenomena. Crises that became more frequent at the turn of the 20th and 21st centuries are a vivid example of this: first of all, the transformational crisis.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7425073
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[2] Teacher, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[3] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB

Естественная монополия — предприятия, объединённые единой сбытовой организацией, состояние товарного рынка, при котором удовлетворение спроса на этом рынке эффективнее в отсутствие конкуренции в силу технологических особенностей производства, а товары, производимые субъектами естественной монополии, не могут быть заменены в потреблении другими товарами, в связи с чем спрос на данном товарном рынке на товары, производимые субъектами естественных монополий, в меньшей степени зависит от изменения цены на этот товар, чем спрос на другие виды товаров. При этом может быть такая ситуация, когда услуги компании имеют аналоги, но по общепризнанным нормам такая компания всё равно считается монополией.

Государственная (закрытая) монополия — монополия, созданная силой законодательных барьеров, определяющих товарные границы монопольного рынка,

субъекта монополии (монополиста), формы контроля и регулирования его деятельности, а также компетенцию контролирующего органа.

Открытая монополия — временная ситуация, существующая в результате появления новой технологии или продукта в период, пока конкуренты не освоили данную технологию и производство данного продукта.

Эти три виды считается самым главном члены монополии.

В каждой стране создаются различные органы для регулирования монополий. Их целью является поддержание конкуренции на рынке, контроль над ценами товаров, предотвращение зависимости других фирм от монополий. Для регулирования монополий создается законодательство, в котором указывается правило их функционирования на рынке. По сравнению с другими видами естественные монополии регулировать сложнее всего. Тогда возникает вопрос об экономической обоснованности их деятельности, законодательное установление цен или доходности. Также применяется контроль отношений собственности — выясняются конкретные бенефицианты и лица, принимающие решения о деятельности монополии.

Первым шагом является выявление видов деятельности, которым свойственна естественная монополия. Следующим шагом является проверка обоснованности затрат и цен. После проверки обоснованности затрат и цен и их утверждения государством дальнейшие изменения, которые провоцируют монополии, будут наблюдаться только после проверки антимонопольными органами. Для более эффективного регулирования естественных монополий государство их национализирует. В этом случае наблюдается проблема закрытости информации в деятельности монополий.

**Литературы**

1. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 10. – С. 185-191.

2. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta ‘lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 29-31.

3. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA’LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 96–98. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/104

4. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA’LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO‘LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 58–60. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/96

5. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF" MACROECONOMICS" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 1. – С. 209-210.

6. Nizametdinov A. et al. THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 251-254.

7. Akramovich N. A. et al. RAQAMLI IQTISODIYOTNI O'ZBEKISTONDAGI O'RNI //Conferencea. – 2022. – С. 67-69.

8. Nizametdinov Ali Akramovich. (2022). SUN'IY INTELEKTNI KADRLAR SIYOSATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 251–253. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/171

9. Boltayeva M. J. Q., Velieva S. R. Tarix fanlarini oliy ta'lim muassasalarida nomutaxassis yo 'nalishlarni o 'qitishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 453-457.

10. Raipovna V. S. Foreign Experience in Digital Educational Technologies //European journal of innovation in nonformal education. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 152-154.

11. Velieva S. R. Semantic Modules in the Language's Lexico-Semantic System //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 112-117.

12. Raipovna V. S. Specialities of Taking Linguistic And Methodical Traditions Into Account //Web of Scholars: Multidimensional Research Journal. – 2022. – Т. 1. – №. 7. – С. 74-76.

13. Велиева С., Коробкова А. Словарно-орфографическая работа на занятиях русского языка //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 626-628.

14. Велиева С. Р. Использование Интерактивных Методов При Обучении Учащихся, Слабо Владеющих Русским Языком //IJTIMOIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 75-79.

15. Велиева С. Р., Бавбекова А. Э. МОТИВАЦИЯ И МЕТОДЫ ЕЕ ПОВЫШЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 8-11.

16. Susanna V. Information and Communication Technologies in Education //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – Т. 6. – С. 89-93.

17. Велиева С. Методика Кейс-Стади При Обучении Русскому Языку Как Иностранному //Актуальное В Филологии. – 2021. – Т. 3. – №. 3.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IS A PLACE TO PROVIDE EMPLOYMENT

Gaybulayev Sarvar Uktam ugli[1]
Saitov Sirojiddin[2]
Davlatboyeva Sojida Oybek qizi[3]

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

KEYWORDS
Small business and private entrepreneurship, market, competition, profitability

ABSTRACT
The importance of small business and private entrepreneurship in economic development. The role of the labor market in reducing the employment of the population and reducing unemployment. Ways to develop entrepreneurship to increase the employment of the population in competitive market conditions. On the formation of a favorable business environment for the further development of small business and private entrepreneurship. information on additional measures is provided.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7429509
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[2] Teacher, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[3] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI BANDLIKNI TAMINLASH O'RNI

KALIT SO'ZLAR:
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, bozor, musobaqa, rentabellik, tadbirkorlik

ANNOTATSIYA

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati.Aholini ish bilan bandligi va ishsizlikni kamaytirishda mehnat bozorining roli.Raqobatli bozor sharoitida hududlarda aholi ish bilan bandligini oshirishda tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari.Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakillantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo'lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohatlar natijasid tadbirkorlik mehnat unumdorligini o'sishi,megnat mazmunidagi chuqur o'zgarishlar,qo'l mehnati tarqlagan sohalarning sezilarli kamayishi va inson omiliga yangicha yondashuv masalalari bilan bog'liq bo'lgan mehnatga haq to'lash tizimini taqiq etish,ayniqsa muhumdir.

Modernizasiyalashtirish jarayonida ishlab chiqarishga joriy qilish natijasida ishchi xodimlarning ilmiy va kasbiy tayyorgarligi,ularning mehnat va ijtimoiy faolligiga bo'lgan talablar kesgin ortdi.Bozor iqtisodiyoti sharoitida turli ukladligi korxonalarning raqobatga dosh berishi,korxonalarda personal mehnatni tashkel etish va haq to'lash tizimini takomillashtirish,mehnat ilmiy asosida tashkil etishning muhum yo'nalishi sifatida mehnat unumdorligi va samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Ushbu maqsadlarni kichik va xususiy korxonalar personallar mehnatini tashkil etish ,uning samaradorligini oshirish komleks tadqiq qilishning alohida dolzarbligini ifodalaydi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorliknining iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamyati bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faolyatini rivojlantirish – mamlakatimizda iqtisodiy o'sishni taminlash , yagi ish o'rinlarini tashkil qilish,bandlik muommosini hal etish,aholining daromadlari va farovonligini oshirishda muhum omil sifatida qaraladi.Shundan kelib chiqib , kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish respublikamizda keng ko'lamli islohatlar va moderinzatsiya yo'lini izchil davom ettirishda asosiy yo'nalishlardan biri bo'lmoqda.

Tadbirkorlik faolyatinining turli shakillari xilma-xil bo'lib ular orasida o'zining xo'jalik yuritish kolamini cheklanga bilan ajratib turuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhum o'rin tutadi.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ularni muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash tartibi sezilarli darajada soddalashtirildi hamda bu jarayon yanada ochiqlik kasb etdi. Ro‘yxatga olish uchun davlat boji stavkasi ikki barobarga qisqartirildi. Ishchilarning yillik o‘rtacha soni 100 kishigacha ko‘paytirilgan kichik korxonalar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari ro‘yxati sezilarli darajada kengaytirildi. Kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari jarayoniga keng miqyosda jalb qilish mexanizmi ishlab chiqildi va joriy etildi.

Davlat va nazorat idoralarining korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatiga aralashuvini keskin kamaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy erkinligi va huquqlarini sezilarli ravishda kengaytirish bo‘yicha choralar qabul qilindi. Yangi tashkil qilingan kichik korxonalar va mikrofirmalarni rejali soliq tekshiruvlaridan ozod etish muddati ikki yildan uch yilga uzaytirildi. Soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘layotgan, shuningdek, ishlab chiqarishning barqaror o‘sish sur’atlari va rentabelligini ta’minlayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarida uch yil davomida soliq tekshiruvlarini o‘tkazish taqiqlandi

Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan, tadbirkorlik faoliyati erkinligini cheklayotgan bir qator muammolar hal etilmay qolmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining davlat, soliq va nazorat idoralari, tijorat banklari bilan o‘zaro munosabatlarini aniq belgilab beradigan ma’muriy reglament to‘liq ishlab chiqilmagan. Ochiqligi ta’minlanmagan ko‘plab ruxsat berish tartiblari hamon saqlanib qolmoqda. Nazorat idoralarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish holatlari uchramoqda. Kichik biznes mahsulotlarini hududiy va jahon bozorlariga olib chiqish bo‘yicha amaliy mexanizm yaratilmagan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga soliq, bojxona hamda boshqa to‘lovlar bo‘yicha tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga ko‘maklashadigan qo‘shimcha imtiyoz hamda preferensiyalar berish; kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tijorat banklari bilan o‘zaro hamkorlik mexanizmini yanada takomillashtirish va soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, ularga ajratilayotgan kreditlar, birinchi navbatda, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga va texnologik yangilashga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlar hajmini ko‘paytirishdir

Mehnat bozoridagi faol dasturlar iqtisodiy islohatlarni amalga oshirayotgan zamonaviy iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarini modernizatsiya hamda ishchi kuchining yuksak kasbiy tarmoq va mintaqaviy harakatchanligi zarur bo’lgan inson kapitali rivojlanayoptgan sharoitlarda ish bilan bandlik siyosatinig eng muqobil turlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda kichik biznesning rivojlanishida qurilish va pardozlash materiallari, asbob - uskunalar, mashinasozlik ehtiyot qismlari va uskunalari, elektrotexnika, kimyo,

farmatsevtika mahsulotlari, iste'mol tovarlarining ko‘plab turlarini ishlab chiqarish va boshqalar yuqori potensial ega sohalar hisoblanadi.

Kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shadigan hissasini oshirilishini, kichik sanoat zonalarining yaratilishi, investitsion muhit va raqobat muhitini yaxshilanishi, kichik biznes bilan davlat-xususiy sherikchiligi doirasida davlat xaridlari hajmini kengaytirilishi, yirik va kichik korxonalar o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlanishi, innovatsiya jarayonlariga tadbirkorlik sub'yektlarini jalb qilish orqali ko‘rishimiz mumkin.

Shuni ham ta'kidlash joizki, yetarli eksport salohiyatiga ega bo‘lgan, biroq ayni paytda yanada rivojlanish uchun yetarli darajada kapitalga ega bo‘lmagan muvaffaqiyatli va istiqbolli kichik korxonalarni moliyaviy qo‘llab quvvatlash katta ahamiyatga ega.

Ushbu chora-tadbirlarlarni samarali kichik biznes sohasida ko‘proq ish o‘rnini yaratishga, jahon bozoriga kirish imkoniyatlarini oshirishga yordam berib, mamkalatni eksport salohiyatini oshirishga va aholi daromadlarini oshishiga imkon yaratadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Uchkun S., Dilshod N. PROCESS OF IDENTIFYING THE SIGNIFICANT ACCOUNTS IN THE REVENUE CYCLE //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 32-36.

2. Dilshod N. XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KORXONALARDA TUSHUMLAR AUDITINI TASHKIL QILISH BOSQICHLARI VA DASTAKLARINI TAKOMILLASHTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 105-110.

3. Najmiddinov D. R., Shodlikov D. E. THE EFFECT OF THE SECRET ECONOMY IN A DAILY LIFE OF THE SOCIETY //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1A. – C. 56-59.

4. O’G’Li N. D. R., Qizi T. D. Z. MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI VA UNGA OID YANGI YONDASHUVLAR //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 1-4.

5. G’Aybullayev Sarvar O. et al. O ‘ZBEKISTONDA ISTE’MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO ‘NALISHLARI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 119-125.

6. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.

7. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta ‘lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.

8. Nizametdinov A. A. OLIY TA’LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO‘LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 58–60. – 2022.

9. Nizametdinov A. A. OLIY TA'LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1 (6), 96–98. – 2022.

10. Мухтаров Б. А. Имитационная система прогнозирования факторов в легкой промышленности //Молодой ученый. – 2017. – №. 40. – С. 122-124.

11. Muxtarov B., Murotjonova M. O'zbekiston respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub 'ektlarining rivojlanishi //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 581-584.

12. Ogli R. A. R. THE DIFFERENCE BETWEEN THE CONCEPTS OF DATABASE AND DATABASE MANAGEMENT SYSTEM //Archive of Conferences. – 2022. – С. 33-34.

13. Nodira T., Maxfirat T. FORMATION AND DEVELOPMENT OF PRONUNCIATION IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING IN SCHOOL STUDENTS //INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING. – 2022. – Т. 1. – №. 1.

14. Nodira T., Maxfirat T. MODERN METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGE PRONUNCIATION TO PRIMARY SCHOOL PUPILS IS BASED ON THE JAPANESE EXPERIENCE //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – С. 205-208.

15. G'aybullayev S. THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 116-126.

16. Sirojiddin S., Azizbek A. TRANSITION TO THE MARKET ECONOMY AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 255-258.

17. Sirojiddin S., Nodira T., Dinora S. CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 265-270.

18. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 634-635.

19. Xaydarov B. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA XORIJIY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 151-156.

20. Nodira T., Xaydarov B., Zafar Q. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 241-245.

21. Xaydarov B. IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 163-174.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# PLANNING OF BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP ACTIVITIES

Xaydarov Baxrom Xolmuradovich[1]

Saitov Sirojiddin[2]

Xonkelov Yassim Komiljon ugli[3]

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

KEYWORDS

Plan, planning, business plan, economic analysis, operational analysis, strategic analysis, efficiency, efficiency analysis, expected effect and result

ABSTRACT

Why is a business plan necessary? Strategic planning of small business activities, strategic planning, goals, objectives, strategy, how to implement and control the activity of a small business enterprise determines the amount of profit from this business. This should be considered and planned in advance. Clearly defining the goal in planning is the key to the success of a small business.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7429539
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[2] Teacher, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[3] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB (xonkelov@gmail.com)

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI REJALASHTIRISH

KALIT SO‘ZLAR:
Reja, rejalashtirish, biznes reja iqtisodiy tahlil, operativ tahlil, strategik tahlil, samaradorlik, samaradorlik tahlili, kutilayotgan samara va natija

ANNOTATSIYA
Biznes-reja nima uchun zarur? Kichik biznes faoliyatini strategik rejalashtirish, strategik rejalashtirish, kichik biznes korxonasi faoliyatini maqsadi, vazifalari, strategiyasi, uni qanday amalga oshirish va nazorat qilinishi ushbu biznesdan keladigan foyda miqdorini belgilaydi. Buni oldindan ko‘rib chiqish va rejalashtirish lozim. Rejalashtirishda maqsadni aniq belgilab olish – kichik biznes muvaffaqiyatining garovidir.

Biznes-reja nima uchun zarur?

- yangi biznesni boshlash uchun;
- o‘z biznesingizni kengaytirish uchun;
- uni boshqa shaxsga o‘tkazish yoki sotish uchun;
- ssuda olish uchun.

Ko’pincha oxirgi sababni muhim deb biladilar. Aslida bunday emas. Biznesingiz bilan bog’liq bo‘lgan eng muhim narsa, ayniqsa, kimningdirpulini olish xoxishida, bu - menejment. Kiskasi - bu Sizsiz. Ko’pgina tad- birkorlarni Biznes-rejani tuzish yo‘lidagi dastlabki harakatlariga faqat bi-rinchi sabab etaklab boradi. Biznes-reja turli xil biznesmenlar, tadbirkorlar, korxonalar, firmalaryoki turli xil mulk shakllarida bo‘lib turli xil xizmatlarni bajarish, har xil si- fatdagi, hajmdagi, turlicha vaqtda maxsus ishlab chiqarishga xoxishi bo‘lgan xodimlarga nisbatan tatbiq etiladi. Biznes olamida tug’ilgan yangi fikrlarni, yangi xoxishni o‘z vaqtidasaqlab qolib, uni haqiqatga aylantirish foydadan holi bo‘lmaydi. Biznes sohasidagi yangi fikrlar miyaga har qanday sharoit va holatda kelishi mum- kin. Masalan, nonushta vaqtida yoki samolyotda uchayotganingizda, ta’tilda, plyajda chumilish vaqtida yoki muvaffaqiyatsizlikka uchraganda va hokazo. Shundan so’ng, munozaralar, izlanishlar, o‘z-o‘zini tahlil qilish va boshqalardan so’rab-surishtirishlar jarayonida bu fikr kurtak otadi. Lekin bu ko’rtakning navda otib, 18 meva berish uchun haddan tashqari faol ishlash talab etiladi. Ko’rtakdan farqli ularoq yangi biznes tabiiy ravishda o‘z-o‘zidan rivojlanib ketavermaydi. Ko’pincha asoslanmagan yangi biznes o’nib chiqquncha nobud bo‘lib ketadi. Amaliyotda yashab qolgan bizneslar mi- qdori 20% ni tashkil etadi. Yangi biznesning hayotini saqlab qolish imkoni- yati o‘z qo‘lingizda - faqat biznes-rejani to‘g‘ri tayyorlash lozim. Biznes-reja eng boshidan qattiq va ishonchli poydevorga o’rnatilishi zarur.Agar siz shunday rejasiz ish boshlasangiz o‘zingiz mo’ljallagan narsaga erisha olmay qolishingiz mumkin.

Strategik rejalashtirish konsepsiyasining mohiyati kelajakka mo‘ljallanganligidadir, iqtisodiyot rivojidagi yuqori darajali noaniqlikni hisobga oladi, ulkan sifatli maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan, boshqaruvga yondoshishning variantlari ko‘p bo‘lishini talab

etadi. Oldiga qo‘yilgan maqsadlar va erishilgan natijalar o‘rtasidagi uzilishni oldindan nazarda tutadi.

Strategik rejalashtirishning uzoq muddatli rejadan asosiy farqi shundaki, strategik rivojlantirishda o‘tmishda belgilangan rivojlanish tendensiyalaridan foydalanishning imkoni yo‘q. Bu yerda barcha marketing xavf-xatarlari va imkoniyatlarini taxlil qilish hamda baholashga alohida o‘rin ajratiladi. Kichik biznesda strategik rejalashtirishda iqtisodiy–matematik usullar modellar keng ishlatiladi.

Firmaning strategiyasi-umumiy harakatlar rejasi, uning yordamida firma o‘z maqsadlariga erishishga intiladi (maqsadlarga yetishish algaritmi).

Kichik biznes strategiyasi-firma strategiyasining asosiy qismini detallashtirish, bozordagi faoliyatining miqdor va sifat ko‘rsatkichlari hamda yo‘nalishlarining yig‘indisidan va firma strategiyasini to‘liqroq amalga oshirish mumkin bo‘lgan marketingning alohida chora-tadbirlariga yo‘naltiruvchi prinsipial qarorlardan iboratdir.

Strategik reja-operatsiyalar yig‘indisi bo‘lib, firma rahbarining nuqtai nazaridan qaraganda ularni bajarish uning strategiyasini amalga oshirishga olib keladi.

Taktika qisqa muddatli davrga (masalan: yil, chorak, oy) ishlab chiqiladi va zarur bo‘lganda, biznesning strategik vazifalarini hal qilish maqsadida to‘g‘rilab chiqiladi. Samarali strategik rejani tuzish quyidagilarni bosqichma bosqich amalga oshirishni talab qiladi: firma maqsadini aniq belgilab olish; bozordagi raqobot holatini, distribyutor va maxsulot yetkazib beruvchilar, ularning moliyaviy xolatini o‘z ichiga oluvchi biznes olib borish shart –sharoitlarini tahlil qilish; biznes faoliyatini va uni ishlab chiqarishga qo‘shilib ketishi jarayonini aniq ko‘z oldiga keltirish ; tashqi xavf va ustunliklarni, ichki imkoniyat va nozik jihatlarni, raqobot ustinliklarni ko‘rib chiqish. Xavf va ustunliklarni, ichki imkoniyat va nozik jihatlarni tekshirish SWOT tahlil deb ataladi va undan kichik/katta biznesni rejalashtirishda foydalaniladi.

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki rejalashtirish bu boshqaruv jarayonining dastlabki bosqichlaridan biri bo‘lib, u maqsadni amalga oshirish, rivojlantirishda yo‘nalishni belgilash demakdir. Har qanday firma o‘z faoliyatini puxta va yaxshi rejalashtirishi kerak chunki, firmaning omon qolishi va foyda ko‘rishi shunga bog‘liq bo‘ladi.Rejlashtirishda maqsadni aniq belgilash,biznes loyihalarini texnik-iqtisodiy asoslash**,** maslahatchilar xizmatidan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Kichik biznesga tadbirkorlik loyihalarining taqrizchilarni jalb etish, ayniqsa, muhimdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 634-635.

2. Xaydarov B. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA XORIJIY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 151-156.

3. Хайдаров Б. ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ //Экономика и образование. – 2021. – №. 4. – С. 288-292.

4. Бахром Х. Х. БИЗНЕСНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ТАРТИБЛАРИ //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 12. – №. 2. – С. 139-142.

5. Nodira T., Xaydarov B., Zafar Q. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 241-245.

6. Xaydarov B. IMPACT OF INTELLECTUAL PROPERTY PROTECTION ON THE DIGITAL ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 163-174.

7. Nodira T., Xaydarov B., Zafar Q. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 241-245.

8. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, Xudayarov Rashid Tuychiyevich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOT BIZNESNI REJALASHTIRISH. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 110–113. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/130

9. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich, & Saitov Sirojiddin Abduvalievich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA KICHIK BIZNESNNING O‘RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 113–116. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/131

10. Xaydarov Baxrom Xolmuradovich. (2022). RAQAMLI IQTISODIYOTDA BUXGALTERIYA VA AUDITNI O‘RNI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 128–131. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/135

11. Худаяров Р., Ахрор А. БОЛЬШИЕ ДАННЫЕ ТИПОВ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОЗМОЖНОСТИ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В ДАННОЙ ОБЛАСТИ // Журнал академических исследований и тенденций в области педагогических наук. – 2022. – Т. 1. – No 4. – С. 21-24.

12. Худояров Р. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ // Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – No 2. – С. 610-612.

13. Nizametdinov A. et al. THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 251-254.

14. Sirojiddin S., Azizbek A. TRANSITION TO THE MARKET ECONOMY AND ITS CHARACTERISTICS IN UZBEKISTAN //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 255-258.

15. Sirojiddin S., Nodira T., Dinora S. CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 265-270.

**16.** Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.

17. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta ‘lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.

18. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA’LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 96–98. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/104

19. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA’LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO‘LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 58–60. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/96

20. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF" MACROECONOMICS" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 1. – C. 209-210.

21. Nizametdinov A. et al. THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 251-254.

22. Akramovich N. A. et al. RAQAMLI IQTISODIYOTNI O’ZBEKISTONDAGI O’RNI //Conferencea. – 2022. – C. 67-69.

23. Nizametdinov Ali Akramovich. (2022). SUN’IY INTELEKTNI KADRLAR SIYOSATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 251–253. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/171

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# FACTORS AFFECTING LABOR RELATIONS AND ITS WAGE

Gaybullayev Sarvar[1]
Saitov Sirojiddin[2]
Pulatova Mashhura Xushnudbek qizi[3]

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

KEYWORDS

wages, nominal and real wages, amount of labor, factors affecting wages, labor market, wage rate

ABSTRACT

Salary, economic content of salary, created products and income principles of distribution, forms and systems of wage organization, forms and types of wages, the economic content of labor relations, payment of labor, the function of wages, wage rates, time and work wages.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7429572
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Intern, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[2] Assistant, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[3] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB (mashhurapolatova1@gmail.com)

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# MEHNAT MUNOSABATLARI VA ULARNI ISH HAQQIGA TA`SIR QILISH OMILLARI

KALIT SO‘ZLAR:
ish haqi, nominal va real ish haqi, mehnat miqdori, Ish haqiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, mehnat bozori, ish haqi stavkasi

ANNOTATSIYA
Ish haqi, ish haqining iqtisodiy mazmuni, yaratilgan mahsulot va daromadlarning taqsimlanish tamoyillari, ish haqini tashkil etish shakllari va tizimlari,ish haqining shakllari va turlari, mehnat munosabatlarini iqtisodiy mazmuni, mehnatga haq to'lash, ish haqining vazifasi,ish haqi stavkasi,vaqtbay va ishbay ish haqi.

Ish haqi — mehnatga pul shaklida to‘lanadigan haq; qiymatning o‘zgargan shakli, ish kuchi (taqdim etilgan mehnat xizmati)ning bahosi. Ish kuchi qiymati va narxi bevosita ish haqida ifodalanadi. Ish haqi darajasi mehnatbozorida kelishiladi.

Xodim mehnat bozorida mehnatni emas, o‘z ish kuchini sotadi. Ish haqi mehnatning pul shaklidagi bahosi bo‘lib, uni ishga yollovchilar (korxona, muassasa, tadbirkor) mehnat qiluvchilarga ma’lum vaqt mobaynida ma’lum miqdordagi va muayyan sifatli ishni bajarganliklari uchun to‘laydilar. Yollanma xodim uchun ish haqi asosiy daromadi manbai hisoblanadi.

Ish haqi — yollanma xodim daromadining asosiy manbai, unga tegishli ish qobiliyatiga bo‘lgan mulkchilik huquqini iqtisodiy jihatdan ro‘yobga chiqarish shakli. Shu bilan birga ish beruvchi uchun yollanma xodimlar mehnatiga to‘lanadigan haq ishlab chiqarish harajatlarining unsurlaridan biri. Ish beruvchi mehnat resurslaridan ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida foydalanish uchun uni xarid qiladi.

Mehnat bozori — ish kuchi oldisotdi qilinadigan bozor. Mehnat bozorining ishtirokchilari ishga yollovchilar, ishga yollanuvchilar va ular o‘rtasidagi turli vositachilar hisoblanadi. Turli vositachi firmalar, tashkilotlar va agentliklar Mehnat bozorining infratuzilmasini tashkil etadi. Ish kuchi maxsus tovar sifatida uning sohibi tomonidan bozorga taklif etiladi. Ishga yollovchilar Mehnat bozoriga talab bilan chiqadi. Ish kuchining oldisotdisi bevosita haridor bilan sotuvchi o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki vositachilar ishtirokida yuz berishi mumkin. Bu ishni mehnat birjasi yoki ish topib beruvchi firmalar bajaradi. Ish kuchining oldisotdisi mehnat bitimi shaklida rasmiylashtiriladi. Mehnat bozorida ish kuchini sotuvchi bilan uni oluvchi o‘rtasida mehnatning kelishilgan narxi — ish haqidir.

Mehnatga talab uning narxi bo‘lmish ish haqi miqsoriga nisbatan teskari mutanosiblikda, ya’ni ish haqi oshsa mehnatga talab qisqaradi, agar u pasaysa, mehnatga talab oshadi. Mehnat bozoridagi mehnat taklifi ish haqiga nisbatan to‘g‘ri mutanosiblikda bo‘ladi. Moddiy muhtojlik sharoitida ko‘p ishlab, ko‘p pul topishga intilish mehnat taklifini oshiradi.

Mehnat bozorida mehnatga talab taklifdan oshib ketsa ish kuchi taqchilligi, mehnat taklifi talabdan ko‘p bo‘lsa ishsizlik paydo bo‘ladi.

Mehnat bozorining turlarga ajralishi uning harakteri va ko‘lamiga bog‘liq. Mehnat bozori oshkora va yashirin harakterda faoli-yat ko‘rsatishi mumkin. O‘z ko‘lamiga qarab Mehnat bozori mahalliyhududiy, milliy va jahon bozorlaridan iborat. Globalizatsiya sharoitida moddiy resurslarni mamlakatlararo taqsimlanishiga mos ravishda mehnat resurslari ham taqsimlangani sababli jahon Mehnat bozori tez rivojlanadi. Iqtisodiyoti kuchli mamlakatlar milliy Mehnat bozorida kelgindilar mehnati taklifi tez usadi, narxi arzonligidan unga talab ham ortadi. 2000-yilda Yer yuzida o‘zi tug‘ilgan yurtida ishlamaydiganlar soni 80 mln. nafardan ziyod bo‘ldi. Xalqaro Mehnat bozori kengayishi rivojlangan mamlakatlarda o‘zga millat diasporasi o‘sishiga olib keladi (masalan, 2002-yil AQShdagi xitoyliklar 15 mln. nafardan ortiq bo‘lgan).

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mehnatning miqdori va sifatiga qarab mehnatga haq to‘lashning, asosan, vaqtbay va ishbay tizimlari qo‘llaniladi. Vaqtbay ish haqi shaklida xodim oladigan ish haqi miqdori ishlagan vaqt bilan bog‘liq bo‘ladi, ya’ni ish haqi miqdori mehnat unumdorligi va intensivlik darajasiga bog‘liq emas. Ishbay ish haqi xodimning ma’lum vaqt mobaynida tayyorlangan mahsuloti miqdori bilan o‘lchanadi. Ishbay ish haqining ko‘rinishlaridan biri — akkord ish haqi. Bunda jamoa yoki ayrim xodimga ish hajmi oldindan belgilab beriladi, umumiy haq summasi kelishib olinadi. Ish butunlay yakunlanganidan keyin ish haqi oxirigacha to‘lanadi. Ish haqining bunday shaklidan ko‘pincha qurilishda foydalaniladi. Bulardan tashqari aksar mamlakatlarda ish haqidan tashqari mehnatda erishgan yutuqlari uchun mukofotlash ham mavjud. Bular vaqtbay mukofot, ishbay mukofot tizimlari hamda korxonada olingan foyda hisobidan ajratiladigan moddiy rag‘batlantirish fondidan mukofotlash tizimidir.

Ish haqining asosiy vazifasi ishlab chiqarishning bevosita qatnashchisi bo‘lgan xodim hamda uning oila a’zolarining hayot va mehnat faoliyati sharoitlarini ta’minlashidan iborat. Qiymatning mehnat nazariyasi ish kuchini alohida, o‘ziga xos tovar deb hisoblaydi. Shu sababli, bu nazariya ish haqini tovar bo‘lgan ish kuchi qiymatining o‘zgargan shakli, ya’ni uning puldagi ifodasi deb hisoblaydi va uni ish kuchini takror ishlab chiqarishi uchun zarur bo‘lgan tirikchilik vositalari qiymati tarzida ta’riflaydi. Ish haqiga ish kuchi qiymatining puldagi ifodasi sifatida qarash aniq mehnat bozorida ish haqi darajasiga talab va taklif omillarining ta’sirini hisobga olmaydi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar mehnat bozorida real ish haqining o‘rtacha darajasi yashash uchun zarur tirikchilik vositalari minimumiga qaraganda ancha yuqori darajada turadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ish haqi xajmiga bir qator bozor omillari (tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif o‘zgarishlari, mehnatga bo‘lgan talab narxining o‘zgaruvchanligi, iste’mol tovarlari va xizmatlar narxi o‘zgarishi va boshqalar) va bozordan tashqari omillar ta’sir ko‘rsatadi, buning natijasida mehnatga haq to‘lashning muayyan darajasi vujudga keladi.

**Xulosa**

Ish haqining mazmunini to'g'ri tushunib olish uchun eng avvalo yaratilgan milliy mahsulotning taqsimlanish prinsiplari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish lozim.Davlatning ishchi kuchi bozoridagi vositachilik roli ham mehnat munisabatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin.Jumladan,o'ziga qisman ishchi o'rinlarini qidirish va tavsiya qilish hamda ishga joylashtirish bo'yicha umummiliy dasturni ishlab chiqarish vazifalarini oladi.Ishchilarni o'qitish va qayta tayyorlashning davlat tizimi,bozorning o'zgaruvchan talablariga tez moslashishga imkon beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Akramovich N. A. THE PRIORITY OF USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE AGRICULTURAL EDUCATION SYSTEM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.
2. Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta ‘lim metodologiyasi rivojlantirishning usullari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 29-31.
3. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA’LIM TIZIMIDA AGRAR SOHANING USTUVORLIGI UNDA INNOVATSIYALARNING QULLANISHI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 96–98. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/104
4. Nizametdinov, A. A. (2022). OLIY TA’LIM TIZIMINING AGRAR SOHASIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR QO‘LLASH USTUVORLIGI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(6), 58–60. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/96
5. Akramovich N. A. HISTORY, SUBJECT AND OBJECT OF FORMATION OF" MACROECONOMICS" //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 1. – C. 209-210.
6. Nizametdinov A. et al. THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 251-254.
7. Akramovich N. A. et al. RAQAMLI IQTISODIYOTNI O’ZBEKISTONDAGI O’RNI //Conferencea. – 2022. – C. 67-69.
8. Nizametdinov Ali Akramovich. (2022). SUN’IY INTELEKTNI KADRLAR SIYOSATINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 251–253. Retrieved from http://journal.jbnuu.uz/index.php/ijcstr/article/view/171
9. G'aybullayev S. THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 116-126.
10. G’Aybullayev Sarvar O. et al. O ‘ZBEKISTONDA ISTE’MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO ‘NALISHLARI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 119-125.

11. Dilshod N. XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KORXONALARDA TUSHUMLAR AUDITINI TASHKIL QILISH BOSQICHLARI VA DASTAKLARINI TAKOMILLASHTIRISH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – С. 105-110.

12. Najmiddinov D. R., Shodlikov D. E. THE EFFECT OF THE SECRET ECONOMY IN A DAILY LIFE OF THE SOCIETY //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1A. – С. 56-59.

13. Мухтаров Б. А. Имитационная система прогнозирования факторов в легкой промышленности //Молодой ученый. – 2017. – №. 40. – С. 122-124.

14. Sirojiddin S., Nodira T., Dinora S. CHARACTERISTICS OF PRICE AND FORMATION //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 265-270.

15. Xaydarov B., Saitov S. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 634-635.

16. Xaydarov B. X., Saitov S. A. RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA XORIJIY TAJRIBA //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 151-156.

17. Nodira T., Xaydarov B., Zafar Q. THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF COMPETITION AND MONOPOLY IN THE ECONOMY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 11. – С. 241-245.

18. Sarvar O'ktam o'g G. et al. SYSTEMATIC-SITUATION APPROACH IN MANAGEMENT //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 999-1008.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# THE ROLE OF THE PRIVATE SECTOR IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM

Xaydarov Baxrom[1]
Nizametdinov Alijon[2]
Zoirov Aziz[3]

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

KEYWORDS

private sector, tourism, tourism industry, infrastructure, tourism potential, advertising companies

ABSTRACT

The studies of the role of the private sector in the development of tourism, measures to expand the scope of tourism services and develop its infrastructure to further expand the participation of the private sector in the rapid development of the tourism industry, to provide them with benefits, to train personnel in the field and improve their qualifications, to increase the type of new tourist products.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7429630
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Assistant, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[2] Assistant, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[3] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XUSUSIY SEKTORNI ROLI

KALIT SO‘ZLAR:
xususiy sektor, turizm, turizm industriyasi, infratuzilma, turizm salohiyati, reklama kompaniyalari

ANNOTATSIYA
Turizmni rivojlantirishda xususiy sektorning o’rnini o’rganish, turizm xizmatlari ko‘lamini kengaytirish va infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari. Turizm industriyasini jadal rivojlantirishda xususiy sektor ishtirokini yanada kengaytirish, ularga imtiyozlar taqdim etish, sohada kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, yangi sayyohlik mahsulotlari turini ko‘paytirish.

Ma’lumki, O’zbekistonda 1994 yilga kelib xususiylashtirish jarayoni boshlandi. Bu jarayon ancha kech boshlanganligi tufayli, hozirgi kunda O’zbekistonda boshqa mamlakatlarga qaraganda turizmni rivojlantirishda xususiy sektorning o’rni sezilarli darajada emas. SHuning uchun ham O’zbekiston hukumati yangi tashkil etilgan madaniyat, turizm va sport departamenti orqali turizm sanoatining har bir darajasidagi xususiy sektor korxonalarining rivojlanishini har jihatdan qo’llab-quvvatlashni o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan. Jahon tajribasida kichik va o’rta korxonalarni rag’barlantirish va qo’llab-quvvatlash usullarining keng doirasi ishlab chiqilgan bo’lib, bunday yondashuvlarni O’zbekistonda ham faol ravishda qo’llash maqsadga muvofiqdir. Harakatlar dasturi bu usullarni to’liq ifodalab bera oladi, biroq turizm infratuzilmasini jahon andozalariga mos ravishda qayta isloh etish uchun naqd kafolat, subsidiyalangan qarz va soliq imtiyozlari ko’rinishdagi hukumat tomonidan qo’llab-quvvatlanish talab qilinadi. Ma’lum vaqt o’tgandan keyin O’zbekistonda turizmni rivojlanishi va xususiy sektorning kengayishi natijasida xususiy sektor milliy turistik tashkilotlar tomonidan ko’ratilayotgan xizmatlarda o’z ulushiga ega bo’lishi mumkin. Ko’plab yevropa mamlakatlarida xususiy sektor milliy turistik tashkilotlarning operatsion byudjetga tushadigan naqd pul tushumlarini 20 foizdan 40 foizgacha bo’lgan miqdorini beradi. Xususiy sektor reklama kampaniyalari, seminarlar va ko’rgazmalarda ishtirok etish uchun, reklama va marketing ma’lumotlariga kiritilishi uchun, reklama broshyuralari uchun va boshqa shu kabilar uchun pul mablag’lari to’laydi. Masalan, Finlyandiya va Irlandiya kabi uncha katta bo’lmagan mamlakatlarda marketing byudjetidagi xususiy sektorning yillik ulushi 5 mln dollardan 10 mln dollargachani tashkil etadi. Ma’lum vaqt o’tgandan so’ng O’zbekistonda ham rivojlangan xususiy turistik sektordan ma’lum tushumlarning kelishini ko’tish mumkin. O’zbekiston turizmida xususiy mulkchilikni rivojlantirish orqali raqobat kurashini qaror toptirish mamlakatda mavjud imkoniyatlardan to’laroq foydalanishni talab etadi. Ma’lumki, hozirgi kunda Respublikamizda talaygina xususiy turistik tashkilotlar faoliyat ko’rsatayapti. Ular faoliyatida marketingni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm, bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biri sanaladi. Shu boisdan, dunyoning ko‘plab davlatlari tomonidan ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada

tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, BMT huzuridagi Jahon turizm tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2018 yilda sayohat qiluvchi turistlar soni 1,4 milliardni tashkil etib, bu ko‘rsatkich 2017 yilga nisbatan 6 foizga ko‘paygan. 2019 yilda esa, sayyohlar soni 1,5 milliardga yetgan. 2019 yilda jahon yalpi ichki mahsulotida turizm va sayyohlikning umumiy hissasi esa, qariyb 9170 mlrd. dollarni tashkil qilgan. Yuqoridagi raqamlar odamlarning yildan-yilga sayyohatga bo‘lgan qiziqishi, talablarining ortib borayotganiga yaqqol misoldir. Umuman, turizm iqtisodiy foyda keltirishdan tashqari, aholining dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, dunyoning turli davlatlari va mintaqalari vakillari o‘rtasida yaqin aloqalarni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston ham ulkan turizm salohiyatiga ega. 2016 yilda O‘zbekistonda turizm sohasini tubdan isloh qilish orqali sayyohlik infratuzilmasi rivojlantirildi. Xalqaro sayyohlar soni 2016 yildagi 2 milliondan 2019 yilda 6,7 milliongacha ko‘paydi. BMT huzuridagi Jahon turizm tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston 2019 yilda eng yaxshi rivojlanayotgan sayyohlik yo‘nalishiga ega mamlakatlar beshligidan joy oldi.

2016–2021 yillarda mahalliy sayyohlarning soni 24 millionga yetgan bo‘lsa, xorijliklarning soni qariyb 20 million kishini tashkil etdi. Koronavirus pandemiyasi sabab, 2020 yilda O‘zbekistonga 1,5 million, 2021 yilda esa, 1,7 million chet ellik sayyohlar tashrif buyurgan.

Turizmni rivojlantirishning jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, mazkur industriyani yuqori daromadli sohaga aylantirish uchun davlat va xususiy sektordagi barcha ishtirokchilarning sa’y-harakatlarini birlashtirish va mustahkamlash zarur. Bunda, hukumatning roli – xalqaro, hukumat va xususiy sektor darajalarida turizm sohasidagi rivojlanish siyosatini muvofiqlashtirish va rejalashtirishni ta’minlashdan iborat.

Shu nuqtai nazardan, 2022 yilning 26 aprel kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida turizm xizmatlari ko‘lamini kengaytirish va infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Unda turizm industriyasini rivojlantirish, sohadagi, xizmatlar ko‘lamini kengaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va nufuzini yaxshilashga qaratilgan masalalarga alohida urg‘u berildi.

Yig‘ilishda jahonda koronavirus pandemiyasi paytida o‘rnatilgan cheklovlar asta-sekin yumshayotgani, shu bois turizm industriyasi tiklanayotgani, xususan, 2022 yilning birinchi choragida O‘zbekistonga 610 ming nafar sayyoh tashrif buyurgani, bu esa, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ikki baravar ko‘pligi qayd etildi.

Mamlakatning har bir hududida turizmni rivojlantirish bo‘yicha yirik loyihalar amalga oshirib kelinmoqda. Bunga, Namangandagi «Afsonalar vodiysi», Bo‘stonliqdagi

«Amirsoy» majmualari yaqqol misol bo‘la oladi. Mazkur majmualarga kuniga minglab xorijiy va mahalliy sayyohlarning tashrif buyurishi tahsinga sazovor, albatta.

Prezident yig‘ilish davomida «O‘zbekiston turizm magistrali» bo‘ylab, 31 ta tuman va shahar hududidan o‘tuvchi yo‘llar bo‘yida avtoturargoh, kemping, avtoservis, ovqatlanish, yoqilg‘i quyish kabi xizmatlarni qamrab olgan «Karvonsaroy»lar barpo etish taklifini ham berdi. Albatta, bu takliflarning amalga oshirilishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, aholi bandligining ta’minlanishi hamda turmush farovonligining oshishiga, shuningdek mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushining sezilarli ravishda ortishiga, sayyohlar oqimining ko‘payishiga xizmat qiladi.

2017 yil 7 fevraldagi «O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar stretegiyasi to‘g’risida»gi PF-4947-sonli farmoyishining “Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish» nomli 4.5-bandida belgilangan vazifalarning asosiy maqsadi jismonan sog’lom, ruhan va aqlan rivojlangan mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo’llab-quvvatlash, bolalar va yoshlar o’rtasida tarbiyalashni shakllantirish, avvalo, o’quvchi yoshlar(o’quvchilar) orasida jinoyatchilikning, giyohvand moddalar iste’mol qilishning oldini olish, hozirgi davrda aholining, ayniqsa, yoshlarning zararlanishi kundan-kunga ortib borayotgan dunyo tibbiyotidagi eng muhim muammolardan biri bo‘lmish OITS kasalligining oldini olish va unga qarshi kurashishga, tibbiy madaniyatni oshirish, o’quvchi(yigit va qiz)larni sog’lom hayot tarziga tayyorlash, sog’lom avlod tug’ilishi va uni tarbiyalashning chora-tadbirlariga qaratilgan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda umumta’lim maktablarida o’quvchilarning o’quv-bilish faoliyatining tashkiliy-boshqaruvning samarali shakllari va texnologiyalarini qo’llash, salomatlikni tiklashga oid tadbirlarini o’tkazish orqali o’quvchilarning o’zi va o’zgalarning salomatligiga daxldorligini anglatish, turli xil salbiy omillardan himoyalanish, o’z salomatligini asrash uchun zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirishi barobarida tarbiyalash ko’nikmalarini egallanishiga zamin tayyorlanadi.

O’quvchilarning tarbiyalash ko’nikmalarini o’zlashtirishga tayyorgarlik darajasi, ularning motivasiyasini aniqlash va tarbiyalashga oid tushunchasini aniqlash uchun anketalashtirish metodi qo’llanildi. O’tkaziladigan anketa so’rovlari tarbiyalash yuzasidan munozara qilish imkonini beradi (1-jadval).

*1-jadval.* ***O‘quvchilar o‘quv motivasiyasining tahlili***

| № | O‘quv motivlari | % |
|---|---|---|
| 1 | Tarbiyalash tushunchalarini bilishiga bo’lgan qiziqishni mavjudligi | 35 |
| 2 | Dars davomida tarbiyalash yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajarishda yuqori baholarni olishga intilishi | 45 |
| 3 | O’zini va o’zgalar sog’liklarini qadrlay olishi, milliy an’analar va umuminsoniy qadriyatlar negizida tarbiyalashni tashkil etishiga erishish | 30 |
| 4 | Hayot faoliyati davomida tarbiyalash omillariga rioya etishni shaxsiy e’tiqodga aylantirish | 45 |
| 5 | Tarbiyalashni shakllantirishda ma’naviy va axloqiy fazilatlarning ahamiyatini o’rgatish | 35 |
| 6 | Notarbiyalashni yuzaga keltiruvchi omillardan ongli ravishda himoyalanish | 35 |
| 7 | Jismonan va ruhan salomatligini saqlashga qaratilgan tadbir va kechalarda faol ishtirok etish | 40 |
| 8 | O’z kuchiga ishonchining mavjudligi | 55 |

Ularning bilish faoliyatini sifat tahlili, tarbiyalash yuzasidan kerak bo’lgan bilimlarni egallashga motivasiyasi yuqori darajada ekanligini ko’rsatadi. Bu holatni yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalash imkoniyatiga bo’lgan yuqori talablari bilan izohlash mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar stretegiyasi to’g’risida»gi PF-4947-sonli Farmoni.//O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to’plami.– T., 2017y.,39–b.

2. Safarov O. Oila ma’naviyati. – T.: Ma’naviyat, 1998.

3. Taylakov T.N., Asadov Yu.M. Voyaga yetmaganlar orasida deviant xulqka moyil o‘quvchilarni aniqlash mexanizmlari. «Kamalak» nashriyoti. – Toshkent-2017.

4. Taylakov N.I. va boshqalar. Voyaga yetmaganlar orasida deviant xulqga moyil o‘quvchilarni aniqlash va ularni tarbiyalash. «Kamalak» nashriyoti. Toshkent. 2017. 320 bet

5. Xolmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog’lom avlod tarbiyasi. – T.: O’zbekiston, 2000.

6. Sharipova D, ,Toirova M., Muhamedova S. Agar bolam sog’lom bo’lsin desangiz. – T.: «Ilm ziyo»-2006y.

7. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz (Ota-onalar uchun tavsiya). – T.: «Ma’naviyat», 2013.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# THE IMPORTANCE OF THE PRIMARY EDUCATION TEACHER IN LEARNING THE SPEECH TECHNIQUE AND LITERARY LANGUAGE

Musurmonova Go'zal[1]

*Samarkand Branch of Tashkent International University of Chemistry*

KEYWORDS

speech, language, pronunciation, speech technique, moving sentences, excerpts, dialogue, monologue

ABSTRACT

In this article, the primary education teacher's thoughts on the culture of speech, his speech during class, the laws and regulations that he must teach to students, the requirements for the teacher's speech, the opinions of our scholars on speech and language, speech etiquette in the hadiths thoughts about are covered.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7468387
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Student, Samarkand Branch of Tashkent International University of Chemistry, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHISINING NUTQ TEXNIKASI VA ADABIY TILNI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

KALIT SO'ZLAR:
Nutq, til, jarangdorlik nutq texnikasi, ko'chma gaplar, ko'chirmalar, dialog, monolog

ANNOTATSIYA
Ushbu maqolada Boshlanǵich ta'lim o'qituvchisi nutq madaniyati xaqida fikrlar, dars vaqtidagi nutqi, o'quvchilarga o'rgatishi zarur bo'lgan qonun qoidalar o'qituvchi nutqiga qo'ygan talablar, Olimlarimizning nutq va til xaqidagi fiklari, Hadislarda kelgan nutq odobi haqida fikrlar yoritilgan.

Nutq odobi aytilishi zarur bo'lgan habarlarni tinglovchini xurmat qilgan xolda, bilish chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi. O'qituvchi o'z nutqidan keng foydalanadi. O'quvchilarga voqea-hodisalar, shaxslar haqida malumot berishda bu katta axamiyat kasb etadi.O'qituvchilik kasbi bevosita ovoz xususiyatlari bilan bog'liq, yoqimli va jarangdor ovozga ega bo'lgan o'qituvchi o'z o'quvchilariga ovozning shiradorligi bilan ham tasir etadi. Bunday muvoffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi o'z ovozini kuchini, yoqimliligini bilishi zarur. O'qituvchining ovozida quyidagi xususiyatlar bulishi lozim: jarangdorlik, tovushning tozaligi va tembirning yorqinligi.

Nutq texnikasi deyilganda nutqni tinglovchi yoki o'quvchuga yetkazishda qo'llaniladigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko'rinishda bo'lganda uning texnikasi ham ikki xil kursatish mumkin.

1. Og'izaki nutq texnikasi .
2. Yozma nutq texnikasi.

Og'zaki nutq texnikasi — tovush, bo'g'in, so'zlarni, uning shakillarini talaffuz etishni yaxshilaish borasida nutq organlarini faollashtruvchi mashqlarni anglatadi. Bunda ovozdan foydalanish tovush fazilati sifatida yorqin ifodalash qobiliyati bilan nutq faoliyatining ma'nosi bilan nutq ishlatilayotgan so'z ma'nolarini bilish bilan bog'liq.

Yozma nutq — yozma nutq ham xuddi og'izaki nutq kabi tinglovchi uchun yaratiladi. Uning qulayligidan, o'quvchiga tez va butun mohiyati bilan yetib borishidan yozuvchi ham o'quvchiga ham minnatdor. Shuni nazarda tutganda yozma nutq texnikasi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

A) har qanday nutq hat boshidan bosh harf bilan boshlanishi kerak, har bir gap mazmunan nisbatan tugallangan bo'lishi, yorqin fikr anglatishi kerak.

B) dialoglardam tashkil topgan yozma nutqda har bur shaxsning gapi teri (–) orqali yoziladi.

C) ko'chma gaplar, ko'chirmalar, o'z ma'nosida ishlatilmagan so'zlar, birikmalar qo'shtirnoq ichida olinadi.

D) nutq uchun ikkinchi darajali hisoblangan, undagi gaplarni tarkibiy qismi hisoblanmaydigan narsalar teri yoki qavs bilan ajratiladi.

E) ot kesmi, izohlovchi, undalma, ajratiladigan bo'laklar tegishli tinish belgilar bilan

ajratiladi.

F) nutqning hat boshidan yirik qismlarga, boblarga bo'lib ko'rsatiladi. [1; 4 ]

O'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar:

1. Imkoni boricha o'rtacha, muloyim ovozda so'zlamog'i.
2. O'zini qo'pol, nojoya so'zlardan tiymoq
3. Bir maromda, ohangda gapirmasligi
4. So'zlaganda keraksiz harakat qilmasligi
5. Gapirganda qomatini to'g'ri tutishi
6. Har qanday og'ir vaziyatda ham jahlini sezdirmaslik
7. O'z nutqi ustida tinimsiz ishlashi, mashq qilishi
8. So'zlaganda inson shaxsini kamsituvchi so'zlardan foydalanmasligi
9. O'quvchining fikrini sabr toqat bilan tinglay bilishi.
10. O'z ona tilini, adabiy til me'yorlarni chuqur bilmog'i
11. 10–12 ming so'z boyligiga ega bo'lmog'i
12. Badiiy kitoblarni mutoala qilishi
13. Sinonim manodosh so'zlarni yaxshi o'rganmog'i
14. O'z-o'zlariga rioya qilgan holda o'qituvchiga xos kiyinishi
15. Nutqida o'quvchilar ko'nglini ko'taradigan samimiy maqtovlardan foydalanishi
16. Zamonaviy fan yutuqlarini o'rganmog'i
17. O'z-o'zini dalilar asosida isbotlab berishi
18. Eng avvalo o'zi aytgan so'zlariga o'zi rioya qilmog'i va o'quvchiga ham nutqi, ham fe'l atvori, ham kiyinishi, ham odobi bilan namuna bo'lmog'i shart. [2;5]

O'qituvchi shunaqangi muhandis bo'lishi keraki u o'z o'quvchilariga o'rnak bololishi kerak. O'quvchilarga hamma narsalarni tarbiya, nutq odobi, kiyinish odobi, tozalik, gigiena va ko'plab narsalarni orgata bilish. Qanday joyda kimga qanaqa muomilada bo'lishni xam orgatish zarur bir so'z bilan aytganda o'qituvchi o'quvchilarga ham ona ham o'qituvchi bolishi kerak. Nutq haqida o'rgatish badiiy gapira bilishligni o'rgatish. Til hamma narsaga qodir bu jonsiz va suyaksiz narsadir til yaxshilikni ham yomonlikni ham o'z ichiga oladi inson hayoti davomida to'ǵri gapira bilishi yolǵon aralashtirmasligi yolǵon gapirsa gunoh bo'lishini bilishi avvolo o'quvchi buni ota onasidan va O'qituvchidan eshita bilishi kerak. Nutq va til haqida notiqlarning fikrini qanchalik to'ǵri gapirganlarini bilishlikni o'rgatish lozim. Masalan, mashhur notiq Husayn Voiz Koshifiy "Futuvatnomayi sultoniy" asarida nutq odobi haqida ibratli fikrlarni bayon etadi. Ko'ngildagi yashirin sirlar zarurat taqozosi bilan quyidagi holatlarda oshkor etiladi: Mazlumlar faryodiga iltijosiga javob berishi uchun so'z aytish. Bu holatda ko'ngil yengil tortib, aytilgan so'z mazmuni zolim zulmidan ozod etishi mumkin. Tilni asrash ham ahamiyatlidir Koshifiy notiq tilini saqlashi lozim bo'lgan quyidagi holatlarni bayon etadi.

1) Yolǵon gapirishdan, zero yolǵonchi Xudoning dushmani
2) Vadaga xilof gapirish, munofiqona so'z aytishdan.
3) G'iybat va bo'xton gaplardan, bo'xton fosiqlar ishi.

4) Behuda bahsdan, ayb qilishdan, gap tashishdan. Bular shayton vas fasasi.

5) O'zini maqtash va tariflashdan. Bu hudbinlikdir.

6) Navkar va xizmatkorlarni-xalqni lantlashdan .

7) Qarg'ish, duoi bad qilishdan, chunki bu jonu dilning ofati.

O'qituvchi o'quvchilariga shu olti qoida boyicha bilim, ko'nikma berishi kerak kimga qanday muomila qilayotganiga qarab uni tarbiya va axloqini bilishi mumkin. Martabaga yetmaganlarning ham suhbat odobi sakkiz qoidaga asoslanadi.

1. So'ramagunlariga gapirmasin
2. Gapirganda ovozini baland ko'tarmasin.
3. Gapirayotganda o'ngu so'lga qaramasin.
4. G'arazli va kinoyali gaplarni gapirmasin.
5. Qattiq gapirmasin, betga choparlik qilmasin.
6. Pushaymon bo'lmaslik uchun o'ylab gapirsin.
7. Odamlarni so'zini bo'lmasin.
8. Ko'p gapirmasin chunki ko'p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo'lsa ham o'z gapirishni shior etsin.

O'qituvchi shu qoidalarni ham o'z o'quvchilariga orgatsa maqsadga muvofiq bolar edi [3;6-7-8]

O'quvchining nutqi hamma vaqt o'zbek adabiy tili normalariga sodiq qoladi, adabiy tilning go'zal va ta'sirchanligi o'zida saqlaydi. Adabiy til ma'lum qo'shimchalar, grammatik katogoriyalarning qo'llanishidagi bir xilligi, barqorорligi bilan umum o'zbek xarekterida bo'ladi va shevalardan ustun turadi. Uning ustunligi bir tomondan adabiy norma belgilaydi. Hadislarda nutq va nutq odobi haqida.

"Qur'on"ning ma'lum oyatlari shirin suxonlikga bag'ishlanadi. Shirin so'zlik insoning muomila madaniyatiga ega ekanligini ko'rsatadi, obrosini ortiradi. Hurmatga sazavor qiladi. Shunga ko'ra "Qur'on"da harbir inson shirinso'z bo'lishi ta'kidlanadi. Boshqa bir oyatda Alloh kishilarni so'zlashganda past ovoz bilan so'zlashga undaydi. "Kishilarga chiroyli so'zlaringiz" (Baqara surasi -53 oyat) so'zlashganda ochiq yuzli bo'lish, qo'polik qilmaslik, xushmuomila bo'lish odoblari hayorda tinchlik va baxt sadoqatga erishishda yoruǵ yo'l sifatida talqin etiladi:"Alloh tomonidan bo'lgan bir marhamat sababli ularga yani sahobalarimizga yumshoq so'zli bo'ldingiz. Agar qo'pol, qattiqqo'l bo'lganingizda edi, albatta atrofingizdan tarqalib ketgan bo'lar edilar (Olimron surasi, 159-oyat) degan fikirda bo'lganlar. Dar haqiqat hammaga ham yaxshi gap yaxshi yomon gap bilan esa kimnihgdir ko'nglini og'ritib qo'yishilik mumkin. [4; 4-5]

Insonlar nutq yordamida kim ekanliklarini, o'zining fikr va maqsadlarini anglab olishadilar. Shuno'rinda birdan o'rinli savol tug'iladi. Kishilar oz nutqlarini nima orqali amalga oshiradilar. Albatta til orqali namoyon bo'ladi. Bejizga hodisalarimizdan gadislarimizni birida shunday diyilmagan "Kishining zeb-u ziynati, go'zaligi uning tilidadir - kishilar imkoniyatidan kelib chiqqan holda o'z nutqlarini amalga oshiradilar, shu tillarini shu tillarini tengsiz va betimsol dep o'ylaydilar. Bu bebaho xazinani astoydil sofligini qadr-

qimmatini oshirishga urinadilar, uni boy berib qo'ymaslik uchun jon jahdi bilan kurashib kelishadilar chunki, til milatni, millat ekanligini ko'rsatuvchi asosiy oynadir.

Nutqiy madaniyat haqida gap ketar ekan nutqning madaniyligi demak sir doirasida quvvatini ta'sir etadigan to'ǵirillik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalik, boylik, soflik, joyalik kabi bir qator kommunikativ sifatlar mavjud. Anashu sifatlarning barchasini o'zida mujasam etgan nutq madaniy hisoblanadi.

Nutq madaniyatidagi asosiy masala tildan maqsadga muvofiq foydalanishdir. Demak tilni qolashning real ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilish bu sohaning muhum yo'nalishlaridan biridir. O'qituvchi nutqi adabiy talaffuz me'yorlariga amal qilishda o'quvchiga namuna bo'la olishi lozim.Adabiy talaffuz me'yorlarning buzulishi eng avvalo shevaning natijasida yuzaga keladi shuning uchun o'qituvchi o'zi va o'quvchilar nutqini shevaga oid artikulyatson baza va shevaning fonetik qonuniyatlaridan batamom qutulish oson kechmaydi. Buning oqibatida aytaylik Buxorolik O' tovushini faqat til oldi tarzida, Xorazimlik O tovushini asosan a tarzida yoki unga yaqin shaklda talafuz qilishi, Toshkentliklar oshni-oshshi, yuzni-yuzi, qorni-qorri tarizda aytilishi kabi ko'plab xatolar kelib chiqaveradi. Bazan boshqa tilni mukammal biladiganlar nutqida muayyan so'zni boshqa til talaffuz tamoyiliga ko'ra moslab aytish nuqsoni ko'zga tashlanadi. Yanvar-yinvar, Yaponiya-yiponiya dekan-de'kan, fakultet-fakulitet. Yozma nutqni aynan harflab o'qish ham adabiy talafuz me'yorlarning buzilishiga olib keladi. Masalan: O'qidingiz so'z shaklini yozganingizda 9 ta emas 8 ta tovush tarzida tafafuz qilinishi ya'ni ng ikki tovush emas bir tovushligini ekanligi ya'ni bajardin-gizmi, o'rtog'ingizmi, berdingizmi kabi xatolarga o'qituvchining o'zi ham qo'yishi mumkin. [6; 7-8]

Xulosa qilib, shuni aytish mumkinki to'liq, mukammal shakllangan talab darajasidagi o'qituvchining umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim uzviy ta'bir joiz bo'lsa tamallaridandir. Jonli tovush nutq va uning barcha unsurlarini to'g'ri voqealashtirish ko'nikma va malakalarining jami nutq texnikasi demakdir. Kasbiga sadoqatli o'qituvchi o'z o'quvchisi ko'z o'ngida qusursiz va bilimli, qadrli, ustoz ko'rinadi. Uni saqlash esa har bir ustozning o'ziga bog'liq. O'qituvchi har doim o'z ustida ishlashi, yangiliklardan boxabar bo'lishi innovatsiyalarga ijobiy qarashi o'zi ham novator bo'lishi maqsadga muvofiq. Kichik sinflardan ustoz nutqi ravon, jarangdor, turli g'arazli vositalardan holi bo'lishi, umumiy tarbiya jarayoni uchun ham ijobiy ta'sir etadi. O'qituvchining ovozi, talaffuzi, dektsiyasi, umuman tirik nutqi hamisha o'quvchilar uchun o'ziga xos etalon namuna vazifasini bajaradi.

**Adabiyotlar ro'yxati**

1. R. Qo'ng'urov, B. Qobilova "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" T.; 1992
2. Qudratov T,"Nutq madaniyat asoslari" T.; 1993.
3. Husayn Voiz Koshifiy "Futuvvatnomai Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" T.; 1994.
4. I mom Buxoriy "Al jome al-sahih" T.; 1999.
5. R. Rasulov "O'qituvchilik nutq madaniyati va notiqlik san'ati" T.; 2020.
6. A. Avloniy "Turkiy Guluston yoxud axloq o'qituvchi" T.; 1992.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# SOLAR ENERGY PROSPECTS. SOLAR ENERGY IS THE ENERGY OF THE FUTURE.

Allaberganov Jaloliddin Alisher ugli[1]
Qambaraliyev Quvonchbek Yodgorjon ugli[2]
Abbosov Nigmatullo Shukurullo ugli[3]

*Tashkent State Technical University*

KEYWORDS

Solar power plant, energy resource, alternative energy (MEM), Autonomous systems, Green energy, projected photovoltaic device, radiation intensity, Solar battery, Sun panel, inverter, convention equivalent, component, semiconductor collector, Potential

ABSTRACT

The article describes the advantages and disadvantages of solar power plants. The prospects of solar energy are discussed. Explains the principles of operation of alternative solar power plants. An opinion was expressed that the share of alternative energy sources in the global energy resource consumption is increasing day by day. The advantages and disadvantages of the materials necessary for the production of electricity of solar power plants are stated.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7479582
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Student, Tashkent State Technical University, UZB
[2] Student, Tashkent State Technical University, UZB
[3] Student, Tashkent State Technical University, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# QUYOSH ENERGETIKASI ISTIQBOLLARI. QUYOSH ENERGIYASI KELAJAK ENERGIYASI.

KALIT SO‘ZLAR:
Quyosh elektr stansiyasi, energiya resurs, muqobil energiya (MEM), Avtonom tizimlar, Yashil energiya, prognoz fotovollik qurilma, nurlanish intensivligi, Quyosh batareyasi, Qoyosh paneli, invertor, konventatsiya ekvivalent, komponrnt, yarimo`tkazgich kallektor, Potensial

ANNOTATSIYA

Maqolada quyosh elektr stansiyalarining afzalliklari va kamchiliklari xususiyati to`g`risida keltirilgan.quyosh energiyasi istiqbollari haqida so`z yuritilgan. Muqobil Quyosh elektr stansiyalari ishlash tamoyillarini tushuntiradi. Butun jahon energiya resursi iste’moli tarkibida muqobil enrgiya manbaalari ulushi salmog`i kundan kun ortib borayotgani haqida fikr bildirilgan. Quyosh elektr stansiyalarining elektr energiya ishlab chiqarishi uchun zarur bo`ladigan materiallar afzalliklari va kamchiliklari to`g`risida bayom etilgan.

Ko`plab ma’lumotlar va tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, hozirgi zamon statistikalariga ko`ra ilmiy texnikaviy taraqqiyotda qazib olinadigan yoqilg`ilar neft, ko`mir, tabiiy gaz, torf va boshqa bir qator tabiiy resurs manbaalari butun jahonning energiyaga bo`lgan extiyojini qondirish imkoniyatiga ega. Buning uchun an’anaviy elektr ta’minoti tizimlari, shuning bilan birga Avtonom tizimlar ertayu kech tinimsiz ishlashiga to`g`ri keladi. An’anaviy yoqilg`lar va ulardan energiya olish texnologiyalari qanchalik rivojlangan bo`lmasin, kelajakda o`z o`rnini muqobil energiya manbalariga bo`shatib berishga mahkumdir.

Iste’molchilarni energiya bilan ta’minlash muammolarini hal qilishning istiqbolli yo`nalishlaridan biri qayta tiklanadigan energiya manbaalaridan foydalanish, Yashil energiya ishlab chiqarish va joriy etishdir. Prognozlarga ko`ra yaqin yillarda ularning jahon iste’molidagi ulushi taxminan 24 % ni tashkil etadi. Quyosh energiyasi o`zi bilan birga bitmas tuganmas energiya oqimi bo`lib, Quyosh Yerga iste’mol uchun kerak bo`ladigan energiyadan ko`proq energiya beradi. Quyosh nurlanishining manbaasi –Quyosh hisoblanib bir yil davomida Quyosh kosmik fazoga $1.3*10^{24}$ kalloriya energiyani nurlantiradi. Yerdan Quyoshgacha bo`lgan masofa 147 dan 152 mln.km (o`rtacha - 146.6 mln.km ) gacha o`zgaradi.

Bu masofa bir astronomik birlik ( 1 a.b = $1.496*10^{8}$ m, taqriban 150 mln.km) ham deb nomlanadi. Quyosh nurlarini doimiy elektr energiyasiga aylantiradigan fotovaltik qurilmalar fotodiodlar, fotoelementlarning energiya harakteristikalari asosan quyidagi parametrlar bilan ifodalanadi. Bular Quyosh nurlanishining intensivligi, atrof – muhit omillari, chang zarralarining ortib ketishi, qarshilikning ortishi natijasida ish unumdorligining tushishi bilan izohlanadi.

Quyosh fotoelektrik stansiyalarining asosiy kamchiliklari Quyosh nurlanish energiyasini elektr enrgiyasiga aylantirib beruvchi batareyalarning tan narxining qimmatligi. Quyosh panellarida ishlab chiqarilgan o`zgarmas tok oqimini o`zgaruvchan tokga aylantiradigan invertorlardan foydalanish energiya samaradorligini ma’lum bir miqdorda pasayishiga olib keladi. Foto elektr stansiyada ishlab chiqarilgan va iste’moldan

ortiqcha bo`lgan elektr energiyani o`zida saqlovchi akkumulyator narxining qimmatligi, zaxira manbaalari sifatida ishlatiladigan va iste'molchilarni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlaydigan batareyalar qurilmalari va ularning texnologiyalarining qimmatligi Quyosh fotoelektrik stansiyalarining narxini sezilarli darajada oshiradi. Quyosh energiyasining birlik narxi uning hajmi va kuchiga bog`liq emasligi sababli FESni Qishloq xo`jalik obyektlari tomlariga modulni joylashtirish tavsiya etiladi. FES egasi iste'molidan ortiqcha bo`lgan energiyani kunduz kuni ishlab chiqarilgan energiyasini tarmoqqa bevosita sotadi, kechasi esa o`zi uchun zarur bo`lgan elektr energiyasini energiya kompaniyasidan boshqa hisoblagich orqali sotib oladi. Ushbu tizimdan foydalanish iste'molchi uchun qulay va foydali hisoblanadi. Quyosh batareyasidagi 1 kg kremniy 30-yil ichida 300 mvt/soat elektr energiyasini to`g`ridan to`g`ri konvertatsiya qilish uchun neftning yonish issiqligini 43.7 MJ/kg hisobiga olganda 1kg kremniy uchun 25 tonna neft ekvivalenti to`g`ri keldi. Agar ushbu loyihani mazutta ishlayotgan issiqlik elektr stansiyalarining samaradorligini 33 % deb oladigan bo`lsak ishlab chiqarilgan elektr stansiyasi bo`yicha 1kg kremniy taxminan 75 tonna neft ekvivalentiga teng bo`ladi. FES yuqori ishonchliligi tufayli uzoq muddat ishlashi bilan alohida e'tiborga loyiq hisoblanadi. FES ning asosiy kompanentlari kremniy va Quyosh batareyalari uchun xizmat muddatini yaqin kelajak ichida 50-100 yilgacha oshirish mumkin bo`ladi. Yagona cheklanish ularning samaradorligi pasayishi bilan almashtirish zaruriyati paydo bo`lishi mumkin. Keying 10 yil ichida ishlab chiqarishda Quyosh panellarining samaradorligini 25-30 % ga yetkazilishi mumkin, katta ehtimol bilan bunga erishiladi. Quyosh har soniyada Yerga 80 ming mld.kgW dan ortiq energiya beradi. Bu energiya miqdori dunyodagi bercha elektrstansiyalarida ishlab chiqariladigan energiya miqdoridan bir necha marta ko`pdir . Hamma qayta tiklanuvchi energiya turlari ichida Quyosh energiyasidan foydalanish O`zbekiston mintaqasida juda qulay bo`lib, uning yalpi salohiyati 98.6 % ni tashkil etadi. Bu energiyadan foydalanish O`zbekiston Respublikasida juda samarali va foydali hisoblanadi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko`ra O`zbekiston Respublikasida qayta tiklanuvchi energiya manbaalarining texnik salohiyati 180 mln tonna neft ekvivalentini tashkil etadi bu respublikaning yillik energiya resurslariga bo`lgan talabdan 3 marta ortib ketadi. Mamlakat iqtisodiyoti sohasida Quyosh energiyasidan tez va samarali foydalanish sohasi bu yarimo`tkazgichli o`zgartirgichlar orqali Quyosh nurlanishini to`g`ridan to`g`ri elektr energiyasiga o`zgartirish va aholi kamunal turmush obyektlariga ssiq suv ta'minoti tizimlarida Quyosh kollektorlari yordamida past potensialli issiqlikdan suv qizitish maqsadlarida foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Dunyo tajribasini umumlashtirib O`zbekiston mintaqasida qayta tiklanuvchi energiya resurslarini tahlil etib aytish mumkinki elektr va issiqlik ta'minotida , issiq suv ta'minotida Quyosh energiyasidan foydalanish O`zbekiston sharoitida to`liq o`zini oqlaydi. Shu bilan birga Quyosh energiyasining iqtisodiy resursi boshqa qayta tiklanadigan energiya manbaalariga nisbatan ancha kamdir. Shunday qilib u shamol energiyasidan 3.5 barobar ko`proq va kichik gidroenergetikadan 23 barobar kamroqdir . Lekin Quyosh energetikasining rivojlanish suratlari zamonaviy va iqtisodiy

sharoitlardan kelib chiqgan holda yaqin kelajakda uning iqtisodiy salohiyati sezilarli darajada rivojlanishidan dalolat beradi.

Xulosa: Qayta tiklanuvchi energiya manbaalaridan foydalanish Respublika iqtisodiy salohiyatini yaxshilashga yordam beradi. O`rganilgan natija va xulosalardan shularni ta'kidlash lozim bo`ladiki: Respublika hududida Qayta tiklanuvchi energiya manbaalariga asoslangan tizim yaratish Quyosh energetikasi texnologiyalarini joriy etish uchun zamonaviy ishlanmalar va zamonaviy metodlarni joriy etish lozim bo`ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo`ldoshev I.A., Sultonov M.Q., Yuldashev F.M.. Quyosh energetikasi//Darslik. Toshkent. TDTU 2020-295b.

2. Григорашпопов О.В. Автономные источники экспертнуюэлектроэнергии: Состояние и промышленности перспективы авезов / О.В. Григораш, С. В. Божко, А. Ю. экономических Попов и др. Краснодар 2012. с. 174.

3. А.Е. Автономные Инверторысолнечных солнечных электростанций. площади монография воздушных / А.Е. Усков. Краснодар, применении 2011. 119

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# THE DEVELOPMENT TENDENCIES OF LABOR RELATIONS IN SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP

Sindorov Lutfulla[1]
Suyunov Abbos[2]
Suyundukov A'zimjon[3]

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

KEYWORDS

Labor relations, small business, private entrepreneurship, employee, Labor Code, market economy, contract

ABSTRACT

This article talks about the development of small business and private entrepreneurship in the market economy and the importance of labor relations.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7479612
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Head of the Master's Department, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[2] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[3] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA MEHNAT MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

KALIT SO‘ZLAR:
Mehnat munosabatlari, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, xodim, Mehnat kodeksi, bozor iqtisodiyoti, shartnoma

ANNOTATSIYA
Ushbu maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va bunda mehnat munosabatlarining ahamiyati haqida so‘z boradi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish, uning qonuniy-me’yoriy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan iqtisodiy islohotlar dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Kam sarmoya talab qiladigan, tez modernizatsiya qilinadigan va bozor konyukturasining o‘zgaruvchan talablariga yaxshi moslasha oladigan biznes yuritish zamon talabiga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kichik biznes bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to‘ldiradigan, iqtisodiyotni tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim sektor hisoblanadi. Mehnat munosabatlari - bu xodim va ish beruvchi o'rtasidagi kelishuvga asoslangan huquqiy munosabatlar bo'lib, unga ko'ra bir tomon (xodim) ish beruvchi tomonidan belgilangan ichki mehnat qoidalariga rioya qilgan holda ma'lum bir mehnat funksiyasini (ma'lum bir mutaxassislik, malaka yoki lavozim bo'yicha ish) shaxsan bajarish majburiyatini oladi, ikkinchi tomon (ish beruvchi) esa xodimga mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ishni bajarish, unga tegishli mehnat sharoitlarini ta'minlash, shuningdek xodimning mehnatiga o'z vaqtida haq to'lash kabi majburiyatlarni oladi.

Bugungi kunda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish, xususan, yoshlarning biznes g‘oyalarini amalga oshirishga har tomonlama ko‘maklashish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Kichik biznes korxonalari xodimlarni boshqarish bu mehnat vazifalarini bajarishda xodimlarning aqliy va jismoniy qobiliyatlaridan eng unumli foydalanish maqsadida ularning manfaatlari, xulq-atvori va faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatish tamoyillari, usullari, shakllari va vositalari yig‘indisidir.

Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida mamlakat aholisining ish bilan bandligi darajasini oshirish va mehnat bozorini tartibga solish sohasidagi quyidagi yo`nalishlar bo`yicha amalga oshirilmoqda:

- aholining ish bilan bandligi va mehnat bozori takomillashtirilmoqda. Buning uchun zarar ko`rib ishlaydigan korxonalarni tugatish yoki ixtisosini o`zgartirish ishlari olib borilmoqda;
- iqtisodiyotni rivojlantirish negizida yangi ish o`rinlari yaratilmoqda; kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng imkoniyatlar ochilib, bu faoliyat qizg‘in qo‘llab quvvatlanmoqda;
- aholining mehnat faolligini, oilaviy ijara, dehqon va fermer xo`jaliklarini

rivojlantirish negizida aholining o`zini-o`zi ish bilan band qilish darajasi oshirilmoqda.

Hududlarda oilalarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilishga, ularning barqaror va qo‘shimcha daromad manbaiga ega bo‘lishiga, milliy hunarmandchilik yanada rivojlanishiga, xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslari amalga oshirilishiga, yosh tadbirkorlarning istiqbolli g‘oyalari va loyihalari ro‘yobga chiqishiga hamda shu asosda aholining bandligi ta’minlanishiga zamin yaratilmoqda. Ushbu yo‘nalishda mavjud kamchiliklar mehnat sohasidagi ijtimoiy munosabatlar turlicha talqin qilinishiga va huquqiy kolliziyalar, murakkab vaziyatlar yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Amaldagi qonunda umumiy tusga ega normalar ko‘pligi, ularni amalga oshirishning muayyan mexanizmisiz tatbiq etilayotgani bandlik siyosatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani, ijtimoiy munosabatlarni asosan qonunosti hujjatlari bilan tartibga solib kelinayotgani ta’kidlab o‘tish mumkin. Mehnat munosabatlarining paydo bo'lishining asosi mehnat huquqi manbalarida mavjud bo'lgan normalar va yuridik faktlardir.

Xodimlarni boshqarish sohasida asosiy vazifa har bir xodimning o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun sharoit yaratish va har bir muayyan holatda insonga uning oldida turgan vazifalarni hal qilish maqsadida zarur ta‘sir ko‘rsatish vositalarini topish. Ijtimoiy-mehnat munosabatlarining quyidagi uch darajasi farqlanadi: shaxsiy daraja, bunda xodim va ish beruvchi turlicha birikuvlarda o’zaro harakat qiladilar; guruhli daraja, bunda yollanma xodimlar birlashmalari va ish beruvchilar birlashmalari o’zaro harakat qiladi; aralash daraja, bunda xodimlar va davlat, shuningdek ish beruvchilar va davlat o‘zaro harakat qiladilar.

O‘zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirishning mustahkam qonunchilik va huquqiy asosi shakllangan bo‘lib, u muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda. Bu soha uchun soliq va moliyaviy munosabatlarda katta imtiyozlar belgilangan. Mehnat huquqining predmeti bu huquq sohasi tartibga soluvchi ijtimoiy munosabatlardir. Mehnat qonunchiligi tartibga solish uchun mo'ljallangan ijtimoiy aloqalar mehnatni tashkil etish va undan foydalanish bo'yicha bu munosabatlar huquqiy munosabatlarning barqaror shaklini berib, ularning ishtirokchilariga huquq va majburiyatlar beradi, ularga rioya etilishi davlat majburlov choralari bilan ta'minlanadi. Mehnat huquqining predmeti mehnatning ijtimoiy shakli, uning ijtimoiy tuzilishi, odamlarning ijtimoiy mehnatdagi ishtiroki nuqtai nazaridan munosabatlari hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktyabrdagi O‘RQ-642-sonli Qonunning 44-moddasiga asosan, o‘n olti yoshdan to pensiya ta’minoti huquqini olish yoshigacha bo‘lgan, haq to‘lanadigan ishga yoki ish haqi (mehnat daromadi) keltiradigan mashg‘ulotga ega bo‘lmagan, ish qidirayotgan va ish taklif etilsa, unga kirishishga tayyor bo‘lgan yoxud kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan o‘tishga yoki malakasini oshirishga tayyor bo‘lgan, ishga joylashishda ko‘mak olish uchun mahalliy mehnat organlariga murojaat qilgan va ushbu organlar tomonidan ish qidirayotgan shaxslar sifatida ro‘yxatga olingan mehnatga layoqatli shaxslar (bundan ta’lim muassasalarida ta’lim olayotganlar mustasno) ishsizlar deb e’tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Biznesning qonuniy manfaatlari davlat tomonidan muhofaza qilinishi va tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni tadbirkorlik faoliyati rivojlanishi va biznesning qonuniy manfaatlari muhofazasini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyati tubdan takomillashtirilishini nazarda tutadi. Farmonda Savdo-sanoat palatasining tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatiga ko‘maklashish, davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik, tadbirkorlik sub’yektlarini o‘qitish va kadrlar tayyorlash, tashqi iqtisodiy faoliyat va investitsiyalarni jalb qilish kabi aniq va eng muhim vazifalari belgilab berilgan.

Ijtimoiy-mehnat sohasi ish kuchini takror ishlab chiqarishning barcha bosqichlari va uning ijtimoiy birga sodir bo‘lishini ifodalaydi. Ijtimoiy mehnat sohasi tarkibiy qismlarining navbatdagi qismlarga munosabatlar guruhlari va ish kuchini takror ishlab chiqarish, xodimning mehnat vositalari hamda buyumlari bilan o‘zaro munosabatga kirishuvi uchun shart-sharoitlarni ta’minlash jarayonida vujudga keladigan tarkibiy qismlar kiradi. Bular quyidagilardir:

- aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi;
- ijtimoiy sheriklik tizimi;
- ijtimoiy sug’urta tizimi;
- pensiya tizimi;
- mehnatni muhofaza qilish tizimi va hokazolar.

Bizning fikrimizcha, ishchi kuchiga talabni oshishi bo`yicha iqtisodiy tadbirlardan eng asosiysi iqtisodiyot tarmoqlarida tarkibiy o`zgarishlarni amalga oshirishdir. Bunga eng avvalo mulkchilik shakllarini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, yangi ish joylarini yaratish, ish vaqtidan unumli foydalanish, ishlovchilarning moddiy va ma'naviy manfaatdorligini ko`tarish, solihlarni oqilona belgilash orqali erishiladi.

Mehnat huquqi bilan tartibga solinadigan boshqa jamoat munosabatlari mehnat faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mehnat munosabatlaridan oldin yoki ular bilan parallel ravishda mavjud yoki federal qonunlarda nazarda tutilgan hollarda ulardan kelib chiqadi.

Kichik biznesni rivojlanishi va unga ta’sir etuvchi omillar tadbirkorlikning o‘ziga xos xususiyatlari, afzalliklari va salbiy xususiyatlariga ko‘p jihatdan bog‘liq. Xalq farovonligini oshirish maqsadida “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz”, “Obod qishloq”, “Obod mahalla”, tomorqani rivojlantirish kabi dasturlar qabul qilindi. Bu dasturlar aholi bandligini ta’minlash, oilalar uchun daromad manbai yaratishga xizmat qilmoqda. Yoshlar mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda ham katta kuch. Respublikamizda 230 mingga yaqin yosh tadbirkor va fermerlar, mohir hunarmandlar faoliyat olib bormoqda. Ularning safi yanada kengayishi uchun davlat tomonidan zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizda kichik tadbirkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi: ulgurji va chakana savdo tizimi isloq qilindi; kichik

tadbirkorlik korxonalariga infratuzilma bo‟linmalari tomonidan xizmat ko‟rsatishning samarali tizimi yaratilmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi tadbirkorlik milliy iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishda, uni barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni ta'minlashda, texnik hamda texnologik qayta jihozlash, yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirishda o'ta muhim rol o'ynashidan, ichki bozorni zarur tovar va xizmatlar bilan to'ldirishning asosiy manbayi ekanligidan yaqqol dalolat beradi. O'zbekiston uchun xususiy tadbirkorlikning mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash yoki o'zini o'zi band qilish, uning daromadini oshishidagi ahamiyati, ayniqsa, muhimdir. Mehnat munosabatlari - bu xodim va ish beruvchi o'rtasidagi ixtiyoriy huquqiy munosabatlar bo'lib, unda ishlab chiqarish jarayonida har ikki tomon ham mehnat qonunchiligi, jamoaviy va shaxsiy mehnat shartnomalari bo'ysunadi. Mehnat munosabatlarining o'ziga xos xususiyati - bu mehnat munosabatlari shaxsiydir, ya'ni mehnat shartnomasi erkinligining rivojlanishi bilan xodimning mehnat munosabatlarini individuallashtirish rivojlanadi.

Respublikamizda kichik biznesni qo`llab-quvvatlash hamda tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoyalash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida bu tarmoq tobora mustahkamlanib, uning respublikamiz iqtisodiyotidagi o'rni, ish bilan ta'minlash va mahsulot ishlab chiqarishdagi salmog'i yildan-yilga oshmoqda. Kichik biznes shunday raqobatchilik muhitini shakllantiradiki, busiz bozor iqtisodiyoti rivojlanishini tasavvur ham etib bo'lmaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari davlat tomonidan har tarflama qo'llab-quvvatlanishlari natijasida jadal rivojlanib, o'z faoliyat ko'lamini muttasil kengaytirib bormoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shodibekova D. A., Shodibekov D.I.© "Tadbirkorlik va kichik biznes asoslari" (o'rta maxsus o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanma). – T.: , Iqtisodiyot 2013. 226 bet.
2. G'oyibnazarov B.K., Rahmonov H. O., Otajonov Sh.I., Almatova D.S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik - mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish omili. — T.: «Fan», 2011. — 185-b.
3. Boltayeva M., Suyunov A. Mustaqillik yillarida aholiga ijtimoiy-iqtisodiy xizmat korsatish strukturasini takomillashtirish //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 538-541.
4. Ilyos o'g'li, Suyunov Abbos. "RAQAMLI IQTISODIYOT: VUJUDGA KELISHI, SAMARADORLIGI, IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2022): 75-79.
5. Q.X.Abduraxmonov, B.X.Umurzakov, N.T.Shoyusupova, Z.J.Adilova. Ijtimoiy mehnat munosabatlari. Darslik. "IQTISODIYOT" 2019-yil 580 bet.
6. https://lex.uz/docs/5055690
7. https://review.uz/uz/post/ozbekistonda-yoshlar-tadbirkorligini-qollab-quvvatlash-va-rivojlantirishda-amalga-oshirilayotgan-islohotlar-samarasi

8. https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlar/yangilangan_qonunda_mehnat_munosabatlarining_zamonaviy_shakllari_aks_etadi
9. https://edu-torzhok.ru/uz/zhaloby/trudovye-pravootnosheniya-ih-vidy-i-soderzhanie-ponyatie-i-struktura-trudovogo/

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# ANALYSIS OF THE CONCEPT, ESSENCE AND SCIENTIFIC TRENDS OF THE DIGITAL ECONOMY

Sindorov Lutfulla[1]
Suyunov Abbos[2]
Suyundukov A'zimjon[3]

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

KEYWORDS

digital economy, trends, digitization, telecommunications, national digital economic system, informatization, information technology, programs, economic security

ABSTRACT

The article describes the definition of the digital economy concept, its essence and the trends of its development in our country. Also, the effect of reducing the human factor and improving quality with the help of digital technologies, as well as the impact of the development of the digital economy on the changes in the employment indicators of the population was considered.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7479640
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Head of the Master's Department, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[2] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[3] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA ILMIY TENDENSIYALAR TAHLILI

KALIT SO‘ZLAR:
raqamli iqtisodiyot, tendensiyalar, raqamlashtirish, telekomunikatsiya, milliy raqamli iqtisodiy tizim, axborotlashtirish, axborot texnologiyasi, dasturlar, iqtisodiy xavfsizlik

ANNOTATSIYA

Maqolada raqamli iqtisodiyot tushunchasining ta’rifi, uning mohiyati hamda uni mamlakatimizda rivojlantirish tendensiyalari yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida inson omilini kamaytirish va sifatni oshirishi, shuningdek, raqamli iqtisodiyot rivojlanishining aholi bandlik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga ta’siri ko‘rib chiqilgan.

Raqamli iqtisodiyot – bu nafaqt iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalarni qo‘llash asosida amalga oshirish tizimidir. Ba’zi zamonaviy olimlar raqamli iiqtisodiyni yangi iqtisodiyot, veb-iqtisodiyot yoki internet iqtisodiyoti degan termin-lar bilan ham ifodalanadi. Boshqacha aytganda raqamli iqtisodiyor bu yangidan boshlab yaratilishi lozim bo‘lgan iqtisodiyot eman. Bu yangicha texnologiyalar, loyihalar, modellar va dasturlar yaratish va ularni amaliyotga tadbiq etish orqali iqtisodiyotdagi mavjud muammolarga yechim toppish yoki ularni bartaraf etishni yangicha tizimga ko‘chirish deganidir.

Hozirgi kunda eng ko‘p muhokama qilinadigan va dolzarb masalalardan biri raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, shu bilan bir qatorda, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning eng yaxshi tajribalarini baholovchi tahlilchilar tomonidan ilmiy uslubiy materiallar va maqolalar tayyorlashda, barqaror rivojlanish shartlari va undan foydalanish samaradorligini baholashga alohida e’tibor berilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot tushuncha sifatida 1995-yili Massachusets universiteti professor olimi, amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte tomonidan amaliyotga kiritilgan. Olim axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini intensiv rivojlanishi ortidan eski iqtisodiyotdan yangi iqtisodiyotga o‘tishda, qanday o‘zgarishlar ro‘y berishi mumkinligini aytib o‘tgan. Hozirda ushbu tushunchadan butun dunyo siyosatchilari, iqtisodchilari, jurnalistlari, tadbirkorlari - deyarli barcha foydalanmoqda. Raqamli iqtisodiyot - bu xo‘jalik faoliyatini yuritish hisoblanadi. Bunda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishdagi asosiy omil raqamlar ko‘rinishidagi ma’lumotlar bo‘lib, katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash va analiz qilish yordamida har xil turdagi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish, saqlash, qurilmalar, mahsulotlarni yetkazib berishda oldingi tizimdan samaraliroq yechimlar tadbiq qilishdir. Boshqacha qilib ta’riflaganda, raqamli iqtisodiyot bu asosan onlayn xizmatlar ko‘rsatish, internet banking, onlayn o‘yinlar, internet savdo, elektron to‘lovlar amalga oshirish, kraudfanding va boshqa turdagi sohalarni raqamli kompyuter texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog‘langan faoliyatdir.

Dunyoning istalgan mamlakatiga qaramaylik iqtisodiyotni raqamlashtirishga harakat qilinmoqda, va bu harakatni rivojlangan mamlakatlar “Aqilli iqtisodiyot” yoki

“Innovatsion iqtisodiyot”ga o‘tayotgani bilan bog‘liqdir. Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda zamonaviy texnologiyalarga tayangan, raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarga katta ahamiyat berilmoqda. Raqamlashtirish davlat darajasiga ko‘tarilgan bo‘lib, bu borada turli xil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 25-maqsad deb “Raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirishga qaratilgan ishlarni olib borish” belgilangan.

Unga ko‘ra quyidagilar belgilab olindi:

- 2026-yil yakuniga qadar bank va moliya sohalarida ishlab chiqarish va operatsion xarajatlarni 70 foizga oshirish;
- asturiy mahsulotlar industriyasi hajmini 5 baravar, ularning eksportini esa 10 baravar oshirib, 500 million AQSh dollariga yetkazish.

Shumday bo‘lsa ham raqamli iqtisodiyotning барча тармоқлари iqtisodiyotning real sektorning rivojlanishi va iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ta’siri masalasi hali yetarlicha ochilmagan.

Tadqiqot ishidagi muammolarni o‘rganishda bir qator usullar, xususan, tahliliy va muammolarni sintez qilish usulidan foydalanildi. Faqatgina bu usullar bilan chegaralanib qolmasdan, tadqiqot ishiga oid ishlarni, fikrlarni tahlil qilishda induksiya va deduksiya usullari keng qo‘llanildi. O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi ma’lumotlarining tahlilida statistik ma’lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv usullaridan foydalanildi. Ishni mazmunini boyitish va unga xulosaviy fikrlarni berishda ilmiy abstraksiyalash kabi uslublardan samarali foy dalanildi.

Dunyo mamlakatlari kabi O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlanmoqda. Kundalik hayotimizga axborot texnologiyalarni tadbiq qilinishi ortidan oddiy insonlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Hozirga kunda uydan chiqmasdan ko'plab oziq-ovqat mahsulotlari va taomlariga buyurtma berishimiz, ularni uyimizgacha yetkazib berishlari mumkin. Lekin shuni ta'kidlash kerak-ki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot O'zbekiston potensialiga nisbatan bir necha barobar sekinroq rivojlanmoda. Ya'ni imkoniyat bor, kerakli resurslar mavjud lekin rivojlanish ancha sust. Bunga sabab sifatida raqamli iqtisodiyotni O'zbekistonda rivojlanishini bir qancha to'siqlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalarini rivojlanishi va hayotga tadbiq qilinishi evaziga kundalik hayotimizda juda ko'plab qulayliklar yaratilmoqda. Aytaylik uyda ovqat tayyorlashni xushlamaysiz, muammo yo‘q, internet orqali ovqat yetkazib berish xizmatiga onlayn buyurtma berishingiz yoki taksi xizmatlari orqali ovqat keltirib berishlarini so‘rashingiz mumkin. Yoki do‘stingizga pul o‘tkazishingiz lozim. Bank yoki moliya muassasalariga borib ovora bo‘lishga hojat yo‘q. Pulni onlayn pul o‘tkazish va to‘lov platformalari yoki ilovalar orqali o‘tkazishingiz mumkin. Shu kabi bir qancha xizmatlarni onlayn tarzda, smartfoningiz yoki kompyuteringiz orqali amalga oshirishingiz mumkin. Zamonaviy texnologiyalar va platformalarda ishlash mijozlar, hamkor va davlat tashkilotlari

bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlar segmentini qisqartirishga yordam beradi. Shuningdek, o‘zaro muloqot jarayonini tez va oson amalga oshirishga imkoniyat yaratmoqda. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo‘ldi.

So‘nggi o‘n yillikda butun dunyo bo‘ylab raqamli ma’lumotlarga asoslangan biznes modellaridan foydalangan holda ko‘plab raqamli platformalar paydo bo‘ldi va ular mavjud sanoat tarmoqlari o‘rnini egalladi. Platformalarning ustunligi shundaki, bozor kapitallashuvi bo‘yicha dunyodagi yetakchi sakkizta kompaniyaning yettitasi platformaga asoslangan biznes modellaridan foydalanishadi.

O‘zbekistonda zamonaviy texnologiyalarini rivojlantirish, zamon talablariga javob beradigan elektron davlat xizmatlari ko‘rsatishning yangicha tizimini yaratish, mansabdor shaxslarning aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmlarini joriy etish yuzasidan ilmiy ishlar olib borilyapti. Shunday masalalar bo‘yicha dolzarb bo‘lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqilishiga va amaliyotga joriy etilishiga Prezidentimizning 2018-yil 19-febraldagi “Axborot texnologiyalari va kom- munikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son Farmoni asos bo‘ldi. Farmonda bir qator vazifalar, shuningdek, “Raqamli O‘zbekiston” konsepsiyasini ishlab chiqish belgilab berildi. Davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlanti- rish uchun shart-sharoitlar yaratish, investi- siya muhitini yaxshilash, shuningdek, 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivoj- lantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Preziden- tining 2018 yil 3 iyuldagi “O‘zbekiston Respu- blikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlanti- rish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832- son, 2018 yil 2 sentabrdagi “Raqamli ishonch” raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-3927-son qarorlari qabul qilindi.

Raqamlashtirishni noldan qurish mumkin yoki mavjud biznes-jarayonini o‘zgartirish mumkin. Masalan, ko‘plab mahalliy banklar bu masala bo‘yicha yetakchilikka aylandi va murakkab, ammo AT ni o‘z muammolarini hal qilish uchun bosqichma-bosqich joriy qilmoqdalar. Bu erda texnologik kompetensiya va zarur infratuzilmaga ega bo‘lish, raqamli strategiyani ishlab chiqish zarurligini tushunish muhimligini ta’kidlash kerak. Ushbu omillarning mavjudligi yoki yo‘qligi va muayyan korxona/tashkilotning raqamli transformatsiyasi jarayonining samaradorligiga ta’sir qiladi.

Statistik ko‘rsatkichlar shuni ko‘rstadiki O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning YaIM dagi ulushi 2.2% ni tashkil qilar ekan. Dunyo bo‘yicha esa o‘rtacha muqobil ko‘rsatkich 7-8% ni tashkil qilar ekan. Masalan, Buyuk Britaniyada 12,4%, Janubiy Koreya-8%, Xitoy - 6,9%, Hindiston - 5,6%, Rossiyada – 2,8%, Qozog‘iston– 3,9% ni tashkil etadi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda zamonaviy ilmiy yondashuvlar va innovatsiyalar muhim hamda ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Qachonki davlatlarda raqamli iqtisodiyot rivojlanib borsa albatta YaIM hajmi va YaIMning aholi son boshiga ulushi ham oshib boradi. Shu jihatdan, davlatimiz rahbarining bu masalaga katta e’tibor qaratishidan

maqsad ham shu, ya'ni, avvalo, aholining turmush darajasini oshirish, so'ngra, aholining real daromadlarini ko'paytirish va ko'p nutqlarida aytganidek xalqimizni bizdan rozi qilishdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora – tadbirlari to'g'risidagi PF-6079 sonli farmoni.
2. Ш.М.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашри. Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2022. – 174-бет
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон Фармо- нига 1-илова.
4. Boltayeva M., Suyunov A. Mustaqillik yillarida aholiga ijtimoiy-iqtisodiy xizmat korsatish strukturasini takomillashtirish //Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 538-541.
5. Ilyos o'g'li, Suyunov Abbos. "RAQAMLI IQTISODIYOT: VUJUDGA KELISHI, SAMARADORLIGI, IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2022): 75-79.
6. G'.M. Porsaev, B.SH. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. –T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2004.
7. B.Shafarov, U.X.Narzullayev, N.R.Zaynalov, G'.M.Porsaev; Milliy iqtisodiyotda axborot tizimlar va texnologiyalar. O'quv qo'llanma// Samarqand: SamDU nashri, 2019, 272 b.
8. https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020
9. https://review.uz/oz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir
10. Raqamli iqtisodiyot: mutaxassislar ushbu atamani qanday tushunishadi [elektron manba] https:// news. rambler.ru/ economics/37159885/?utm_content=rnews&utm_medium=readmore&utm_source=copylink (murojat: 04/30/2018)
11. https://lex.uz/ru/docs/-5030957
12. https://stat.uz
13. https://zarnews.uz/uz/post/raqamli-iqtisodiyot-bizga-nima-beradi
14. https://mineconomy.uz/uz/node/2389
15. https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-raqamli-iqtisodiyotni-rivojlantirish
16. https://aniq.uz/uz/yangiliklar/raqamli-iqtisodiyot-nima
17. https://review.uz/uz/post/raqamli-iqtisodiyot-mamlakatimiz-taraqqiyoti-garovidir

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# EDUCATION OF AESTHETIC ABILITY ON THE BASIS OF FINE ART

Raximova Dilfuza Jurgunovna[1]

*5th school, Ohangaron city, Tashkent region*

KEYWORDS

art, worldview, culture, beauty, design, sophistication, society, taste, educational factors

ABSTRACT

Fine art lessons are of particular importance in the formation of students' spiritual worldview and ideological beliefs. It develops the ability to think, visual memory, creative imagination, artistic taste, and aesthetic sense. Each type of visual art lessons taught at school (drawing a picture based on the object itself, decorative painting, painting based on the theme, conversation about visual art) helps the growth of students' creative abilities and the formation of their worldview, that is, it makes a person perfect in every way. One of the main tasks of visual arts is to provide students with aesthetic, especially artistic education. Aesthetic education is the education of students' ability to fully perceive the beauty of life, nature, art, and society. Beauty affects the mind, heart, and will of people and enriches their spiritual outlook.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7482295
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher, 5th school, Ohangaron city, Tashkent region, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# TASVIRIY SAN’AT ASOSIDA ESTETIK QOBILIYATNI TARBIYALASH

KALIT SO‘ZLAR:
san’at, dunyoqarash madaniyat, go‘zalik, dizayn, nafosat, jamiyat, did, tarbiya omillari

ANNOTATSIYA

Tasviriy san'at darslari o'quvchilarda ma'naviy dunyoqarashni, g'oyaviy e'tiqodni shakllantirishda aloxida ahamiyat kasb etadi. U fikrlash qobiliyatini, ko'rish xotirasini, ijodiy tasavvurni, badiiy didni, estetik hissiyotni o'stiradi. Maktabda o'qitiladigan tasviriy san'at darslarining har bir turi (narsaning o'ziga qarab rasmini chizish, dekorativ rasm chizish, mavzu asosida rasm chizish, tasviriy san'at haqida suhbat) o'quvchilar ijodiy qobiliyatining o'sishiga, dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, ya'ni shaxsni har tomonlama kamol toptiradi. Tasviriy san'atning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarga estetik, xususan, badiiy tarbiya berishdir. Estetik tarbiya - bu o'quvchilarning hayotdagi, tabiatdagi, san'atdagi, jamiyatdagi go'zalliklarini to'liq idrok etish qobilyatini tarbiyalashdir. Go'zallik kishilarning aqliga, qalbiga, irodasiga ta'sir etib, ma'naviy dunyoqarashini boyitadi.

Prezidentimiz asarlarida san‘at va madaniyat dargohlarining o‘sib kelayotgan yangi avlod tarbiyasidagi o‘rniga alohida ahamiyat berilgan. Davr bilan hamnafas yashayotgan, hayot sinovlarida toblangan fidoyi insonlarhaqida hikoya qiluvchi asarlar bilan milliy madaniyatimizni boyitish zarurligi ta‘kidlangan. Bu vazifa san‘atkorlar uchun ham bevosita taaluqlidir.Ma’naviy hayotimizni, milliy ong va qadriyatlarimiz, e’tiqod vatafakkurimiz, urf-odat va an’analarimizni asrab - avaylash, ma‘naviy olamimizni yuksaltirish bevosita ijokorlar faoliyati bilan bog‘liq.

O‘zbek va chet el rassomlarining go‘zal asarlarini kim maroq, bilan tomosha qilmagan, ulardan zavq olmagan? Muzey va ko‘rgazmalarda atigibir marta bo‘lgan odam rassomlarimiz tomonidan yaratilgan go‘zal asarlarni tomosha qilishdan bahramand bo‘ladi albatta, ko‘ngliga o‘tirgan assarlarni yana bir bor ko‘rish maqsadida shoshiladi.O‘tmish va hozirgi zamon tasviriy san‘at asarlarini tomosha qilishni hammamiz ham yaxshi ko‘ramiz. Buning juda ko‘p sabablari bor.Shu o‘rinda mashho‘r rassomlardan birining shurday gaplari bor.

Ushunday degandi: «Biz san‘atni shuning uchun ham sevamizki, u insonnio‘rab olgan borliqning go‘zal tomonlarini ochib beradi, insonga kuch quvvat, sevinch baxsh etadi, uni ruhiy, ma‘naviy jihatdan boyitadi,hayotini zavq-shavqga to‘ldiradi. Biz san’at asarlarini shuning uchun ham qadrlaymizki, ular shoirona his - tuyg‘ularga boy bo‘ladi, rassom o‘zyurak haroratini, tuyg‘ularini kamyob, takrorlanmas, original, hayotiy bo‘yoqlar bilan ifoda etadi».Yuksak g‘oyaviy, mazmunli, xalqchil, yuksak badiiy mahorat bilan haqqoniy yaratilgan san‘atgina bizning aql hamda his-tuyg‘ularimizga ta‘sir etadi.

Yaqin o‘tmishdagi realistik san‘at namoyandalari ijodining eng muhim xususiyatlaridan biri shunda ediki, ular o‘z asarlarida xalq hayoti bilan chambarchas bog‘liq

bo‘lgan, xalqda o‘z kuchiga ishonch uyg‘otuvchi muhim mavzularni aks ettirardi.Rassomlarning faqat turmush emas, shuningdek tabiat manzaralari ham tasvir etilgan rasmlaridagi hayot haqiqati kishini qattiq hayajonga soladi. Ajoyib tabiat manzaralarini ko‘rar ekanmiz, rassomning quyidagi so‘zlarini eshitayotgandek bo‘lamiz: «Odamlar, qarang, biz yashayotgan olam qanday go‘zal, uni men kabi seving, ana shu muqaddas sevgi bilan uni o‘zingizga asir eting. Bu boqiy dunyoda undan bir umrga lazzatlaning, tinchlikni qadriga yeting, buyuk ishlarga belingizni mahkam bog‘lab olg‘a intiling».

O‘ral Tansiqboyevning —Jonajon o‘lka nomli asari seviml io‘lkamiz tabiatiga cheksiz mehr-muhabbat hissi bilan sug‘orilgan.Suratda baland tog‘ etaklaridan gul terayotgan bolalarni, ertalabgi quyoshning zarrin nurlari yoritib turgan cheksiz vodiyni o‘rab olgan qorli tog‘lar ponaramasini ko‘rar ekanmiz, ko‘z o‘ngimizda kishining irodasi va mehnati bilan bog‘u-bo‘stonga aylanayotgan O‘zbekiston yerlarining yorqin manzarasi gavdalanadi. O‘zbekistonning go‘zal tabiati O‘.Tansiqboyev ijodida markaziy o‘rinni egallaydi.Kasbidan qat‘i nazar, har bir odamni tasviriy san‘at orqali estetik qobiliyatini o‘stirish, uning estetik ehtiyojlarini qondirish jo‘da mo‘himvazifadir.Rassomlarimiz vatan va jahon progressiv san‘atiga suyangan holdao‘zining‘ chuqur g‘oyaviyligi, shaklining mo‘kammalligi, xalq turmushigabog‘liqligi bilan ajralib turuvchi san‘at yo‘lida dadil qadamtashlamoqdalar.Yangi kishini tarbiyalashda, xususan, estetik jihatdan tarbiyalashdasan‘atning roli katta.

O‘zida ilg‘or g‘oyalarni mujassamlantirgan mehnatsevar kishisirassomlarning eng sevimli va asosiy qahramonlariga aylanmog‘i kerak.Optimizm va hayotbaxsh g‘oyalar bilan sug‘orilgan zamon quruvchisiga xosolijanob fazilatlarni taraqqiy ettirishi va san‘at asarlari millionlabkishilarimiz uchun sevinch, ilhom manbai bo‘lib xizmat qilishi, uningirodasi, orzu-umidlarini, histuyg‘ularini ifoda qilishi, ularning hamg‘oyaviy, ham ma‘naviy o‘sishida kuchli bir vosita bo‘ladi.Xalqimizning san‘atga bo‘lgan qiziqishi, o‘z hayotini go‘zal qilishga, uniestetik jihatdan boyitishga bo‘lgan intilishi benihoyadir.

Yoshlarni estetik ro‘hda tarbiyalashda san‘atning roliga katta ahamiyatberiladi. Binobarin, San‘at ahllari oldiga shunday muhim vazifalarqo‘yilgan bir paytda, rassomlar ham bugungi qahramonlar haqida asarlaryaratish katta ahamiyatga ega. San‘atning ta‘sir kuchi xilma-xildir, u chindan ham mu‘jizalar yaratishi mumkin.Insonning san‘at asarlari ta‘sirida o‘z o‘y-fikrlarini va histuyg‘ularini chuqurroq tushunishga, teran fikr yuritishga, hayotda o‘z o‘rnini topib olishga, boshqalarni tushunishga, jamoa bilan barobar qadam tashlashiga yordam qilish zarurligini alohida o‘qtirish lozim.

Yaxshi estetik did — kishining chinakam go‘zal narsadan zavqlana olishi,mehnatda, turmushda, xulq-atvorda, san‘atda go‘zallik yaratish, uni tushunish qobiliyatiga ega bo‘lishdir. Madaniy saviyasi keng va chuqur bo‘lgan odam hayotiy voqealarga bir tomonlama emas, balki har tomonlama, mukammal estetik baho bera oladi.

Tomoshabinlarni san‘at asarlari bilan tanishtirish ularning bilim doirasini chuqurlashtiradi, hic-tuyg‘ulariga ta‘sir etadi va shaxsining tarkib topishiga yordam beradi.

Shunday qilib, insoniyat jamiyatida tasviriy san'atni o'qitish orqali bir qator ta'lim va

tarbiyaviy vazifalar amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayoni o'z o'rnida o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish imkonini beradi, ularning tevarak-atrof haqidagi tushunchalarini umumlashtiradi va chuqurlashtiradi. Shular asosida bolalarda materialistik dunyoqarash shakllantiriladi.

Tasviriy san'atni o'qitish realistik rasm chizishni o'rganish odamlarga qanday imkoniyatlar yaratishini atroflicha ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi. O'quvchilarga rasm chiza bilish har qanday ishda, har qanday mutaxassislikda qo'l kelishini tushuntirib berish kerak. Masalan: insonlarda yozishdan oldin chizish qobilyatining shakllanganligini (ibtidoiy davrdagi qoyatoshlardagi tasvirlar), xozirda tasviriy faoliyatning boshqa fanlarni tushuntirishda qo'llanilishi, teatr, kino, multfilm, arxitektura, mashinasozlik, o'yinchoqlar, o'quv qurollarini dizaynlari, kitoblarni badiiy bezash ishlarida, xona interyer dizayni va ishlab chiqarishning boshqa ko'pgina soxalarida qo'llanilishini kuzatishimiz mumkin. Tasviriy san'atning asosiy amaliy vazifalaridan biri o'quvchilarni real rasm chizish usullari bilan qurollantirishdir.

Xulosa o’rnida: Rangtasvir, grafika, haykaltaroshlikasarlari bilan tanishtirishda tarixiy voqealarni, badiiy asarqahramonining qiyofasini, uning tashqi muhit, alohida shaxs yoki ijtimoiyguruh bilan bo‘lgan munosabatini anglashga imkon beradi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Normatov N. —Ranglar yurtiga yo‘l||, T. Noshir – 2013 y.

2. Barziyev, O. (2021). Traditional Poetic Series Related to Detail Motivating to Enlighenment. International Journal on Integrated Education, 4, 12.

3. XUSANOVA, M. R. A. (2021). THE USE OF EXPRESSIVE PHONETIC MEANS IN FARIDA AFROZS WORKS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 642-645.

4. Xusanova, M. R. A. (2016). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНО-СТИЛИСТИЧЕСКИХ НЕОЛОГИЗМОВ-ПРИЗНАК СТИЛИСТИЧЕСКОГО СВОЕОБРАЗИЯ. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-1), 125-130.

5. Xusanova, M. R. A. (2021). THE USE OF ARCHAISM IN THE WORKS OF FARIDA AFROZ. Theoretical & Applied Science, (4), 252-254.

6. Zulfiya Marufova (2021). O‘ZBEK MUMTOZ SHE’RIYATIDA ZOONIMLAR VOSITASIDA GO‘ZALLIK IFODALASH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (3), 307-311.

7. Marufova, Z. (2021). РЕАЛИЗАЦИЯ ПОСРЕДСТВОМ ЗООНИМОВ ВЫРАЖЕНИЯ ВОСТОЧНОЙ КРАСОТЫ. Theoretical & Applied Science, (7), 13-16.

8. Barziyev, O. H. (2018). ANALYSES OF UZBEK POETRY AND TURKISH LITERATURE, IT’S FREEDOM AND NATIONALITY AT THE SECOND PART OF XIXTH CENTURY AND AT THE BEGINNING OF THE XXTH CENTURY. Theoretical & Applied Science, (7), 48-51.

9. Vapoyevna, N. U. (2022). METHODS OF DEVELOPMENT OF SPEECH COMPETENCES OF STUDENTS OF THE 8TH GRADE THROUGH TEXT TYPES. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 1242-1425.

10. Vapoyevna, N. U. (2022, May). THE USE OF MODERN METHODS IN THE DEVELOPMENT OF SPEECH COMPETENCES IN THE 8TH GRADE SYUENTS. In Conference Zone (pp. 278-279).

11. Хидиров, Х. Н. (2019). Philosophical Analysis of the Role of the Media in Shaping Civic Culture in Uzbekistan. Молодой ученый, (15), 322-324.

12. Toshmuratov. M. E. —Rangtasvir amaliyoti||, Uslubiy qo‘llanma. T.: —Chashma print||, 2010.

13. Xudayberganov R. «Kompozisiya». Toshkent.2004

14. Xaitov E, Sh. Jumaniyazov —Rangtasvir||, Uslubiy qo‘llanma. Toshkent.: Info Capital Group, 2018.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# CHANGES IN THE LEVEL AND DEGREE OF MINERALIZATION OF GROUNDWATER IN CENTRAL FERGANA

M. Isagaliev[1]
D. Mamatova[2]
B. Kuchkorov[3]
J. Mamatov[4]

*Fergana State University*

KEYWORDS
groundwater, salinity level, mineralization, salt concentration

ABSTRACT
In the article, using the example of irrigated soils in Central Fergana, the dynamics of changes in the level of groundwater and the level of mineralization, their influence on soil fertility was studied. The tendency to increase the level of groundwater and salt concentration was determined. It was revealed that very weak and low-mineralized groundwater affects soil fertility due to salinization.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7482302
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Fergana State University, UZB
[2] Fergana State University, UZB
[3] Fergana State University, UZB
[4] Fergana State University, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# МАРКАЗИЙ ФАРҒОНА СИЗОТ СУВЛАР САТҲИ ВА МИНЕРАЛИЗАЦИЯ ДАРАЖАСИНИНГ ЎЗГАРИШИ

KALIT SO‘ZLAR:
сизот суви, шўрланганлик даражаси, минерализация, тузлар концентрацияси

ANNOTATSIYA
Мақолада сизот сувларининг сатҳи ва минераллашганлик даражасининг ўзгариш динамикаси, уни тупроққа унумдорлигига таъсири Марказий Фарғона суғориладиган тупроқлари мисолида ўрганилган. Сизот сувлари сатҳи ва тузлар концентрацияси ортиб бориш тенденсияси аниқланган. Тупроқлар унумдорлиги шўрланиш ҳисобига пасайишида жуда кучсиз ва кучсиз минераллашган сизот сувлари таъсир этаётганлиги очиб берилган.

**Кириш.** Тупроқлар шўрланиши муаммоси йилига 0,3 дан 1,5 млн. гектар ерларни ишлаб чиқаришдан чиқиб кетишига ва 20-46 млн. гектаргача бўлган майдонларда ҳосилдорликни кескин камайишига сабаб бўлмоқда [1]. Шу сабабли бугунги кунга келиб тупроқлар шўрланишига қарши кураш, суғориладиган ерлар тупроқ-мелиоратив ҳолатини яхшилаш, сизот сувлари сатҳини бошқариш ва қишлоқ хўжалигини барқарор ривожлантиришга қаратилган илмий асосланган тадбирларни ишлаб чиқиш муҳим вазифалар қаторидан жой олади.

Дунёда сизот сувларнинг сатҳи ва минераллашганлик даражаси аниқлаш, деҳқончилик ишларини самарали ташкил этишда сизот сувларининг сатҳи ва минераллашганлик даражаси инобатга олиш, тупроқларнинг шўрланиши ва экинларнинг ҳосилдорлигини камайиши, айрим ҳолларда ўсимликларнинг (ғўза ва ғалла) нобуд бўлишига қарши чора-тадбирларни ишлаб чиқиш долзарб тадқиқотлардан ҳисобланади.

Марказий Фарғона ҳудудида суғориш сувининг танқислиги ёки вегетация даврида сувнинг етишмаслиги кузатилади, бу эса экинлар (ғўза ва ғалла) ҳосилдорлигига сезиларли салбий таъсир кўрсатади [2]. Шу билан бирга тупроқ хоссаларига ва бу хоссалар орқали унумдорлигига, экинлар ташқи морфологик белгилари, ҳосилдорлиги, ҳосил миқдори ва сифатига таъсир этувчи омил тариқасида минераллашган сизот сувлари таъсирини ҳам келтиришимиз мумкин [3].

Сўнгги йилларда бир қатор мелиоратив тадбирлар, хусусан сув тежовчи иншоотлардан кенг фойдаланиш, илмий асосда тупроққа ишлов бериш натижасида суғориладиган майдонлардан юқори ҳосил олишга, тупроқ унумдорлигини оширишга эришилмоқда. Шунга қарамасдан Марказий Фарғона узоқ йиллар давомида пахта ва ғалла етиштириш бўйича вилоятнинг ҳосилдорлиги нисбатан паст ҳудудларидан бири бўлганлиги сабабли, техник экинларнинг ҳосилдорлигини, тупроқ унумдорлигини ошириш учун бир қанча тадбирлар амалга оширишни талаб этмоқда [4]. Ушбу тадбирлар аввало тупроқларнинг ҳолатига кўра ғўза, ғалла ҳосилдорлиги кам ерларда сабзавот ва полиз экинлари етиштиришни

ривожлантириш, мелиоратив ҳолати қониқарсиз майдонларда эса балиқчиликка ихтисослашган хўжаликлар ташкил этиш бўйича бир қанча чора-тадбирлар асосида амалга оширилмоқда. Бу эса ўз навбатида етакчи ғўза ўсимлиги парваришланадиган майдонлар камайишига олиб келмоқда.

**Тадқиқот усуллари.** Сизот сувларидаги сувда осон эрувчи тузлар миқдори сувли сўрим усулида, бунда: қуруқ қолдиқ - буғлантиб қуритилган чўкмани тортиш усулида амалга оширилди. Сизот сувлари сатҳини дала шароитида кузатув қудуқларида

**Тадқиқот натижалари.** Марказий Фарғона шароитида ғўза экинининг мавсумий суғориш меъёри гектарига тупроқ физик хусусиятига боғлиқ ҳолда 7000-9000 м$^3$ ни ташкил қилади. Тупроқ механик таркиби ўрта қумоқ бўлганда сизот сувлари сатҳи 2,5 метргача жойлашса, ундан ўсимликларнинг сувга бўлган эҳтиёжини 30% таъминлайди, суғориш суви меъёрини ҳам 5500-6000 м$^3$/га камайтириш мумкинлигини кўрсатади. Сизот сувларининг сатҳи 3 метр ва ундан пастда жойлашса ўсимликларнинг сувга бўлган эҳтиёжини таъминлашда иштироки кескин камайиб кетади [5].

Сизот сувларининг минераллашганлик даражаси 3 г/л дан ошса, ўсимликларнинг сувга бўлган эҳтиёжини сизот сувлари ҳиссаси ҳисобидан қондириб бўлмайди. Сизот сувларининг минераллик даражаси 3 г/л дан юқори бўлган сув билан суғориш ёки сизот сувларининг сатҳини сунъий кўтариш (субирригация) орқали қопланса тупроқ шўрланиши ортади, бу эса тупроқ эритмасининг осмотик босимини ошириб ўз навбатида ўсимлик ҳужайра ширасининг осмотик босимидан катталиги ҳисобига тупроқ эритмасидан озиқ-моддаларни ўсимлик ўзлаштира олмайди ва пировардида ўсимлик нобуд бўлади [6].

Адабиёт манбаларида ғўза илдизининг сўриш кучи 10-15 А, шўрланган тупроқларнинг тупроқ эритмаси 50-200 А бўлади деб кўрсатилган. Шўрланган сувлар тупроқнинг физик, умумий физик ва физик-механик хоссаларини ҳам ёмонлашишига олиб келади [7].

В.А.Ковда шўрланган тупроқларни ўрганиб, шўр тупроқларнинг тарқалиш ареаллари, географияси, генезиси, хоссалари ва мелиорациясига оид жуда кенг ва мукаммал маълумотлар берган. У Марказий Фарғонани тупроқларини хлорид-сульфатли туз тўпланиш провинциясига хослигини таъкидлаб, сизот сувлари химизмига кўра сульфат-магний-кальций-натрийли вилоятига киритган [8]. Бу биз тадқиқот олиб борган ҳудудда ўз тасдиғини топди.

Марказий Фарғонада суғориладиган дала майдонлари 2022 йил ҳолатига кўра 20449 гектарни ташкил этади. Шундан: 1247 гектар ёпиқ-ётиқ зовурлар, 299 гектар тик зах қочириш қудуқларини ташкил этади. 108 та сизот сувлар сатҳини кузатиш қудуқлари ва уларга боғланган майдон 13792 гектарни ташкил этади. Ҳудуднинг тупроқ шўри аниқланадиган майдони жами суғориладиган майдонни ташкил этиб, баҳор ва куз ҳолатига тупроқ шўрини аниқлаш учун тупроқ таянч нуқталаридан

таҳлил учун намуналар олинди. Сизот сувлар сатҳи вегетация даврида 2021 йил ҳолатига 1,0-1,5 м гача бўлган майдон 883 гектарни, 1,5-2,0 м гача бўлган майдон 14433 гектарни, 2,0-3,0 м гача бўлган майдон 4961 гектарни ҳамда 3,0-5,0 м гача майдон 172 м гектарни ташкил этди. Қуйидаги жадвалда сўнги 5 йиллик вегетация даври сизот сувлар сатҳини ўзгаришини кўриш мумкин.

1-жадвал.

Марказий Фарғона сизот сувлари сатҳининг ўзгариш динамикаси, гектар ҳисобида

| № | Йиллар | Сизот суви сатҳи, м | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 0-1,0 | 1,0-1,5 | 1,5-2,0 | 2,0-3,0 | 5,0-10,0 |
| 1. | 2017 | - | 149 | 15763 | 4475 | 81 |
| 2. | 2018 | - | 176 | 15227 | 4949 | 116 |
| 3. | 2019 | - | 591 | 14839 | 5019 | - |
| 4. | 2020 | - | 395 | 14404 | 5508 | 142 |
| 5. | 2021 | - | 883 | 14433 | 4961 | 172 |

Юқоридаги жадвалда кўриниб турибдики, 5 йиллик кузатишлар натижасида Марказий Фарғонада сизот сувлар сатҳи 1,0-1,5 м бўлган майдонлар вегетация даврида йилдан йилга кўтарилаётганлигини кузатиш мумкин. Ўсиш тенденсияси сув сатҳи 1,0-1,5 м сизот сувлари ҳисобига кузатилди ва 2017 йилга нисбатан 2021 йилда 5,9 баробарга кўп.

Сизот сувлар минераллик даражаси эса қуйидаги жадвалда кўриб ўтамиз.

2-жадвал.

Марказий Фарғона сизот сувлари минерализациясининг ўзгариши (гектар)

| № | Йиллар | Сизот сувлари минерализацияси, г/л | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 0-1,0 | 1,0-3,0 | 3,0-5,0 | 5,0-10,0 |
| 1 | 2017 | 680 | 19675 | 113 | |
| 2 | 2018 | 811 | 19564 | 93 | |
| 3 | 2019 | 676 | 19657 | 116 | |
| 4 | 2020 | 540 | 19644 | 205 | 60 |
| 5 | 2021 | 210 | 19832 | 407 | |

Келтирилган жадвал маълумотлари шуни кўрсатадики, сизот сувлари минерализация даражаси паст, яъни суғоришга яроқли сизот сувлари майдони кўпчиликни ташкил қилади. Лекин ачинарли ҳолат суғориш учун нолойиқ майдонлар улуши (кучсиз ва ўртача минераллашган ерлар) 4 баробарга яқин майдонга ошиб бориши кузатилди.

**Хулоса.** Сизот сувлари сатҳи 1,5-2,0 м бўлган майдон энг катта майдонни ташкил этиб, 5 йиллик кузатувлар натижасида 14404-15763 гектар оралиғида тебранади. Марказий Фарғонада сизот сувлари минерализацияси 1,0-3,0 г/л бўлган майдон кўпчиликни ташкил этиб, сув танқислик вақтларида суғориш мақсадида

фойдаланиш мумкин. Тупроқ унумдорлигини ошириш учун бу ҳудудларда коллектор-дренаж тармоқлари ишчи ҳолатни яхшилаш, сизот сувлар сатҳи ва минерализация даражасини пасайтириш каби мелиоратив тадбирлар олиб бориш керак. Натижада тупроқ шўрланиши сезиларли даражада камаяди, тупроқ унумдорлиги яхшиланади ва ниҳоят қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилдорлигини ошириш имкони яратилади.

**Адабиётлар**

1. https://www.fao.org/soils-portal/soil-degradation.

2. Юлдашев Г., Зокирова С., Исагалиев М. Орошаемый земельный фонд Ферганской долины. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. – Т., 2008.

3. Yuldashev G‘., Isag‘aliyev M., Raximov A., Azimov Z. Sho‘rlangan tuproqlar pedogeokimyosi va tadqiqot usullari. //FarDU. Ilmiy xabarlar. №1, Farg‘ona, 2022. 50-55 b.

4. Исагалиев М. Геохимические особенности орошаемых почв Сохского конуса-выноса: дисс. на соис. уч. степени канд. биол. наук. – Т., 2010. 120 с.

5. Yuldashev G‘., Zokirova S., Isag‘aliyev M. Tuproq melioratsiyasi. T., Universitet nashriyoti. 2014. 104 b.

6. Юлдашев Г., Исагалиев М., Солиев А., Солиева С. Влияние поливов минерализованными водами на свойства гидроморфных легких почв пустынной зоны. // “Проблемы рекультивации отходов быта, промышленного и сельскохозяйственного производства”. V Международная науч. экол. конф. /сост. В.В.Корунчикова; под ред. И.С.Белюченко. – Краснодар: КубГАУ, 2017. С. 800-803.

7. Исағалиев М., Эшпулатов Ш. Ер ости сувларининг экомелиоратив хусусиятларини ўқитишга доир. // “Фарғона водийсида сув ресурсларидан самарали фойдалинишнинг геоэкологик жиҳатлари” республика илмий-амалий анжуман материаллари. Фарғона, 2013. 76-78 б.

8. Ковда В.А. Происхождение и режим засоленных почв. – М.-Л: т. I-II. 1946-1947.

9. Ихтиёр Бахтиёрович Хамрақулов (2021). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ БАРПО ЭТИШ ВА РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. Scientific progress, 2 (7), 586-592.

10. Ихтиёр Бахтиёрович Хамрақулов (2022). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ҲУСУСИЯТЛАРИ. Scientific progress, 3 (1), 328-334.

11. Хамракулов, И. Б. (2021). Теоретические основы создания и развития малых промышленных зон. ма, 2, 49.

12. Хамрақулов Ихтиёр Бахтиёрович (2022). КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИ ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ СТРАТЕГИК ИМКОНИЯТЛАРИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2 (Special Issue 2), 140-146.

13. Zokirova, S. X., Akbarov, R. F., Isagaliyeva, S. M., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Sand Distribution In Central Fergana. The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research, 3(01), 113-117.

14. Zokirova, S. X., Ahmedova, D., Akbarov, R. F., & Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Light Industry Enterprises In Marketing Activities Experience Of Foreign Countries In The Use Of Cluster Theory. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(01), 36-39.

15. Хонкелдиева, К., Рахимова, Х., & Абдусатторова, З. (2020). Проблемы развития социального обеспечения населения. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 42-43).

16. Хонкелдиева, К., & Мўйдинжонова, М. (2020). Необходимые условия обеспечения гендерного равенства. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 40-41).

17. Хонкелдиева, К., & Муйдинжонова, М. (2020). Актуальные проблемы решения безработицы в Республике Узбекистан. In Наука сегодня: фундаментальные и прикладные исследования (pp. 18-19).

18. Хонкелдиева, К., & Хўжамбердиев, Ж. (2020). Проблемы развития организации: управленческий и логистический аспекты. In Наука сегодня: история и современность (pp. 17-19).

19. Xonkeldiyeva, K. R. (2021). Features of management of textile industry enterprises based on the cluster approach. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 780-783.

20. Зокирова, С. Х., Халматова, Ш. М., Абдуллаева, М. Т., & Ахмедова, Д. М. (2020). ВЛИЯНИЕ ПИТАТЕЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ ИСКУССТВЕННОГО И ЕСТЕСТВЕННОГО ЭКРАНОВ В ПЕСКЕ НА РОСТ, РАЗВИТИЕ ХЛОПЧАТНИКА. Universum: химия и биология, (12-1 (78)), 14-18.

21. Zokirova, S. X., Akbarov, R. F., & Kadirova, N. B. (2020). XARAKTERISTIKA GALECHNIKOVЫX POCHV FERGANSKOY OBLASTI I IX PUTI K ULUCHShENIYU. Glavniy redaktor, 8.

22. Закирова, С. Х. (2017). Научные основы генезиса, агрофизических и агрохимических свойств, повышения производительной способности песков Центральной Ферганы. Дисс. на соис. уч. степени доктора с. х. наук (DSe), 120.

23. Zakirova, S., Ismoilova, S., & Parpiyeva, S. (2021). Agrofizicheskiye svoystva pochvi Sentralniy Fergani.

24. Юлдашев, Г., Зокирова, С., & Исагалиев, М. (2008). Орошаемых земельный фонд Ферганской долины. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали.–Тошкент, (8), 22-23. 2.

25. Barziyev, O. (2021). Traditional Poetic Series Related to Detail Motivating to Enlighenment. International Journal on Integrated Education, 4, 12.

26. XUSANOVA, M. R. A. (2021). THE USE OF EXPRESSIVE PHONETIC MEANS IN FARIDA AFROZS WORKS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 642-645.

27. Xusanova, M. R. A. (2016). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНО-

СТИЛИСТИЧЕСКИХ НЕОЛОГИЗМОВ-ПРИЗНАК СТИЛИСТИЧЕСКОГО СВОЕОБРАЗИЯ. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-1), 125-130.

28. Xusanova, M. R. A. (2021). THE USE OF ARCHAISM IN THE WORKS OF FARIDA AFROZ. Theoretical & Applied Science, (4), 252-254.

29. Zulfiya Marufova (2021). O‘ZBEK MUMTOZ SHE’RIYATIDA ZOONIMLAR VOSITASIDA GO‘ZALLIK IFODALASH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (3), 307-311.

30. Marufova, Z. (2021). РЕАЛИЗАЦИЯ ПОСРЕДСТВОМ ЗООНИМОВ ВЫРАЖЕНИЯ ВОСТОЧНОЙ КРАСОТЫ. Theoretical & Applied Science, (7), 13-16.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# THE EVENT OF EUPHEMISM AND ITS FUNCTIONS IN SPEECH

Khaydarova Shoira[1]
Mamaradjabov Yokubjon Umidovich[2]

*Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan*

KEYWORDS
phenomenon of euphemism, expressed speech, linguistic units, language layer

ABSTRACT
The article examines what euphemism is, as well as opinions about its origin and use. For a word to work as a euphemism, its interpretation must remain ambiguous to the listener. They interpret it literally or euphemistically. This article talks about the function of euphemism in speech.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7484256
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB
[2] Student, Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan, UZB

The use of euphemisms is present in everyday life. For example, when layoffs occur, you hear about "strategic reduction of the workforce." If there is an increase in fuel prices, the government "gasoline price correction" says that it is included. You will come across some different concepts that mean terms that hide social truths are coming into the world. Words that evoke euphemisms, incoherence, or slurs and fill your vocabulary with euphemistic terms that you use many times without even realizing what you're expressing[1].

A euphemism is a good speech in Greek - a phrase or expression that uses words that are inappropriate, ignorant, rude, in place of another language unit that is synonymous;

The main purpose of euphemisms is to extract the essence of the event from life in order to shed light on the event. Euphemism is manifested by the types of means to a certain characteristic.

Euphemism is a renaming phenomenon that takes place in the discourse layer of the language and is characterized by the formation of a series of stylistic semantics in the full sense. It is the nation's ethical-aesthetic taste, national spirit, elegance and femininity, and reflects the uniqueness of the culture of behavior. The use of euphemisms in artistic, scientific, colloquial ways with the meanings "pretentious", "respectful", "exalted" indicates the wide potential of the language. It is especially important that about 300 variants of death-related euphemisms have been found in the Uzbek language. This makes it possible to use them in a variety of situations, texts and times, and also leads to the refinement of speech [2].

1. Evaluation of the designated word and its purpose can be recognized as sharp, dirty.

2. Choosing to speak softly and politely, omitting every given phrase.

Dependence of use on the context and in the context of the speech: the state of the speech and self-restraint of use.

3. From euphemism knowledge, euphemisms are more likely to appear, and vice versa, in weakly controlled speech situations and with high speech automation (family communication, with friends, etc.), euphemisms are preferred over "direct", non-euphemistic means possible Thus, the main goal of the speech should be to avoid communicative conflicts and not to create a feeling of communicative discomfort in the listeners [3].

Materials and methods: Political euphemisms in English are divided into different groups: the number of words, as well as the places of use (topics).

1. The first group is a single word - euphemism. a) For example, a prisoner (imprisoned) - restricted liberty, execution of a sentence;

b) adjectives: disabled people - a term related to people with physical or mental disabilities (Disability is a term used to describe people with physical or mental disabilities); private property confiscated by the state (confiscated - private property confiscated by the

state);

2. A two-word euphemism. a) For example, adjectives and nouns: nuclear intent is a policy of dealing with nuclear weapons (nuclear intent is a policy of dealing with nuclear weapons), means of protection - prison - imprisonment; b) two nouns: taxes - taxpayers (to the state) (taxpayers to the state); c) noun and verb: money laundering tool - the money in which the illegal activity is carried out is exchanged. (Money laundering is the realization of illegally obtained money)[4].

In terms of usage, political euphemisms in English are mainly divided into several topics: war and nuclear weapons, taxation, illegal activities, and political regimes. In English, the following areas of political euphemisms include officials and their activities, such as managed democracy; 2) military operations and their participants, for example, depriving the territory of the meaning of physical absence; 3) economic methods and their followers, for example, prices liberalization, free prices, price increases; 4) For example, the importance of the Uzbek ethnic groups of Afghanistan and the various national and social groups among visitors from the Afghan region. Euphemistic or special terminology can be used not only in the field of professional communication, but also from a political point of view, comparing the Uzbek and English languages in daily use.

Speakers of extreme measures, confrontation (when talking about war), at the highest level (about the death penalty) in English we can respond to the following euphemisms: to destroy (instead of killing) blue -conflict (war instead of war). Studying the euphemistic analysis of political speech, you can draw several conclusions. Political euphemisms go beyond simple lexical devices to hide something unpleasant or hidden, and are the most powerful means of influencing the audience to evoke the idea of some action.

was one of the tools. They help to create a positive or negative image of politics, to justify certain actions and decisions, to attract the electorate to their side and others more. Political euphemisms are in the hands of political figures, they convey their goals and ideas to the listeners in Uzbek and English. Euphemisms in political speech have similar functions in Uzbek and English, and are also compatible in some areas of use.

Unlike the neutral language of scientific and technical text, the language of newspapers is often emotionally saturated, which brings it to the language of fiction. We meet in it figurative comparisons, metaphors, jokes, jokes, movies, irony and other elements, but the newspaper article usually has a certain political orientation. All this puts additional tasks before the translator of socio-political text. In addition to the original state of the content, the complete broadcast of the newspaper material must convey the clear content, convey to the readers and all the emotional elements attached to the original, as well as the political direction.

In conclusion, the relevance of the study of social and political terminology is not only to introduce existing lexical units and their incoming equivalents into the system, but also at the current stage, it shows that the terminology is formed in the national mass media, under the influence of the English-language press, they are in the sources of language

substitution, violation of national languages and perception of information difficulties are reflected. Every year, languages are replenished with thousands of new words, changes at the level of the vocabulary of socio-political topics reflect the processes of social development. The purpose of this article is to analyze the structural forms of political euphemisms in Uzbek and English languages in order to determine the most effective and common forms of political euphemisms, as well as the specific characteristics of terminological changes.

Euphemisms They are terms to plan things that we want to express but may sound a bit crude or crude to others. For example: dismissal (dismissal).

Then euphemisms have the power to mitigate or renew a derogatory or insulting charge, which some words may have. We must apply it to sexual, physiological, or eschatological matters, and to any pernicious or gross truth that escapes naming.

The journey from euphemisms thus deals with the great taboo subjects of humanity. In the so-called "Political Aid Correct" discourse, many euphemisms related to race or ethnicity, social, age, and even physical disability were established.

Features of euphemisms

• Euphemism cannot be replaced by any other word in a way that fully preserves the same cognitive, methodological and social effects. This happens because there are almost no strict and absolute synonyms in Spanish.

• A word can act as a euphemism, if its interpretation is unclear on the part of the listener, he interprets it literally or euphemistically.

• When a euphemism is used widely, it is more like a synonym than a euphemism.

• Euphemisms can only be defined in the context in which they are uttered, and their understanding depends on several factors, including the knowledge, social practices and beliefs of the interlocutors involved in the linguistic exchange.

**List of used literature:**

1. Kazyullina (Sokolova), M.A. Political operational description of the political term /m Kazyulin // 2010 at the Faculty of Foreign Languages of the Moscow State Pedagogical University - 2011 - M.: Mil. p. 72-74.

2. Vinogradov V.V. Unraveling the word // Terminology questions. Proceedings of the United Terminology Meeting. 1961.

3. Grinev-Grinevich S.V. Research terminology. Fourth version. High. Studies. Vehicles / C.V. Grinev-Grinevich. - "Academy" publishing center, 2008. b.304.

4. Liechik V.M. Terminology: Subject, methods, structure. Ed. 3rd m.: LCA Publishing House, 2007.

5. Burkhanovna, K. D., Alisherovich, M. R., & Ugli, N. B. U. (2021). Communication as the main source of personality development. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 75-80.

6. Murotmusayev, K., & Nizomov, B. (2022). Internet tarmog‘ida yolg‘izlik va psixik jarayonlar. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish

tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar, 1(1), 457-460.

7. Nosirovich, A. N., & Umarovich, N. B. (2022). CYBERSPACE IN THE REAL WORLD. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 1(10), 410-414.

8. Sharafitdinov Abdulla, Yuldasheva Sojida Zoyirovna. (2022). ZAMONAVIY AXBOROTLASHTIRISH JARAYONLARINING SHAXS INDIVIDUAL XUSUSIYATLARIGA TA'SIRI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 1(2), 432–436.

9.Tohirovna, X. S. (2022). IMPORTANCE OF MODERN MULTIMEDIA TOOLS IN TEACHING ENGLISH PRONUNCIATION. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 303-305.

10.Tohirovna, X. S. (2022). EFFECTIVE WAYS TO TEACH ENGLISH PRONUNCIATION TO ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 539-540.

11.Xaydarova, S. (2021). INGLIZ VA O'ZBEK BADIIY ASARLARIDA UCHRAYDIGAN EVFEMIZMLARNING QIYOSIY VA TARJIMAVIY TADQIQI. Архив Научных Публикаций JSPI.Xaydarova, S. (2022). A

12.EVFEMIZMLARNING TILSHUNOSLIKDA O 'RGANILISH TARIXI: EVFEMIZMLARNING TILSHUNOSLIKDA O 'RGANILISH TARIXI. Журнал иностранных языков и лингвистики, 4(4).

13.Xaydarova, S. (2021). CHET TILI FANLARINI O" QITILISHIDA INNOVATSION METODLAR. Архив Научных Публикаций JSPI.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# USE OF NONWOVEN MATERIALS IN THE PRODUCTION OF SEWING ITEMS

Turdiyev Maxmudjon[1]

Abduraximova Manzura[2]

*Fergana Polytechnic Institute*

KEYWORDS

non-woven materials, production history, light industry, special clothing, secondary raw materials, production methods, mechanical technology, physico-chemical technology, double technology, sewing and knitting, non-thread binding, needle punching, pressing, hot bonding, adhesive bonding, welding technology, cheap products, heating materials, household products

ABSTRACT

This article covers information about the production technologies of non-woven materials made from secondary raw materials, which are developing in the field of light industry, and the areas for which these materials are used.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7484368
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Senior Teacher, Fergana Polytechnic Institute, UZB (mahmudjon.turdiyev@mail.ru)
[2] Assistant, Fergana Polytechnic Institute, UZB (manzuraabduraximova5@gmail.com)

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# NOTO‘QIMA MATERIALLARDAN TIKUV BUYUMLARINI ISHLAB CHIQARISHDA FOYDALANISH

KALIT SO‘ZLAR:
noto’qima materiallar, olinish tarixi, yengil sanoat, maxsus kiyim, ikkilamchi xomashyo, ishlab chiqarish usullari, mexanik texnologiya, fizik-kimyoviy texnologiya, qo‘shaloq texnologiya, tikib-to‘qish, ipsiz bog’lash, igna san-chish, presslash, qizitib bog’lash, yelimli bog’lash, payvandlash texnologiyasi, arzon mahsulot, isituvchi materiallar, maishiy mahsulotlar

ANNOTATSIYA

Bu maqolada yengil sanoat sohasida rivojlanib kelayotgan ikkilamchi homashyolardan tayyorlangan noto‘qima materiallarining ishlab chiqarilish texnologiyalari va bu materiallardan qanday maqsadlarda foydalanish sohalari haqidagi ma’lumotlar yoritilgan.

Kirish. To‘qimachilik sanoatida ishlab chiqariladigan materiallarning turlari juda ko‘p bo’lib, ular to‘qima-materiallar, trikotaj va noto‘qima materiallar guruhlariga bo‘linadi. Har bir turdagi materialni ishlab chiqarish uchun ma‘lum ko‘rinish va xossalarga ega bo‘lgan xomashyo ishlatiladi. Ushbu nuqtai nazardan noto‘qima material ishlab chiqarish texnologiyasi avvalgilardan farqlanadi.

Ma’lumki gazlama, trikotaj materiallar va buyumlar tayyorlash uchun ip asosiy xom ashyo hisoblanadi. O‘z navbatida xomashyoni mato ishlab chiqarish uchun talab etilgan sifatda tayyorlash lozim. Ipni yigirish va to‘qishga tayyorlash bosqichlarini hisobga olganda to‘qima materiallar ishlab chiqarish uzoq davom etadigan, ko‘p bosqichli jarayon hisoblanadi.Odatda noto‘qima materiallar tolalar, iplar, to‘qima materiallar yoki polimer qatlamlardan iborat bo‘lib, ularni o‘zaro bog‘lash yoki maxsus bog‘lovchi moddalar yordamida yelimlab biriktirish usullari bilan olinadi. Shuning uchun bir yoki bir necha turdagi to‘qimachilik mahsulotlari, yoki ularni to‘qimachilikda tayyorlanmagan materiallar bilan birgalikda bog‘lovchi elementlar yordamida biriktirib hosil qilingan materiallarni noto‘qima materiallar, deb,aytish mumkin.

Asosiy qism.Noto‘qima matoning asosini tashkil etuvchi elementlarni tayyorlash ko‘p bosqichli bo‘lmagani uchun, hamda bog‘lash usullari mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni keng joriy etish imkonini bergani uchun ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘ladi.To‘quvchilikni noto‘qima materiallar texnologiyasi bilan almashtirilganda turli ishlab chiqarish usullarida ishchi kuchi sarfi 2-6 marta, kapital xarajatlar 2-4 marta kamayadi va ishlab chiqarish maydoni 1,2-4 marta qisqaradi.Ko‘rib o‘tilgan afzalliklar noto‘qima materiallar ishlab chiqarishni to‘qimachilik materiallari tayyorlashning boshqa texnologiyalari bilan raqobatlasha olishini ko‘rsatadi[1-6].

Yaqin vaqtgacha notoʻqima materiallarni ishlab chiqarish asosan AQSH, Gʻarbiy Yevropa va Yaponiyada jamlangan edi.XX asr oxirida bu materiallarni Osiyo mamlakatlarida ham ishlab chiqarish rivojlandi.Notoʻqima materiallar ishlab chiqarish sanoat miqyosida XX asrning oʻrtalarida shakllana boshlangan boʻlsada, uning asosi ancha oldinroq yaratilgan.Jumladan, oddiy hunarmandlar tomonidan qadimdan tayyorlanib kelingan namat,xalq tilida kigiz deb nomlanadigan mah-sulot amalda jun tolasidan olingan birinchi notoʻqima mato hisoblanadi [2-7].

Notoʻqima materiallarni tasniflashda ishlab chiqarish usuli, ishlatiladigan xomashyo turi, mahsulotni qanday maqsadda ishlatilishi kabi koʻrsatkichlar belgilovchi omillar sifatida asos qilib olinishi mumkin. Notoʻqima materiallarning oʻziga xos boʻlgan hajmiy zichligi, havo oʻtkazuvchanligi, namlikni oʻziga shimib olish darajasi, qattiqligi, issiqlik va tovushni toʻsib qolish xossalari, egiluvchanligi, tarkibini bir tekisdaligi, arzonligi ulardan foydalanish koʻlamini va maqsadini belgilaydi.Ularni texnik, maishiy va tibbiy maqsadlar uchun ishlab chiqariladi.

Ishlab chiqarish usullarini tasniflash turli mamlakatlarda turlicha qabul qilingan. Biz asos qilib oladigan tizimga koʻra notoʻqima materiallar ishlab chiqarish texnologiyasi kompleksi uchta asosiy guruhga: mexanik, fizik-kimyoviy va qoʻshaloq texnologiyaga boʻlinadi. Har bir texnologiya mahsulot ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladigan qayta ishlash, tayyorlash usullari, xomashyoning holatini, xossalarini,koʻrinishini oʻzgartirish jarayonlarining oʻziga xos yigʻindisi-dan iborat ishlab chiqarish usullariga boʻlinadi (1.1-rasm).

Mexanik texnologiya tashkil etuvchi elementlarni iplar yoki tolalar bilan bogʻlab, ular oʻrtasida ishqalanishni vujudga keltirish yoʻli bilan notoʻqima material hosil qilishga asoslangan.Ushbu texnologiya tikib-toʻqish va igna sanchish usullarini oʻz ichiga oladi.Tikib-toʻqish usulida materialning asosini tashkil etuvchi boʻlgan tolalar toʻshamasini iplar yoki tolalar bilan tikib-toʻqilgan materiallar,sirtida halqa shaklidagi tuklar hosil qilingan materiallar ishlab chiqariladi.Igna sanchish usulida tolalar qatlamidan yoki tolalar toʻshamasini gazlamalar bilan qoʻshib materiallar ishlab chiqariladi.

Fizik-kimyoviy texnologiya materialni tashkil etuvchi asosiy elementlarini bogʻlashda fizik yoki kimyoviy hodisalardan foydalanishga asoslangan. Bunda bogʻlovchi vazifasini bajaruvchi qoʻshimcha moddalar yoki aralashmalar asosiy tashkil etuvchidan molekulyar tuzilishi va tarkibi bilan farqlanadi. Barcha bogʻlovchilar tashkil etuvchi asosning diskret elementlari bilan qoʻshilishdan soʻng quritish va termik ishlov berish jarayonlarida mustahkam bogʻlar hosil qiladi. Ushbu texnologiya shimdirish, polimerlar eritmasidan tayyorlash, issiq holda presslash va qogʻoz tayyorlash usullarini oʻz ichiga oladi.

Qoʻshaloq texnologiya notoʻqima matoni tashkil etuvchi elementlarini mexanik usulda biriktirish yoki qoʻshish bilan bir qatorda kimyoviy moddalar yordamida mustahkam bogʻlar hosil qilishga asoslangan. Ushbu texnologiyaga asoslangan tafting, igna sanchib yelimlash, elektroflokatsiyalash, namat tayyorlash va iplarni yelimlash usullari sanoatda keng qoʻllaniladi[3-8].




1.1-rasm. Notoʻqima materiallar ishlab chiqarish usullari.

Bugungi kunda mamlakatimizda notoʻqima materiallarni ishlab chiqarish korxonalarining soni koʻpayib bormoqda.Bu korxonalarning ishlab chiqarayotgan mahsulotlari nafaqat ichki bozorda balki jahon bozorlarida ham oʻz oʻrnini topa olgan deb aytishimiz mumkin.Quyidagi kompaniya bilan tanishib,ishlab chiqa-rayotgan mahsulotlarini tahlil qilamiz.

“Sam-Negin” mas’uliyati cheklangan jamiyati Oʻzbekiston Respublikasidagi yetakchi tola ishlab chiqaruvchi korxonalardan biridir. U Samarqand viloyatining Urgut shahrida, mamlakatimizning asosiy logistika yoʻnalishlari chorrahasida joylashgan. 2003-yilda tashkil etilgan “Sam-Negin” korxonasi an’anaviy gilamlar ishlab chiqarish boʻyicha ichki bozorga kirib, darhol oʻzini ishonchli hamkor va yuqori sifatli toʻqimachilik mahsulotlari yetkazib beruvchi sifatida namoyon etib, iste’molchi e’tirofiga sazovor boʻldi.

Samarqand viloyatida ish faoliyatini boshlagan “Sam-Negin” mas’uliyati cheklangan jamiyati bugungi kunda notoʻqima materiallardan sintipon, flezilin,qurilish uchun notoʻqima matolar,namat va boshqa assortimenlarda fizik-kimyoviy texnologiyada olingan notoʻqima materiallarning har xil turlarini ishlab chiqarmoqda. Ushbu mas’uliyati cheklangan jamiyati quyidagi brend ostida mahsulot ishlab chiqaradi.SN GROUP savdo belgisi ostidagi sintetik isituvchi qatlamli material yuqori sifatli xom ashyodan va odamga zarar etkazmaydigan yoki allergik reaktsiyalarni keltirib chiqarmaydigan boshqa moddalardan foydalanmasdan ishlab chiqariladi. Uni ishlab chiqarish jarayoni tolalarni termal mahkamlashning zamonaviy texnologiyasiga asoslangan.Sintetik isituvchi qatlamli materiallardan biri sintipon qishki kiyimlar va boshqa maishiy mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun keng qoʻllanilmoqda, u mukammal issiqlik oʻtkazuvchanlikga ega, bu borada paxta yoki jundan kam emas. Arzon narxlari,yengilligi, xavfsizligi va foydalanishga chidamliligi tufayli sintetik isituvchi

materiallardan eng mashhuridir.

Ushbu mashhur material mebel ishlab chiqarishda, avtomobillar uchun ehtiyot qismlar ishlab chiqarishda, ovoz va issiqlik izolyatsiyasida, tashqi kiyim va choyshablarni tikishda qo‘llaniladi[4-8].

2-rasm. Xomashyo,olingan mato va ishlab chiqilgan kiyim.

Noto‘qima materiallarning xossalari boshqa turdagi to‘qimachilik materiallaridan farqlanishi bilan birga, gazlama yoki trikotajga xos bo‘lmagan xususiyatlarga ega. Yana bir jihatdan noto‘qima materiallar ancha arzon. Shuning uchun so‘nggi yillarda ulardan foydalanish ko‘lami tobora ortib bormoqda. Ko‘p hollarda, ayniqsa, texnik sohalarda foydalanilayotgan gazlama va trikotajning o‘rniga noto‘qima materiallar ishlatilmoqda. Bu bir tomondan qimmatli mahsulotni tejashga imkon bersa, ikkinchi tomondan iste`mol mollari ishlab chiqarishni ko‘paytirishga zamin yaratadi.

Noto‘qima materiallar foydalanish yo‘nalishiga ko‘ra texnik maqsadlar uchun hamda maishiy buyumlar tayyorlashga mo‘ljallab ishlab chiqariladi. Texnik materiallar jumlasiga sanoatda turli moylar, suyuqliklar, gazlarni, kimyoviy moddalarni tozalash yoki ajratishga mo‘ljallangan materiallar kiradi. Bulardan tashqari uzatish tasmalari, konvyerlar tasmasi tayyorlashda, poligrafiyada kitoblarni muqovalash uchun, avtomabilsozlikda mashina ichini qoplashda va o‘rindiqlarini tayyorlashda, yo‘l va uy-joylar qurilishida himoyalovchi qatlam sifatida, ekin maydonlarini sug‘orish va botqoqliklarni quritishda, issiqlik tarmoqlarini himoyalashda ham ko‘plab turdagi noto‘qima materiallardan foydalaniladi. Hozirgi kunda texnikaning noto‘qima materiallar kirib bormagan sohasi qolmadi deb aytish mumkin[5-9,10].

Xulosa. Noto‘qima materiallarni ishlab chiqarish bugungi kunda tez ko‘lamda rivojlanib borishining asosiy sabablari shundaki, to‘qilgan materiallar tayyorlash uchun ip asosiy xomashyo hisoblansa, noto‘qima materiallarni ikkilamchi xomashyodan olinishi,to‘qilgan materiallar ishlab chiqarish uchun bir qancha xarajatlar,elektr energiyasi,ishchi kuchi talab qilinsa, noto‘qima materiallar ishlab chiqarish usullarida ishchi kuchi sarfi 2-6 marta, kapital xarajatlar 2-4 marta kamayadi va ishlab chiqarish maydoni

1,2-4 marta qisqarishini kuzatish mumkin.Bu esa o‘z navbatida, xomashyodan yutish bilan bir qatorda barcha xarajatlarni ham kam sarflab ko‘plab mahsulot ishlab chiqarish mumkinligidan dalolatdir.“Sam-Negin” mas’uliyati cheklangan jamiyati bugungi kunda noto‘qima materiallardan sintipon, flezilin,qurilish uchun noto‘qima matolar,namat va boshqa assortimenlarda fizik-kimyoviy texnologiyada olingan noto‘qima materiallarning har xil turlarini ishlab chiqarishi bilan mamlakatimiz rivojlanishiga hissa qo‘shib kelayotgan korxonalardan biridir.Noto‘qima materiallarni ishlab chiqarish mexanik, fizik-kimyoviy va murakkab texnologiyaga bo‘linishi va bu usullardan turli maqsadlarda har xil assortimentdagi noto‘qima materiallar ishlab chiqarish ko‘lamini yanada ko‘paytirish imkoniyatlarini yaratadi deb aytish mumkin.

**Foydalangan adabiyotlar:**

[1] T.A.Ochilov.,B.B.Ahmadov.,S.SH.Toshto‘latov “Tikuvchilik Materialshunosligi” Kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun darslik .”Davr nashriyoti” Toshkent- 2017y. 213-214 bet.

[2] Т.Б.Миловидова.,Д.В.Алексеенко «Криминалистическое исследование нетканых материалов» ВЫПУСКНАЯ КВАЛИФИКАЦИОННАЯ РАБОТА ФГАОУ ВО «ЮУрГУ (НИУ) . Челябинск, 2018-год.

[3] «Криминалистическое исследование нетканых материалов» ВЫПУСКНАЯ КВАЛИФИКАЦИОННАЯ РАБОТА ФГАОУ ВО «ЮУрГУ (НИУ)» – 40.05.03. 2017. 556. ВКР . Челябинск, 2018-год.

[4] Панкова, Е.А. Механическая технология текстильных материалов: учебное пособие / Е.А. Панкова, И.В. Красина – Казань: КГТУ, 2010. – 110 с.

[5] N.Yakubov.,M.Abduraximova.Yu.Ergashev “Noto‘qima materiallardan tikuv buyumlariga ishlov berish texnologiyasi” fanidan ma’ruzalar matni.Farg‘ona-2022yil.

[6] Валиев, Г. Н., Хомидов, В. О., & Турдиев, М. (2020). Исследование влияния скорости снования на форму баллона нити натурального шёлка. In Научная Конференция (p. 195).

[7] G.A. Mirboboyeva, M. Turdiyev (2022).MODANING FUNKSIYALARI VA RIVOJLANISH QONUNIYATLARIDAN FOYDALANIB MODELLARNI RAMZIY TIMSOLLAR ASOSIDA TAHLILI.Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, спец.выпуск №7) 47-50bet.

[8] Г.Н.Валиев, В.О.Хомидов., М.Турдиев,. Особенности формы баллона нити натурального шёлка при сматывании с неподвижной паковки. //Международный научно-практический форумSMARTEX 2020 «Физика волокнистых материалов:структура, свойства, наукоемкие технологии и материалы (SMARTEX)» г. Иваново 2020г.-с.24-30

[9] N.O.Odilxonova.,I.R.Azizov “Tolali chiqindilarni tayyorlash darajasining aralash ip sifatiga ta'siri” Universum: texnika fanlari. 2020 yil. 7-2-son (76)

[10] Tursunova, X.Sh., Mamatqulova Saida Rahmatovna. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. 3rd international congress of the human and social science researches.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# ORGANIZATION OF INTEGRATED LESSONS IN PRIMARY EDUCATION

Hamdamova Tursunoy Abdullayevna[1]

*School №37 Baghdad district, Fergana region*

KEYWORDS

object, educational system, educational foundation

ABSTRACT

Nowadays, there is a lot of talk about the integration of primary school education. This concept is characterized by the perception of the world around a small school student as a whole, for him not the name of natural science, rustic, music and other educational subjects, but the interestingness of the sounds, colors, sizes of the objects of the world around him. The teacher feels and knows that it is necessary to teach children to see the connection between nature and everything in everyday life. Therefore, questions such as whether educational integration meets the requirements of the present time, and how it should be organized, are gaining urgent importance.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7488613
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher, School №37 Baghdad district, Fergana region, UZB

The idea of integration of education began to be discussed in public education along with differentiation and individualization. If the level of preparation for independent work with books, textbooks and other literature on the basis of the classification of junior school education and the active formation of interests at the junior school age require the deepening and clarification of some common concepts that are the objects of learning various subjects as the basis of integration and expandable. The main goal of the integration of education is to form a good perception of nature and society in primary school and direct one's attitude to the laws of their development. That is why it is important for a junior high school student to see the subject or events from several angles. Mastering basic subjects and teaching intra-subject and inter-subject connections in understanding the laws of things in the world is the methodological basis of the approach to the integration of education. This can be achieved by returning many times to the concepts of various lessons, deepening and enriching them, identifying important signs that are understandable to this age. Thus, any lesson that is well-formed, structured and conducted, and includes a group of concepts related to this educational subject can be used as a basis for integration.

However, the results of the analysis of concepts related to other subjects and other educational subjects are included in the integrated lesson. For example, concepts such as "winter", "cold", "storm" are considered in the lessons of reading, Russian language, science, music, visual arts. Lessons in which analysis of concepts refers to the knowledge acquired in other educational lessons are considered integrated. In addition to being creative and free, the lesson will have a unique, logically sequential methodology. Many concepts in elementary school, which lay the foundation of general education, are common to science, Russian language, music, visual arts, etc. Currently, it is necessary to develop and test an integrated system of lessons, which is a psychological and methodological basis for establishing connections between common concepts for a number of educational subjects. At the same time, interdisciplinary relations should be taught at the level of the curriculum and provided with the necessary teaching tools. Integrated lessons are an interactive educational system that explores the secrets of creating visual skills based on the deepening and expansion of integrative knowledge. The visual education system is built on the basis of various types, forms, methods, and objects. The goals and objectives of the integration course are described in the school natural science education system. Methods and means of integration in the integrated (demonstration) network of knowledge: depending on the amount of time at the place of teaching in the educational plan, the time for full mastery of this course, the level of mastery of students is multi-purpose and color- characterized by color. The creation of appropriate mental excitement for students while studying each educational subject greatly helps the mastering of this material, it helps to remember it quickly, emotional awareness, and the growth of thinking ability. , leads to the development of speech and imagination. Formation of different types of thinking skills in primary school students is the basis of integration. Mastering basic subjects and establishing intra-subject

and inter-subject connections in understanding the laws of things in the world is the methodological basis of the approach to the integration of education. This can be achieved by returning many times to the concepts of various lessons, deepening and enriching them, identifying important signs that are understandable to this age. Thus, any lesson that includes a group of concepts related to this subject can be used as a basis for integration. Today, the demands arising from the development of science and huge changes in production are setting new tasks for school education. We see this in the decisions and decrees of our honorable president Sh.M. Mirziyoyev on education. The 4th direction of the Action Strategy, adopted on February 7, 2017, also discusses the education system. the task is performed by the teacher himself. It teaches children arithmetic, writing, nature and many basic concepts. He does this to the best of his ability. It is desirable to see integration in primary education on the basis of combining subjects that are relatively close to each other. At the next stages of education, he tries to combine the boundaries of basic sciences. It is necessary to take into account the presence of positive and negative factors in the integration of primary education. These factors determine the methods of integration. Dispersion of subjects taught in schools creates a one-view (fragmentary) worldview in a school graduate. Dispersed teaching of general education subjects at school, not teaching them in an integral relationship with each other, hinders the students' full knowledge and understanding of the whole being, causing difficulties for the students. According to our scientists, integration is one of the didactic principles and takes a leading place among them. Such a concept creates the need to once again consider the issue of integration, interdisciplinary coherence and connection in the educational system. Integration into the education system is one of the main tools for solving educational and educational tasks between the school and the public. Integrated lessons teach children to naturally understand the unity of their worldview and the coherence of events. Integration is the convergence and connection of disciplines during the differential process. The process of integration is a stage of connecting the communication between disciplines in a new, high quality, and manifests itself in a high way. It should be noted that the foundations of the integration process are based on long-ago folk pedagogy and scientific pedagogy.

In primary education, the teacher performs the task of integration. It teaches children arithmetic, writing, nature and many basic concepts. He does this to the best of his ability. It is desirable to see integration in primary education on the basis of combining subjects that are relatively close to each other. At the next stages of education, he tries to combine the boundaries of basic sciences. It is necessary to take into account the presence of positive and negative factors in the integration of primary education. These factors determine the methods of integration. Y.M. Kolegin and O.L. Aleksenko point out the negative factors of integration: the limited number of educational subjects - the content of the large amount of acquired knowledge can be supplemented by reflecting the real view of the world, the interdependence of its parts. The need to develop very important reading, writing and numeracy skills. It seems like these things require separate teaching. But the traditional

experience of teaching reading and mathematics also testifies to the wide integration possibilities. In this case, reading as a science includes not only literary texts, but also materials on history and natural science. It includes mathematics, arithmetic, algebraic and geometric materials. Such integration does not prevent the formation of important skills, but rather guarantees their formation. The main goal of integrating education is to lay the foundations of a good idea of nature and society in elementary school and to form their relationship to the laws of their development. That is why it is important for a junior school student to see the subject or the phenomena of reality from several angles: logically and emotionally, in a work of art and popular scientific article, from the point of view of a biologist, a wordsmith, an artist, a musician, etc. Establishing intra-subject and inter-subject connections in mastering the basic subjects and understanding the laws of things in the world is the methodological basis of the approach to the integration of education. can be achieved by determining. Thus, any lesson with a well-formed structure and transfer procedure, which includes a group of concepts related to this educational subject, can be used as a basis for integration. But the integrated lesson includes other subjects, other the results of the analysis of concepts related to educational subjects are included. For example, concepts such as "winter", "cold", "storm" are considered in reading, Russian language, science, music, visual arts classes. The analysis of concepts is integrated in the lessons that refer to the knowledge acquired in other educational lessons. The lesson will be creative and free, but it will also have a unique method of complete, logical sequence.

Many concepts in elementary school, which lay the foundations of general education, are common to science, Russian language, music, visual arts, etc. Currently, it is necessary to develop and test the system of integrated lessons, in which the establishment of connections between the concepts common to a number of subjects is psychological and methodological. should be provided with teaching tools.

**REFERENCES**

1. Alexander R. Versions of primary education. – Routledge, 2013.
2. Berdiyeva M. M. Formation of intellectual culture of a preschooler.
3. Berdiyeva, M. M. Formation of intellectual culture of a preschooler.
4. Шарафутдинова Х. Г., Бердиева М. М. ПРОБЛЕМА ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОТНОШЕНИЯ К РЕБЁНКУ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ //Гуманитарный трактат. – 2018. – №. 25. – С. 89-91.
5. Meyliyevna B. M. PEDAGOGICAL SUPPORT AND DEVELOPMENT OF THE INTELLECTUAL OPPORTUNITIES OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATION //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 12.
6. Meyliyevna B. M. The quality of preschool education at the present stage //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 2267-2271.

7. Meyliyevna B. M. The development of cognitive interests in older preschoolers in the process of getting acquainted with nature //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 12. – №. 4. – С. 121-128.

8. Meyliyevna B. M. Tasks for preschool educators //South Asian Journal of Marketing & Management Research. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 151-155.

9. Berdiyeva M., Bo'Ranova S. Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda nutq o'stirish mashg'ulotlari orqali bolalarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishning samarali usullari //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 425-429.

10. Meyliyevna B. M. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI: Berdiyeva Muhabbat Meyliyevna, TerDU Pedagogika instituti //Научно-практическая конференция. – 2021.

11. Бердиева М. М. ФОРМИРОВАНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ ДОШКОЛЬНИКА //INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION. – 2019. – С. 75-76.

12. Бердиева М. М. ПРОЕКТИРОВАНИЕ ПРЕДМЕТНО-ПРОСТРАНСТВЕННОЙ РАЗВИВАЮЩЕЙ СРЕДЫ ДОШКОЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2018. – С. 156-159.

13. TURAKULOVNA M. F., QIZI M. M. M. Competence of the educator in the organization of visual activities //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 100-103.

14. Turakulovna M. F. PEDAGOGICAL BASES OF EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN //Journal of Ethics and Diversity in International Communication. – 2021. – Т. 1. – №. 1. – С. 23-24.

15. Мухамадиева Ф. И. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НОВЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ //WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS. – 2018. – С. 170-172.

16. Мухаммадиева Ф. И. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СИСТЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ДЛЯ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ПАРАМЕТРОВ КАЧЕСТВА ДЕТАЛИ //Металлообрабатывающие комплексы и робототехнические системы-перспективные направления научно-исследовательской деятельности молодых ученых и специалистов. – 2016. – С. 21-24.

17. Мухаммадиева Ф. И. ОБУЧАЮЩИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ РЕСУРСЫ В МОДЕРНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ //Юность и знания-гарантия успеха. – 2014. – С. 291-293.

18. Мухаммадиева Ф. И. ГЛАВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ КВАНТОВОГО КОМПЬЮТЕРА //Современные инструментальные системы, информационные технологии и инновации. – 2014. – С. 123-125.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# REQUIREMENTS FOR THE QUALITY OF WATER IN FISH BREEDING PONDS

Kurbanova Dilafruz[1]
Shukrullaeva Dilnoza[2]
Shukurullaeva Ezoza[3]

*Jizzakh Polytechnic Institute*

KEYWORDS

ABSTRACT

Fishing is a branch of the national economy that deals with increasing the stock of fish in water bodies and improving its quality; the biological basis of fish breeding activities (artificial reproduction of fish and training it to new conditions, breeding of new breeds of fish, improvement of the reclamation condition of water bodies) and the main fish breeding processes (catching adult fish, hatching fish eggs, fish farming, etc.), the science that develops biotechniques. Fisheries are divided into natural pond fisheries and artificial pond fisheries. In fisheries, the amelioration of water bodies is improved, fish are artificially bred, appropriate conditions are created in places where fish lay eggs and young fish grow; fish spawning grounds are cleaned, fish paths are made to river dams, and artificial spawning grounds are prepared.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7508250
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher, Jizzakh Polytechnic Institute, UZB
[2] Student, Jizzakh Polytechnic Institute, UZB
[3] Student, Jizzakh Polytechnic Institute, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# БАЛИҚ ЕТИШТИРИШДА ҲАВЗАЛАРИДАГИ СУВНИНГ СИФАТИГА ҚУЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

KALIT SO‘ZLAR:

ANNOTATSIYA

Балиқчилик — халқ хўжалигининг сув ҳавзаларида балиқ захирасини кўпайтириш ва сифатини яхшилаш билан шуғулланувчи соҳаси; балиқ ўстириш тадбирлари (балиқни сун’ий усулда кўпайтириш ва уни янги шароитга ўргатиш, янги зот балиқлар йетиштириш, сув ҳавзаларининг мелиоратив ҳолатини яхшилаш)нинг биологик асосларини ва асосий балиқ ўстириш жараёнлари (вояга йетган балиқларни овлаш, балиқ тухумини очириш, балиқ боқиш ва бошқалар)нинг биотехникасини ишлаб чиқувчи фан. Балиқчиликтабиий сув ҳавзалари балиқчилигига ва сун’ий ҳовуз балиқчилигига бўлинади. Балиқчиликда сув ҳавзаларининг мелиоратив ҳолати яхшиланади, балиқ сун’ий урчитилади, балиқпар тухум қўядиган ва ёш балиқчалар ўсадиган жойларда тегишли шароит яратилади; балиқларнинг тухум қўядиган жойлари тозаланади, дарё тўғонларига балиқ ёғли ясалади, сун’ий тухум қўйиш жойлари тайёрланади.

Балиқларнинг алоҳида хусусиятлари сувнинг хусусиятларига боғлиқ - уларнинг тана туз илиши, ҳаёти , озиқланиши, улар организмида кечаётган жараёнлар, уларнинг хулк-атворига боғлиқ.

Сувнинг тиниқлиги қуёш нурларининг сув тубига чуқурроқ киришига сабаб бўлади, яъни нурлар сонига. Улар балиқ ҳаётида муҳим роль ўйнайди, балиқ озиқланадиган ўсимликлар ва умуман, организмлар учун ҳам. Сувнинг тиниқлик даражасига қараб, балиқлар ҳаёти учун ҳавзада шароитлар яхшилигини билиш мумкин.

Жумладан, сувнинг тиниқлиги балиқларнинг ҳовузлардаги қишлови вақтида муҳим жиҳат саналади.

Сув нурларни ютиш хусусиятига эга. Ҳатто энг тоза сувда ҳам нур чуқурликка ўта олмайди. Таркибида қандайдир ортиқча заррачалар бор сувдан нурнинг ўтиши қийин бўлади. Чунки балиқ яшайдиган сувда доим заррачаларнинг озроқ миқдори бўлади. Чучук, лойқа сувда, шўр сувга қараганда нурлар чуқурликка кам роқ ўтади.

Тиниқликни аниқлашнинг турли усуллари мавжуд. Оддий усуллардан бири - сувга аста-секин оқ дискни (Секки диски) туширилади ва қандай чуқурликда у кўринмай қолиши ўлчанади. Фотографик усул аниқроқ: сувга кассета туширилади ва унинг қандай чуқурликда кўринмай қолиши белгиланади.

Тиниқлик 4-5 метрни эгаллайдиган энг тиниқ сувлик Байкал кўлидир. Кўпчилик кўлларда тиниқлик жуда оз, баъзи жойларда хатто 1 метрга ҳам етмайди.

Ердагига қараганда ёруғлик кунининг давомийлиги озроқ. Масалан, 20 метр чуқурликда ёзда фақатгина 11 соат ёруғ бўлади. Сувнинг тиниқлиги ҳавзаларда кўпроқ қишда бўлади.

Лойқа сув балиқлар ҳаёти учун ноқулайдир. Бу тушунарли: сувнинг лойқалиги ундаги минерал ёки органик унсурлар сонининг катталигини билдиради. Бу заррачалар балиқ жабраларида чўкиб қолади ва балиқнинг меъёрда нафас олишига тўсқинлик қилади (айниқса, қишда). Сувдаги минерал заррача- ларнинг кўплиги бошқа исталмаган асоратларни ҳам келтириб чиқаради. Бундай сувларда балиқларга озуқа ҳисобланган мавжудотларнинг ривожланиши ёмон ҳолатда бўлади. Шунинг учун лойқалик билан курашилади. Мисол учун, сувни ҳовуз тиндиргич (отстойниклар)идан ўтказилади. Айни вақтда юқори маҳсулотли ҳовузларда сув тиниқлиги баланд эмас, бу эса майда сув ўтлари (фитопланктон) ва сув мавжудоти (зоопланктон)ларнинг оммавий ривожланишини билдиради.

Сув ҳавзасидаги сувнинг сифатли бўлиши балиқчиликда юқори ҳосил олишнинг асосий омилларидан бири ҳисобланади.

Сувнинг сифатини белгиловчи кўрсаткичларни кўз билан, шунингдек, ҳидидан, мазасидан ҳам аниқлаш мумкин.

1-жадвал

| **Кўрсаткич** | **Сифатли сув** | **Сифатсиз сув ёки** |
|---|---|---|
| **Ранги** | **Тоза, шаффоф,** | **Турли ранглар** |
| **Ҳиди ва мазаси** | **Оддий (ҳеч қандай ҳид ва маза** | **Ўз ига хос ҳид ва мазага эга (фенол, нефть** |
| **Чўкинди** | **Тиндирилган да билинар-** | **Катта миқдорда қорамтир чуқинди (кўп миқдорда** |
| **Ифлослан иши** | **Ифлосланиш йўқ** | **Сув таъминоти тармогидан ифлосланган сув** |
| **Балиқ мавжудли ги ва ўлат (замор)** | **Турли балиқлар яшайди. Ёзги ва қишки ўлат** | **Сув сифати ёмонлиги сабабли товонбалиқ (карас) балиғидан бошка** |

Балиқчилик хўжалигини сув билан таъминловчи тармоқ инфекцион касалликлар ва турли заҳарли химикатлар аралашиш хавфидан холи бўлиши керак.

Шунингдек, махсус асбоб-ускуналар ёрдамида текширишлар йули билан сувнинг физик ва кимёвий хусусиятлари белгиланган вақтларда аниқлаб турилади. Физик хусусиятларидан сувнинг ранги тоза, шаффоф, рангсиз ва карпсимонлар оиласидаги балиқларнинг яхши ривожланиши учун сув ҳарорати +23-30 $^0$C бўлиши

керак.

Иссиқсевар карп балиқлари учун сув кимёвий таркибининг оптимал кўрсаткичлари:

Рангпарлиги (градус) - 30-50 Кислород (мг-л) - 4 дан ортиқ Углекислота (мг/л) - 10 гача Сероводород (мг/л) - 0 Актив реакцияси (pH) - 7 Ишқорланиши (мг-экв) - 1,8-2 Умумий қаттиқлиги (градусда) - 5-8 Оксидланиши (мг$O_2$/л) - 15-20 Албуминоидли азот (мгШл) - 0,5-1,5 Тўз ли аммиак (мгN/л) - 0,5-1,0 Нитратлар (мг/л) - 0,5-1,5 Нитритлар (мг/л) - 2-3 Фосфатлар (мг $P_2O$/л) - 0,1-0,4 Темир (мгРе/л) - 1-2 Хлоридлар (мгСе/л) - 5-10 Сульфатлар (мг$80_4$/л) - 10 гача Тўз лар (гр/л) - 1 гр дан ортиқ

Тавсия: Ёзнинг иссиқ кунларида сувда эриган кислород миқдорининг ҳам айиши содир бўлади. Бу даврда ҳар 4-5 соқтда ҳовузлардаги сув ҳолатининг назоратини олиб бориб, минерал ўгитлар эритмасини ҳовузларга беришда унинг миқдорини кисман ҳам айтириш ёки маълум муддат бермаслик керак. Ҳовўз оҳакланади ҳамда ҳовузларга қушимча сув бериб турилса, замор ҳолатининг олди олинади.

Сувнинг рангини оқ қоғоз фонидаги рангсиз шишадан бўлган колбада аниқланади. Сувнинг турлари унинг келиб чиқишига боғлик: дарё суви - рангсиз ёки оч сарғиш, ботқоқ суви - сариқ ва жигарранг, тоғ суви - бироз оқиш ва сутранг, ифлосланган сув ҳавзаларидан олинган сув - кулранг ва сариқ бўлади. Занг рангли сувлар, айтганимиздек, ботқоқли сув ҳавзаларига хос, балиқлар учун зараплидир. Айниган тухум ҳиди сувнинг таркибида се- роводороднинг кўплигини билдиради. Бу эса, таъкидланганидек, балиқ учун зарарли. Баъзи моддаларнинг ҳиди, жумладан, карбон кислота ишлаб чиқариш чиқиндиларидан зарарланган сувни билдиради.

Яшаш жойлари, ҳаёт тарзи турли гурухдаги балиқларни муҳитга - ўзига хос мослашувга олиб келган. Булар балиқларнинг тана тўз илишида, алоҳида тизимида ва аъзоларида намоён бўлади. Балиқларни қайси тур, гуруҳларга мансублигини аниқлашда уларнинг ташқи кўриниши асосий ўринни эгаллайди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “ Балиқчилик тармоғини бошқариш тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-2939-сонли қарори. Ташкент шаҳри 2017 йил 1 май.

2. Б. Г. Камилов, Р. Б. Қурбонов. Рыбоводство. Ташкент, 2008г., 18, 20,27,28,97,98с.

3. Б. Г. Камилов, Б. Қ. Каримов. Кормление рыб в рыбоводстве. Ташкент, 2008г, 8, 20, 21, 23, 34с.

4. А. У. Мамажонов, Р. Б. Қурбонов, М. Ж. Назаров, У. О. Усмонхўджаев, М. Маматқулов, З. Обидов Ўзбекистон Республикаси минтақаларида ховуз балиқчилигини интенсив усулда юритиш асослари. Фарғона, 2020й., 84-88, 149, 150 б.

Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences
Journal home page:
http://ijournal.uz/index.php/jartes

# THE EFFECT OF NITROGEN AND MINERAL FERTILIZERS ON THE FORMATION OF THE LEAF SURFACE OF COTTON

Kurbanova Dilafruz[1]
Shukrullaeva Dilnoza[2]
Shukurullaeva Ezoza[3]

*Jizzakh Polytechnic Institute*

KEYWORDS

Cotton, repeated crop, mash, nitrogen, inoculation, mineral fertilizers, nitrogen, phosphorus, potassium, leaf surface

ABSTRACT

The article presents information on the effect of nitrogen treatment of Pobeda 104 variety of mush grown as a repeated crop and the use of mineral fertilizers in different rates during its care on increasing the leaf area of cotton.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.
DOI: 10.5281/zenodo.7508250
This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru)

[1] Teacher, Jizzakh Polytechnic Institute, UZB
[2] Student, Jizzakh Polytechnic Institute, UZB
[3] Student, Jizzakh Polytechnic Institute, UZB

iJOURNAL Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES)
VOLUME 1, ISSUE 12 / ISSN 2181-2675

# ТАКРОРИЙ ДУККАКЛИ ДОН ЭКИНИ МОШГА ҚЎЛЛАНИЛГАН НИТРАГИН ВА МИНЕРАЛ ЎҒИТЛАР МЕЪЁРИНИНГ ҒЎЗАНИНГ БАРГ ЮЗАСИНИ ШАКЛЛАНИШИГА ТАЪСИРИ

KALIT SO‘ZLAR:

Ғўза, такрорий экин, мош, нитрагин, инокуляция, минерал ўғитлар, азот, фосфор, калий, барг сатхи

ANNOTATSIYA

Мақолада такрорий экин сифатида етиштириладиган мошнинг Победа 104 навини уруғларини экиш олдидан нитрагин билан ишлов бериш ва уни парваришлашда турли меъёрларда минерал ўғитлар қўллашнинг ғўзанинг барг сатхини ортишига таъсирига оид маълумотлар келтирилган.

Аҳолини озиқ овқат маҳсулотларига, саноатни хом ашёга бўлган эҳтиёжини тўлароқ қондириш бугунги кунда энг долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Бунинг учун суғориладиган майдонлардан самарали фойдаланишимиз мақсадга мувофиқ. Суғориладиган майдонлардан самарали фойдаланишнинг муҳим омилларидан бири кузги бошоқли дон экинларидан бўшаган майдонларга такрорий экинларни экиб етиштириш ҳисобланади. Такрорий экин сифатида дуккакли дон экинларининг экиб парваришланиши алмашлаб экиш тизимида тупроқ унумдорлигини оширишда катта аҳамият касб этади. Ўсимликларнинг баргида кечадиган фотосинтез жараёнида ноорганик моддаларнинг ёруғлик, иссиқлик, сув ва бошқа бир қатор таъсир этувчи омиллар таъсирида органик моддаларга айланиши дунёдаги барча тирик организмлар учун кислород ва озуқа манбаи бўлиб ҳисобланади. Барг пластинкаси асосан хлоропластлардан иборат бўлиб, хлоропластлар хлорофилл доначаларидан ташкил топган ва хлорофилл доначалари баргга яшил рангни бериб туради. Барг эса ўз навбатида ёруғлик, сув ва илдиздан келаётган озуқалардан фойдаланади. Р.Орипов, Н.Халиловларнинг (2006) таъкидлашларича мош қисқа кунли ва иссиқсевар дуккакли-дон экини бўлиб, такрорий экин сифатида кузги буғдой анғизида етиштирилганида 300-400 ц/га кўк масса етиштириб, уни ерга ҳайдаб ташланса, ҳар гектар ер 100 кг биологик соф азот ҳамда чиритилган гўнгнинг бир йиллик меъёрига тенг даражадаги органик моддалар билан бойитади.

Тадқиқотларимизда кузги буғдойдан сўнг такрорий экин сифатида етиштирилган дуккакли дон экинларидан мош уруғларини экиш олдидан *Phaseolus radiatus 148* штаммларидаги нитрагин билан ишлов берилган ва берилмаган фонларда минерал ўғитларнинг қуйидаги ўғитсиз, РК 90:60, NPK 30:90:60, NPK 60:90:60 ва NPK 90:90:60 кг/га меъёрлари синаб кўрилди. Ушбу яратилган фонларда келгуси йили ғўза етиштирилиб, унинг барг юзасини шаклланишига ўтмишдош такрорий дуккали-дон мош экинларида қўлланилган нитрагин ва минерал ўғитлар меъёрларининг таъсири ўрганилди.Нитрагин билан ишлов берилиши

ҳамда уларни парваришлаш давомида минерал ўғитларни мақбул меъёрларда қўлланилиши ҳисобига тупроқнинг агрокимёвий хоссалари яхшиланиб келгуси йили экилган ғўзанинг ўсиши ва ривожланишига ижобий таъсир этди. Бу эса ўз навбатида ғўзанинг барг юзасини шаклланишига ҳам таъсирини кўрсатмасдан қолмади.

Маълумки, ғўзада физиологик жараёнларнинг жадал кечиши, унинг мақбул ўсиши ва ривожланишида ўсимликнинг барг юзаси жуда муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади.

Ғўзанинг барг юзаси А.Ничипоровичнинг тангача усулида торозида ўлчаш орқали аниқланди. Бунда, ғўзадаги барг сони ва унинг нам ҳолдаги оғирлигини эътиборга олиниб, шоналаш, гуллаш-ҳосил тугиш ва ўсув даври охирида ҳисобланди. Ғўзанинг шоналаш даврида бир туп ўсимликдаги барглар сони 10,9 дона, баргларнинг нам ҳолатдаги оғирлиги 10,6 г ва намунанинг вазни 0,97 г ни ташкил этиб, барг юзаси 134,6 см2 эканлиги аниқланди. Такрорий дуккакли дон экинларида нитрагинни қўлланилиши бир туп ғўзадаги барглар сони 0,3 донага, оғирлиги 0,2 г, барг юзасини эса 4,9 см2 га юқори бўлишини таъминлади. Ғўзанинг гуллаш даврида барг сатҳининг юзасини янада кенгайиб бориши кузатилиб, вариантлар орасидаги фарқланишлар янада яққолроқ кўзга ташланди. Бу қонуният ғўза ўсимлигининг гуллаш-ҳосил тўплаш даврида ҳам сақланиб қолди ва бир туп ўсимликдаги барглар сони 37,1 донани, нам ҳолатдаги барглар оғирлиги 54,9 г, намуна оғирлиги 1,48 г, бир дона ўсимликдаги барг юзаси 1555,1 см2 ни ташкил этди.

Такрорий экин сифатида етиштирилган дуккакли дон экинлари уруғларини экиш олдидан нитрагин билан ишлов берилиб, минерал ўғитларнинг N30 P90K60кг/га меъёри қўлланилган фонларда келгуси йили ғўза парвариш қилинган вариантларда, нитрагин қўлланилмаган фонда минерал ўғитларнинг N30 P90K60кг/га меъёри қўлланилиб, келгуси йили ғўза парвариш қилинган вариантларга нисбатан барглар сони 2,1донага, оғирлиги 5,3 г, юзаси эса 28,8 см2 га кўплиги аниқланди. Бу эса ўз навбатида ғўзанинг мақбул ўсиши, ривожланиши ва жадал ҳосил тўплашига қулай шароит яратиб берилганлигини билдиради. Ғўзанинг вегетация давринининг охирига бориб бир туп ўсимликнинг барг юзаси такрорий экин сифатида етиштирилган мош экинларини уруғларини экиш олдидан нитрагин билан ишлов берилиб, минерал ўғит қўлланилмаган вариантларда 2266,8 см2, минерал ўғитларнинг P90K60кг/га меъёри қўлланилган вариантларда 2593,1см2, минерал ўғитларнинг N30P90K60 кг/га меъёри қўлланилган вариантларда 3008,4 см2, минерал ўғитларнинг N60P90K60 кг/га меъёри қўлланилган вариантларда эса 2940,7 см2 ни ташкил этди.

Бир туп ғўзадаги умумий барглар сони ва уларнинг нам ҳолатдаги вазни ҳамда бир дона баргнинг вазни бўйича олиб борилган кузатувларда қуйидаги натижалар олинди. Вегетация давринининг охирига келиб бир туп ғўзадаги барг сони такрорий

экин сифатида мош экинлари уруғларини экиш олдидан нитрагин билан ишлов берилмаган фонда ўғитсиз парвариш қилиниб, келгуси йили ғўза етиштирилган назорат вариантларида 44,8 дона бўлган бўлса, такрорий экин сифатида етиштирилган мош экинларини уруғларини экиш олдидан нитрагин билан ишлов берилиб, минерал ўғит қўлланилмаган вариантларда 45,7 дона, минерал ўғитларнинг Р90К60 кг/га меъёри қўлланилган вариантларда 47,9 дона, минерал ўғитларнинг N30 Р90К6 0кг/га меъёри қўлланилган вариантларда 51,6 дона, минерал ўғитларнинг N60 Р90К60 кг/га меъёри қўлланилган вариантларда эса 51,0 донани ташкил этганлиги аниқланди. Бир туп ўсимликдаги барглардан ҳалқача ёрдамида олинган нам ҳолатдаги намунанинг оғирлиги такрорий экин сифатида мош экинлари уруғларини экиш олдидан нитрагин билан ишлов берилмаган фонларда ўғитсиз парвариш қилиниб, келгуси йили ғўза етиштирилган назорат вариантларида 1,57г бўлган бўлса, такрорий экин сифатида етиштирилган мош экинларини уруғларини экиш олдидан нитрагин билан ишлов берилиб, минерал ўғит қўлланилмаган вариантларда 1,63 г, минерал ўғитларнинг Р90 К60 кг/га меъёри қўлланилган вариантларда 1,72 г, минерал ўғитларнинг N30 Р90 К60 кг/га меъёри қўлланилган вариантларда 1,88 г, минерал ўғитларнинг N60 Р90 К60 кг/га меъёри қўлланилган вариантларда эса 1,85 гни ташкил этганлиги аниқланди.

| № | Такрорийэкилардақўлланилган минерал ўғитлар меъёрлари | Шоналашдаври, 20.06.2011 й. | | | | Гуллаш-ҳосилтугишдаври, 24.07.2011 й. | | | | Ўсувдавриохири, 21.08.2011 й. | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | баргюзаси, $см^2$/ўсим. | Барг сони, дона/ўсим | баргоғир, г/ўсим. (нам ҳолда) | намунавазини г | баргюзаси, $см^2$/ўсим | барг сони, дона/ўсим | баргоғир, г/ўсим. (нам ҳолда) | намуна вазни, г | баргюзаси, $см^2$/ўсим. | барг сони, дона/ўсим | баргоғир, г/ўсим. (нам ҳолда) | намуна вазни, г |
| 1 | Ўғитсиз | 134,6 | 10,9 | 10,6 | 0,97 | 1555,1 | 37,1 | 54,9 | 1,48 | 2266,8 | 44,8 | 70,3 | 1,57 |
| 2 | $Р_{90}К_{60}$ | 144,3 | 11,3 | 11,3 | 1,00 | 1614,6 | 37,8 | 56,7 | 1,50 | 2465,8 | 46,7 | 77,1 | 1,65 |
| 3 | $N_{30}Р_{90}К_{60}$ | 165,9 | 12,1 | 12,5 | 1,03 | 1737,1 | 39,2 | 60,0 | 1,53 | 2614,0 | 48,1 | 83,2 | 1,73 |
| 4 | $N_{60}Р_{90}К_{60}$ | 174,2 | 12,4 | 13,3 | 1,07 | 1854,2 | 40,5 | 62,8 | 1,55 | 2893,1 | 50,6 | 93,1 | 1,84 |
| 5 | $N_{90}Р_{90}К_{60}$ | 168,3 | 12,2 | 12,7 | 1,04 | 1790,2 | 39,8 | 61,3 | 1,54 | 2768,5 | 49,5 | 88,1 | 1,78 |
| 6 | Ўғитсиз + Нитрагин | 139,5 | 11,1 | 10,9 | 0,98 | 1579,9 | 37,4 | 55,7 | 1,49 | 2360,3 | 45,7 | 74,5 | 1,63 |
| 7 | $Р_{90}К_{60}$+ Нитрагин | 151,8 | 11,6 | 11,7 | 1,01 | 1684,5 | 38,6 | 58,7 | 1,52 | 2593,1 | 47,9 | 82,4 | 1,72 |
| 8 | $N_{30}$ $Р_{90}К_{60}$+ Нитрагин | 179,0 | 12,6 | 13,7 | 1,09 | 1928,8 | 41,3 | 65,3 | 1,58 | 3008,4 | 51,6 | 97,0 | 1,88 |
| 9 | $N_{60}$ $Р_{90}К_{60}$+ Нитрагин | 176,6 | 12,5 | 13,5 | 1,08 | 1861,8 | 40,6 | 62,9 | 1,55 | 2940,7 | 51 | 94,4 | 1,85 |

Юқоридаги натижалардан кўриниб турибдики, кузги буғдойдан сўнг такрорий экин сифатида етиштирилган мош экинлари уруғларини экиш олдидан нитрагин билан ишлов берилиши келгуси йили етиштириладиган ғўзанинг ривожланиш даврлари мобайнида баргнинг шаклланиши ва юзасига ижобий таъсир этди. Бунда бир туп ғўзадаги барглар сонини 0,9 донага, барг вазнини 4,2 г га, намуна вазни 0,06 г га ортган бўлса, унинг юзаси эса 93,5 см2 га кўпроқ бўлган. Бу эса ўз навбатида фотосинтез жараёнининг жадаллашувига ижобий таъсирини кўрсатди.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати**

1. Мавлонов Б., Хамзаев А., Бобоқулов З. – Дуккакли дон экинларининг тупроқ унумдорлигини оширишдаги аҳамияти. //Ўзбекистон қишлоқ хўжалик журнали.

2018. № 8.Б. 36.

2. Иминов А.А., Хатамов С.Р., Холдарова Д.Э., Қўзибоев Ш.Т., Қисқа навбатли алмашлаб экиш тизимларида такрорий дуккакли-дон экинларида нитрагин ва минерал ўғитлар қўллаш бўйича тавсиялар. Тошкент давлат аграр университети таҳририят-нашриёт бўлими. Тошкент-2020 йил.

3. Иминов А.А., Усмонов И. М.,Холдарова Д.Э. Мош экинида нитрагин ва минерал ўғитлар қўллашнинг тупроқ унумдорлигига таъсири//“Агро кимё химоя ва ўсимликлар карантини”илмий-амалий журнали Тошкент 2019-№5 Б.53-54. (06.00.00. №11)